

X.S. Muxitdinova, G.Z. Muxamedjanova,
F.S. Talipova, R.B. Eshbayeva

O‘zbek tili

*Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan o’rta ta’lim
muassasalarining 11-sinfi va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi
muassasalarining o’quvchilari uchun darslik
1-nashri*

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

«DAVR NASHRIYOTI»
Toshkent – 2018

UO'K: 811.512.133(075.3)

KBK 81.20'zb-922

Aziz o'quvchilar!

O'zbek tilida egallagan bilimlaringizni og'zaki va yozma nutqda mustaqil qo'llashga, ko'nikmalaringizni yanada oshirishga intilyapsiz. 11-sinfda o'zbek tilidan ijtimoiy vaziyatlarda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali mustaqil ishlay olish layoqatlarini o'zlashtirasiz.

Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalaringizni o'stirish maqsadida yangi nutqiy mavzular, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi leksik va grammatik vositalarni egallaysiz. Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiborli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilishni o'rganasiz. Nutqiy mavzuni izchil va oson o'zlashtirishingizni ko'zda tutib, mavzularni 3 ta darsga ajratilgan holda tavsiya etdik. 1- va 2-darslarda nutqiy hamda grammatik mavzular berilgan bo'lsa, 3-darsda «Adabiy o'qish» ruknida yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijodiga oid materiallar berildi.

Taqrizchilar:

O'. Lafasov – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

O. Mo'minova – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbek tili kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

O. Yo'ldosheva – Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi 5-sonli akademik litsey oliy toifali o'qituvchisi;

Z. Arinova – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 300-maktab o'qituvchisi.

O' 16

O'zbek tili: [matn] ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik /X.S. Muxitdinova [va boshq.]. – Toshkent: DAVR NASHRIYOTI, 2018.– 192 b.

UO'K: 811.512.133(075.3)

KBK 81.20'zb-922

Shartli belgilar

	Bilib oling!		Uyga vazifa
	Topshiriq		Adabiy o'qish
	Mashq		Lug'at
	Suhbat		Savol va topshiriqlar

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-5024-3-7

© X.S. Muxitdinova va boshq., 2018

© «DAVR NASHRIYOTI» MCHJ, 2018

1-mavzu. O'zbekiston – suveren davlat (O'tilganlarni takrorlash. So'z birikmasi va gap)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Berilgan tayanch so'z, so'z birikmalari va rasm asosida o'zaro suhbatlashing.

Tayanch so'z va so'z birikmalari: MDH davlatlari, katta anjumanlar sa-royi, davlat bayroqlari, davlat boshliqlari, sammit, teng huquqlilik, suveren davlatlar.

📖 **1-mashq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor be-ring.

O'zbekiston – suveren davlat

O'zbekiston xalqaro munosabatlarning **teng huquqli subyekti** hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini **mustaqil davlat** sifatida jahonning 166 mamlakati tan olgan. 133 mamlakat bilan **diplomatik munosabatlar**

oʻrnatilgan. 44 mamlakat Oʻzbekistonda oʻz **elchixonasi va vakolatxona-** sini ochgan, 30 mamlakatda esa Oʻzbekiston Respublikasining elchixonasi yoki vakolatxonasi mavjud. Oʻzbekiston BMTning toʻla huquqli aʼzosi sifatida koʻp davlatlar bilan diplomatik, savdo-sotiq va ijtimoiy-madaniy aloqalarni oʻrnatmoqda.

Oʻzbekiston oʻz **tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarni**, avvalo, oʻz Konstitutsiyasiga tayangan holda hamda xalqimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqib, **davlat suverenitetini** yanada mustahkamlashga qaratilgan holda olib boradi.

Konstitutsiyaga muvofiq Oʻzbekiston oʻz tashqi siyosatida davlatlarning suveren tengligi, **chegaralarning dahlsizligi**, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish, boshqa **davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik** kabi umumeʼtirof etilgan qoidalardan kelib chiqadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatining asosiy maqsadi yagona iqtisodiy makon yaratish va uni yanada rivojlantirishdir.

(«Oʻzbekiston Respublikasi» ensiklopediyasidan)



Lugʻat

teng huquqli – равноправный

tashqi siyosat – внешняя политика

elchixona – посольство

vakolatxona – представительство

tayanmoq – опираться

manfaat – польза, интересы

xalqaro munosabatlar – международные отношения

dahlsizlik – неприкасаемость

ichki ishlar – внутренние дела

aralashmaslik – *полит.* невмешательство

◆ 2-topshiriq. Berilgan savollarga javob bering.

1. BMT, MDH qisqartma soʻzlarini izohlang. MDHga qaysi mamlakatlar kiradi?
2. BMT tashkiloti qanday vazifalarni bajaradi?
3. Oʻzbekiston oʻz tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarni nimalarga tayangan holda olib boradi?



Bilib oling!

Ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzning maʼno va grammatik jihatdan bogʻlanishi **soʻz birikmasi** deyiladi. Soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlar tobe munosabatda boʻladi. Oʻzbek tilida tobe soʻz hokim soʻzdan oldin keladi.

Masalan: Vatanni sevmoq – nimani sevmoq? Vatanimiz bilan faxrlanmoq – nima bilan faxrlanmoq?

Soʻz birikmasini gapdan farqlash kerak. Gap tugallangan fikrni bildiradi, soʻz birikmasi esa faqat atash vazifasini bajaradi.

Qiyoslang: Davlat bayrogʻi – nima? (**soʻz birikmasi**). Davlatimiz bayrogʻi hilpirab turibdi – nima? nima qilyapti? (**gap**).

Soʻz birikmalarining hosil boʻlishi va tuzilishi			
Soʻz	Soʻz birikmalari	Soʻz birikmalarining tuzilishi	
		tobe soʻz	hokim soʻz
davlat bayrogʻi turli mamlakatlar Vatan bilan faxrlanmoq	davlat bayrogʻi turli mamlakatlar Vatan bilan faxrlanmoq	davlat turli Vatan bilan	bayrogʻi mamlakatlar faxrlanmoq



2-mashq. Birinchi qatorda berilgan sifatlarni ikkinchi qatorda berilgan otlar bilan bogʻlab, soʻz birikmalari tuzing.

Mustaqil, suveren, katta, soʻlim, obod, keng, ahil, sevimli.
Vatan, koʻcha, davlat, qishloq, shahar, mahalla, oila, maktab.



3-mashq. Gaplarni soʻz birikmalariga ajratib yozing. Tobe soʻz va hokim soʻzni aniqlab, bogʻlanish vositalarini koʻrsating.

Namuna: mustaqillik**ka** erishgach, respublik**amizda** amalga oshirildi, ulkan ishlar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, respublikamizda ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O‘zbekistonni 166 ta davlat tan olgan. Jahondagi 133 mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. Toshkentda 44 dan ortiq mamlakat o‘z elchixonalarini ochgan.

◆ **3-topshiriq.** So‘z birikmalarining tugallanmagan ohang bilan, gaplarning tugallangan ohang bilan aytilishini mashq qiling.

So‘z birikmalari	Gaplar
mustaqil Vatanimiz	Vatanimiz – mustaqil.
ikki qavatli maktab	Maktab ikki qavatli.
obod mahalla	Mahalla obod.
yorug‘ ko‘chalar	Ko‘chalar yorug‘.



4-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

- Vatan deganda nimani tushunasiz?
- Men Vatan deganda o‘z uyimni, oilamni, do‘stlarimni tushunaman. Vatan – bu biz tug‘ilgan yurt. Mamlakatimizning har bir qarich yeri men uchun Vatan.
- Vatan oldidagi burch deganda nimani tushunasiz?
- Vatanni sevish – bu uni asrab-avaylash, unga xizmat qilish degani.
- Vatanga sadoqat, vatanparvarlik nimalarda aks etadi?
-



Uyga vazifa. Berilgan savollar asosida «O‘zbekiston – suveren davlat» mavzusida matn tuzing.

1. O‘zbekiston qanday respublika?
2. O‘zbekiston nechta mamlakat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan?
3. Davlatlarning suveren tengligi nimalarda namoyon bo‘ladi?

2-dars



 **4-mashq.** Matnni o‘qing va berilgan savollar asosida o‘zaro suhbatlashing.

O‘zbekistonning davlat tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlat boshqaruvi xalq tomonidan bevosita yoki saylab qo‘yilgan vakillar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylangan deputatlar orqali amalga oshiriladi. Davlat xalq nomidan ish ko‘ruvchi Prezident va Oliy Majlis tomonidan boshqariladi. Prezident umumxalq referendumi, deputatlar esa xalqning ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 11-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linadi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir.

Oliy Majlis davlatning eng oliy vakolatli tashkiloti hisoblanadi. U ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat. Ularning vakolat muddati – 5 yil. Oliy Majlisga deputatlar turli partiyalar vakillari orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Deputatlar o‘z saylovchilari nomidan ish yuritadi.



Lug‘at

muvofig – согласно

boshqaruv – управление

saylangan – избранный

vakil – представитель

ovoz bermoq – голосовать

modda – статья

qonun chiqaruvchi – законодательный

ijro etuvchi – исполнитель

vakolat muddati – срок полномочия



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlat boshqaruvi kim tomonidan amalga oshiriladi?
2. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati qanday tizimlardan iborat?
3. Oliy Majlis qanday tashkilot va u nimalardan tashkil topgan?
4. Prezident va Oliy Majlis deputatlari qay tarzda saylanadilar?



5-mashq. 4-mashqda berilgan matndan mos so‘z birikmalarini toping va gaplarni to‘ldirib yozing.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi ... amalga oshiriladi. Oliy Majlis ... hisoblanadi. Oliy Majlis ... iborat. Davlat hokimiyati ... bo‘linadi. Prezident va deputatlar ... saylanadi. Deputatlar ... ish yuritadi.



Bilib oling!

So‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlar egalik, kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar yordamida bog‘lanib kelishi, shuningdek, hech qanday gram-

matik vositalarsiz kelishi mumkin. Mustaqil soʻzlarning oʻzaro shaxs va son-da moslashishi **moslashuv** deyiladi. Tobe soʻzning hokim soʻz talab qilgan qoʻshimcha yoki koʻmakchini olib kelishi **boshqaruv** deyiladi.

Mustaqil soʻzlarning grammatik vositalarsiz, faqat maʼno orqali bogʻlanishi **bitishuv** deyiladi.

Moslashuv aloqasini bilib oling!

Shaxslar	Birlik	Koʻplik
1-shaxs	<i>mening vatanim</i>	<i>bizning vatanimiz</i>
2-shaxs	<i>sening vataning</i>	<i>sizning vataningiz</i>
3-shaxs	<i>uning vatani</i>	<i>ularning vatani (lari)</i>

Boshqaruv aloqasini bilib oling!

Tobe soʻz	Hokim soʻz	Tobe soʻz	Hokim soʻz
-ni: Vatanni	sevmoq	gʻayrat bilan	ishlamoq
-ga: koʻchaga (-ka, -qa): chiroqqa ertakka	chiqmoq qaramoq ishonmoq	bogʻ atrofiga xirmon ustiga doska yoniga	ekmoq uymoq chiqmoq
-da: uyda	oʻtirmoq	kitob haqida	gapirmoq
-dan: maktabdan boʻrondan	kelmoq kuchli	daraxt tepasidan koʻcha boshidan	chaqirmoq kelmoq

Bitishuv aloqasini bilib oling!

Tobe soʻz	Hokim soʻz
Ot: ovozi	kuchli
Sifat: sharaflı	ish
Son: qirqta, birinchi	davlat
Olmosh: bu, oʻsha, qancha	kitob
Sifatdosh: yurgan	poyezd
Ravish: tez	oʻqimoq
Ravishdosh: sharqirab	oqmoq



6-mashq. 1-qatorda berilgan soʻzlarni tobe soʻz sifatida ishtirok ettirib, soʻz birikmalari tuzing.

Xalqaro, suveren, teng, yuqori, ichki, tashqi, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, qonunchilik.

Respublika, munosabatlar, palatasi, ishlar, huquqli, siyosat, palata, aloqalar, makon.



7-mashq. Berilgan matndan moslashuv, boshqaruv va bitishuv munosabatidagi soʻz birikmalarini topib, 3 guruhga boʻlib yozing.

- Namuna:* 1. **Moslashuv aloqasi:** bizning Vatanimiz, ...
 2. **Boshqaruv aloqasi:** davlatni barpo qilmoq, ...
 3. **Bitishuv aloqasi:** mustaqil davlat, ...

Bizning Vatanimiz mustaqil davlat. Bu zaminda ulugʻ olimlar, sarkardalar yashab oʻtgan. Biz buyuk allomalarning avlodimiz va kelajakda rivojlangan, kuchli davlatni barpo qilamiz. Fan choʻqqilarini egallash sizlarning asosiy vazifalaringizdan biridir.



Uyga vazifa. Qoʻshimcha maʼlumotlardan foydalanib, Oʻzbekistonning yutuqlari haqida matn tuzing.

3-dars



5-topshiriq. Berilgan birikmalar yordamida savollarga javob bering.

1. Qanday insonlar xalq orasida obroʻga ega boʻladi?

- kamtar boʻlsa;
- bergan vaʼdasining ustidan chiqsa;
- qoʻpol va manman boʻlmasa.

2. Qanday oʻquvchilarni hurmat qiladilar va yaxshi koʻradilar?

- kattalarni hurmat qilsa;
- bilim olishga intilsa;
- oʻrtoqlariga yordam bersa.

Siz bular qatoriga yana nimalarni qoʻshgan boʻlar edingiz?



Alisher Navoiy

(1441–1501)

Alisher Navoiy (asl ismi Nizomiddin Mir Alisher) 1441-yil 9-fevralda Hirot-da temuriylar xonadonining yaqinlaridan biri bo'lgan G'iyosiddin Bahodir oilasida dunyoga kelgan. Alisher Navoiy temuriy-zoda, bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqargan, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. U 10–12 yoshlaridayoq ilk she'rlari bilan ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etadi.



Alisher Navoiy ikki tilda: turkiy (o'zbek tili) va forsiy tillarda g'azallar yozgan. Lekin turkiy tilda buyuk asar yaratish hayotdagi asosiy maqsadi bo'lgan. Ijodining chuqur mazmuni va badiiy qudrati bilan uni jahondagi buyuk shoirlar qatoriga qo'shish mumkin.

«Xamsa» Alisher Navoiyning shoh asari bo'lib, besh dostonidan iborat. Shoir forsiy tildagi g'azallariga «Foniy» taxallusini qo'ygan va ularni jamlab «Devoni Foniy» tuzgan.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida davlat ishlarini ham olib borgan. Muhrdor, so'ngra bosh vazir bo'lganida mamlakatni obodonlashtirish, xalq hayotini farovon etish, oddiy mehnatkashlardan olinadigan soliqlarni kamaytirishga alohida ahamiyat berdi, ariqlar qazdirdi, masjid va madrasalar, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirdi. Xalqning turmushini yaxshilash, beklar va amaldorlarning o'zboshimchaligiga chek qo'yishga harakat qildi.

Alisher Navoiy xalq orasida katta obro' qozondi. U davlat ishlari bilan juda band bo'lgan vaqtlarida ham hech qachon ijod qilishdan

to‘xtamagan. Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarlari orqali o‘zbek tili-ning go‘zalligini, boyligini va qudratini olamga namoyish etdi.

O‘zbek xalqining buyuk mutafakkiri, o‘zbek adabiyotini jahonga tanitgan va avlodlarga boy adabiy meros qoldirgan shoir 1501-yil 3-yanvarda Hirotida vafot etgan.



Lug‘at

favqulodda – чрезвычайный

iste’dodli – талантливый

namoyon bo‘lmoq – прояв-
ляться

jalb etmoq – привлекать

bayt – двустишие

taxallus – псевдоним

badiiy qudrat – художественная сила

soliq – налог

jamlangan – собранный

adabiy meros – литературное
наследие

◆ **6-topshiriq.** Alisher Navoiyning ruboiy va hikmatli so‘zlarini yod oling va mazmunini so‘zlab bering.

G‘urbatda g‘arib shodumon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

Boshni fido qilg‘il ato boshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.
Tun-kuningga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Onalarning ayog‘i ostidatur
Ravzayi jannat-u jinon bog‘i.
Ravza bog‘i visolin istar esang,
Bo‘l onaning ayog‘i tufrog‘i.

Ista ato yo'lida fido jon qilmoq,
Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq,
Zuhri abad istasang farovon qilmoq,
Bil oni ato-anog'a ehson qilmoq.



Lug'at

hikmatli so'zlar – изречения,
афоризмы
g'urbat – чужбина
oshiyon – семейный очаг
shodumon – весёлый

g'arib – одинокий; скиталец
ravza – райские сады
qulluq – поклон, благодарить
farovon – изобильный, благополучный
ehson – доброе дело; милость



Bilib oling!

Ruboiy to'rtlik, ya'ni to'rt misra (qator)dan iborat bo'ladigan, ta'limiy-tarbiyaviy mavzuda yoziladigan she'riy asardir.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O'zbekistonning tashqi aloqalari va xalqaro hamjamiyatdagi o'rni haqida so'zlab bering.
2. Respublikamizning davlat tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
3. Nima uchun Alisher Navoiyni buyuk mutafakkir deb ataymiz?
4. Daftaringizga BBB jadvalini chizing. Mavzu bo'yicha nimalarni bilib olganingiz va nimalarni bilmoqchiligingizni yozing.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman
...	...	...



Uyga vazifa. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.

2-mavzu. O‘zbekistonda ta’lim tizimi (Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari)

1-dars

 **1-mashq.** Matnni o‘qing, berilgan savollar va rasmlar asosida o‘zaro suhbatlashing.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi va shu asosda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Ushbu qonunga muvofiq respublikamizda quyidagi ta’lim bosqichlaridan iborat uzluksiz ta’lim tizimi yaratildi:

Bolalar bog‘chalari, maktabga tayyorlov guruhlarini qamrab olgan maktabgacha ta’lim.



Boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflarni qamrab olgan majburiy umumiy ta’lim.



Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini qamrab olgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi.



Bakalavriat va magistraturani qamrab olgan oliy ta'lim.

Doktorantura, mustaqil tadqiqotchilar va malaka oshirish tizimini qamrab olgan oliy ta'limdan keyingi ta'lim.



Lugʻat

ishlab chiqmoq – разработать

tadqiqotchi – исследователь

muvofig – соответствующий, согласно

majburiy – обязательный

maktabgacha ta'lim – дошкольное образование

maxsus – специальный

tahsil olmoq – учиться

uzluksiz ta'lim – непрерывное образование

malaka oshirish – повышение квалификации



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilindi?
2. Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimi qanday bosqichlardan iborat?
3. Aka-ukalaringiz, opa-singillaringiz ta'limning qaysi bosqichida tahsil olmoqdalar?
4. Siz maktabni bitirib, qaysi soha bo'yicha mutaxassis bo'lmoqchisiz? Buning uchun qaysi fanlarni chuqur o'rganyapsiz?



Bilib oling!

Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq-istak gaplarga bo'linadi.

Darak gaplar xabar mazmunini bildiradi va oxiriga nuqta qo'yiladi.

Masalan: Bugun maktabimizda til bayrami bo'ladi.

So'roq gaplar so'zlovchiga noma'lum narsa, voqea-hodisa haqida so'roqni bildiradi. Bunday gaplar so'roq olmoshlari, **mi, -chi, -a(-ya)** yuklamalari bilan kelib, so'roq belgisi (?) bilan yoziladi. So'roq gaplar, odatda, javob talab qiladi. *Masalan:* Bugun yomg'ir yog'adimi? – Yo'q, bugun yomg'ir yog'maydi.



2-mashq. Gaplarni ifoda maqsadiga mos ohangda o'qing va tegishli tinish belgilarni qo'yib yozing.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida katta islohotlar amalga oshirildi ro'y bergan barcha o'zgarishlar farzandlarimizning bilimdon va malakali kasb egasi bo'lib yetishishlariga qaratilgan siz ta'limning qaysi bosqichida tahsil olyapsiz kelajakda kim bo'lmoqchisiz buning uchun yana qayerda o'qishni rejalashtiryapsiz xalqimiz bizdan juda ko'p narsalarni kutyapti axir biz Vatanimizning kelajagini yaratuvchilarimiz-ku



1-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing. Gaplarni mos ohangda talaffuz qiling va turini ayting.

- Ajoyib joylar ekan-a? – dedi Rustam Quadratga qarab.
- Bizning yaylov bundan ham yaxshi. Hozir ko‘rsataman. – Quadrat cho-
ponining ichidan rasm daftarini olib Rustamga uzatdi.
- Mana, ko‘rgin-chi!
- Ehe! – dedi Rustam daftarning birinchi betini ochib. – Rassommisan?
- To‘garakka qatnashaman.
- Voy-vuy! – dedi Rustam ko‘zlarini katta ochib, – mana bu joylar juda
chiroyli ekan-a? Nima bilan chizgansan?
- Bo‘yoq bilan.

Nosir Fozilov

❖ **2-topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing. So‘roq gaplarning aytilishi va ifo-
dalanishini tushuntiring.



O‘zbekiston

Bog‘laringmi chiroying, yurtim,
Chamaningmi, ey go‘zal diyor?
Unday desam, ko‘p yurtlar ko‘rdim:
Har o‘lkada bor bog‘-u gulzor.
Yo quyoshning yorug‘ manzili
Osmoningmi ochgan husningni?
Yo tog‘laring chiroy, azmimi
Mag‘rur qilib bezagan seni?

Shaftolizor, olmazorlarning
Gul faslimi, yo xirmonimi?
Yoki tengsiz, so‘lim chiroying
Ishkomlarning xiyobonimi?
Go‘zalliging, yurtim, kamoling
Daryolaring, irmoqlaringmi?
Yoki porloq, yorug‘ jamoling
Yulduzlaring, chiroqlaringmi?

Mamarasul Boboyev



Lugʻat

azim – здесь: грандиозный, громадный

magʻrur – гордый

ishkom – сводчатая галерея, образуемая из дугообразных деревян-

ных подпорок и виноградных лоз

xirmon – хирман, куча

soʻlim – прекрасный

irmoq – приток, ручей, поток



Uyga vazifa. Sheʼrni ifodali oʻqing va yod oling.

2-dars



3-topshiriq. Rasmlardan foydalanib, berilgan sarlavhalar asosida oʻzaro suhbatlashing.

Kitoblar – bilimlar kaliti, ilm – porloq kelajak poydevori, talaba boʻlmoqchiman, olimlarga havas qilaman.



Bilib oling!

Nutqimizda javob talab qilmaydigan soʻroq gaplar ham uchraydi. Bunday gaplar **ritorik soʻroq gaplar** deb atalib, ularning oxiriga, odatda, soʻroq va undov belgisi (!?) qoʻyiladi.

Masalan: Oʻzi tugʻilgan yurtni sevmalik mumkinmi?

 **3-mashq.** Gaplarni ifoda maqsadiga ko‘ra turlarga ajrating va mos tinish belgilarini qo‘yib yozing.

Beg‘ubor bolaligimizni ko‘p eslaymiz bolaligim quvonchlarga to‘la bo‘lgan eh qanday betashvish damlar edi sen qaysi maktabda o‘qiysan maktabingiz qaysi yo‘nalishda qanday to‘garaklar bor men darsdan keyin ustaxonada mashinalarni ta‘mirlashni o‘rganyapman bu yil 11-sinfda o‘qiyapmiz sinfdoshlarimning ko‘pchiligi qaysi sohaga o‘qishini aniqlab bo‘lgan sen kelajakda kim bo‘lmoqchisan kim bo‘lsam ekan-a



 **4-mashq.** Berilgan sodda gaplarni zarur vositalarni qo‘llab, so‘roq gaplarga aylantirib yozing.

1. Maksim o‘zbek tilida yozilgan kitoblarni ko‘p o‘qiydi. 2. Uning so‘z boyligi ko‘p va o‘zbek tilida erkin so‘zlashadi. 3. Akam ham, men ham a‘lo va yaxshi baholarga o‘qiyapmiz. 4. Ota-onamiz bizdan xursand. 5. Mening bo‘sh vaqtim juda kam. 6. Darsdan keyin to‘garaklarga boraman. 7. Singlim onam kabi shifokor bo‘lmoqchi. 8. Biologiya, kimyo fanlarini chuqur o‘zlashtiryapti.

❖ **4-topshiriq.** 4 guruhga bo‘linib, PMQ (plyus, manfiy, qiziqarli) texnologiyasi asosida 4 ta ta‘lim bosqichining oson (+), qiyin (–) va qiziqarli jihatlarni aytib bering.

Namuna: Maktabgacha ta‘limning ijobiy tomonlari: ... , kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashning qiyin jihatlari: ... , qiziqarli taraflari

 **Uyga vazifa.** Maktab ta‘limidan keyin qayerda o‘qimoqchiligingiz, nima uchun shu sohani tanlaganingiz haqida yozing va so‘zlab bering.

3-dars




Adabiy o'qish

❖ **5-topshiriq.** Matnni o'qing, mazmuni asosida o'zaro savol-javob o'tkazing.

O'zbek adabiy tilining asoschisi

Alisher Navoiy jahon adabiyotida salmoqli o'rin egallaydi. Uning juda ko'p ilmiy, tarixiy asarlaridan tashqari, g'azal va dostonlarining o'zi bir necha yuz ming misrani tashkil qiladi. Navoiy she'rlarini o'z ichiga olgan «Chor devon» 47 ming misradan iboratdir. Badiiy ijodning go'zal namunalarini to'plagan «Xamsa» asari 60 ming misraga yaqin she'rni o'z ichiga oladi. Navoiyning 6 mingga yaqin forscha g'azallari ham bor. Navoiygacha deyarli barcha shoirlar forsiy tilida ijod qilar edilar. Turkiy tilda yozish ayb sanalar va o'zbek tilida yozilgan asarlarni saroy ahli tan olmas edi. Navoiy shunday bir sharoitda «Muhokamat ul-lug'atayn» nomli mashhur asarini yozib, o'sha davrda «turkiy» deb atalgan qadimgi o'zbek tilining fors tilidan ham boy, rang-barang ekanini isbot qildi va o'z asarlarini turkiy tilda bitdi. Shuning uchun Alisher Navoiyni o'zbek adabiy tilining asoschisi deymiz. Bu haqda uning o'zi shunday deb yozgan edi:



*Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yaqqalam.*



Lug'at

salmoqli – весомый

namuna – образец

tan olmaslik – не признавать

saroy ahli – придворные

deyarli – почти

isbot qilmoq – доказывать



5-mashq. Matnni o‘qing, o‘zingiz bilgan qo‘shimcha ma’lumotlar asosida dostonlar mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.

«Xamsa» Alisher Navoiyning shoh asaridir. U 51230 misradan tashkil topgan besh dostonidan iborat. «Xamsa» – besh doston yozish o‘sha davrdagi ijodkorlar uchun bir an’ana edi.

Navoiy «Xamsa»sining birinchi dostoni «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati») bo‘lib, u axloqiy ta’limiy maqolatlardan iborat. Ularda eng yaxshi insoniy fazilatlar haqida fikr yuritiladi va har biri haqida turli hikoyatlar keltiriladi.

«Xamsa»ning ikkinchi dostoni «Farhod va Shirin» bo‘lib, ushbu doston-da ilm va hunarni egallash, insonparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik taran-num etiladi. «Xamsa»ning uchinchi dostoni – «Layli va Majnun»da pok muhabbat, «Sab’ayi sayyor» («Yetti sayyora»)da muhabbat, sadoqat mavzulari yoritilgan. «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»)da odil shoh g‘oyasi ilgari suriladi.



6-topshiriq. Masalni o‘qing. Matndagi ko‘chirma gaplarni ifoda maqsadiga ko‘ra turlarga ajrating.

Sher bilan Durroj

Kunlardan bir kun Durroj «Men tuzoqqa tushdim!» – deb sherni alddi. Sher uning aldaganini ko‘rib: «Boshqa bunday ish qilma, yolg‘onchidan barcha nafratlanadi», – deb nasihat qildi. Biroq Durroj quloq solmas, yolg‘onchilikni, aldashni qo‘ymas edi. Bir kuni u chindan tuzoqqa ilindi va: «Meni tutib oldilar!», – deb qattiq qichqirdi. Sher: «Bu gal ham Durroj meni aldayapti», – deb uni qutqarishga bormadi.



Lug‘at


hayrat – удивление
durroj (*qirg‘ovul*) – фазан
tuzoq – ловушка

nafratlanmoq – презирать
nasihat – наставление
qutqarish – спасать

◆ **7-topshiriq.** Matnni o'qing va mazmuniga o'z munosabatingizni bildiring.

Ikki do'st haqida hikoyat
(«Hayrat ul-abror» dostoni, 7-maqolat)

Fors mamlakatida ikki do'st Chin sari yurish qilishni istab qoldilar. Biri azaldan qanoatli kishi bo'lib, ikkinchisi uning aksi edi. Yo'lda borar ekanlar, bir katta toshni ko'rdilar. Uning yarmi yerda-yu, yarmi yuqorida edi. Unga «Kim mehnat qilsa, toshni aylantirib o'z joyiga qo'ysa, yozilgan bir yozuvni ko'radi va bu vodiydagi bir ostona ostida katta boylik yashiringanidan xabardor bo'lib, unga ega bo'ladi. Kimki mehnat qilib, alam tortishni istamasa, uning uchun sabr-u qanoat baridan yaxshiroq», deb yozib qo'yilgan ekan.



Qanoatsiz odam bu xabarni o'qigach, boylikka ega bo'lish uchun tosh ostini qazishga tushdi, qanoatli esa beparvo bo'lib o'tirardi. U o'sha atrofni tomosha qilish bilan band bo'ldi. «Mening qanoat boyligidek boyligim bor, bu mehnatdan qanday naf tegardi? Tangri ehson beraman desa, tosh yorilib ham boylik chiqaveradi», deb xayol surdi-da, erta turib shahar tomon yo'naldi, shaharga kiradigan bir necha darvoza bo'lib, u shaharga birinchi bo'lib kirdi. Hamma u birinchi bo'lib kirgan darvoza tomon intilardi.

Bu elda shunday bir odat bor ekanki, mamlakat podshosi narigi dunyoga rixlat qilgan bo'lsa, a'yonlar bu gapni shahar xalqidan yashirin tutishar ekan, kimki shaharga hammadan oldin kirsar, uni podshoh saylab, boshiga toj qo'ydirishib, barmog'iga oltin uzuk taqishar ekan. Bu safar ham xuddi shunday hol yuz berib, haligi musofirni shoh etib sayladilar.

Uning tosh ostini qaziyotgan do'sti esa og'ir mehnatni bajarib bo'lgach, toshni yoniga ag'darib qarasa, toshdagi xatda «Xomtama bu dunyoda alam

chekadi», deb yozib qo'yilgan ekan. Xullas, qanoat qilgani podshoh bo'ldi, bunisini esa tama ranji xokisor qildi.



Lug'at

azaldan – с давних пор

aksi – противоположный

qanoatli – терпеливый

sabr – терпение

rixlat qilmoq – умереть

a'yonlar – придворные

yashirin tutmoq – держать в секрете

saylamoq – выбирать

musofir – находящийся на чужбине

toj – корона

bu safar – на сей раз

qaziyotgan – копающий

ag'darmoq – переворачивать

tama (qilmoq) – корысть

alam chekmoq – страдать

xullas – в конце концов

xokisor – простой, скромный



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O'zbekiston ta'lim tizimi haqida so'zlab bering.
2. Respublikamizda majburiy ta'lim bosqichlari qaysilar?
3. T texnologiyasini qo'llab, ta'lim turlari o'rtasidagi farqli jihatlarni qiyosiy tushuntiring.
4. Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Ular qanday talaffuz qilinadi va qanday yoziladi?




Uyga vazifa. Ushbu jadvalni Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldiring:

Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan joylar	Alisher Navoiy nomi bilan ataladigan muassasalar	Alisher Navoiyga atab o'rnatilgan haykallar
...	...	...
...	...	...

3-mavzu. Ajdodlar merosi (Buyruq-istak va his-hayajon gaplar)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmni diqqat bilan kuzating va berilgan savollar yordamida suhbatlashing.

1. Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?
2. Allomalarimiz qaysi sohalarda faoliyat yuritishgan?
3. Ular yaratgan ixtirolar va asarlar qanday ahamiyatga ega?

📝 **1-mashq.** Matnni diqqat bilan eshiting. Tayanch soʻzlarni yozib boring va matnni qayta hikoya qiling.

Shohjahon asri

Shohjahon zamonasi yuqori koʻtarinkilik davri boʻlib, Hindiston tarixida bunday boyliklarni koʻrmagan edi. Ushbu boyliklar Shohjahonning ota-bobolari va ajdodlari tomonidan meʼros boʻlib, uning ulkanligi urushlarda qozonilgan gʻalabalar bilan emas, balki yaratilgan buyuk meʼmoriy obidalar bilan belgilanadi. Ular bugungi kungacha butun insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Bu oʻlmas asarlar Dehliidagi «Laʼl qalʼa», uning roʻparasidagi «Masjidi jome», Agradagi «Tojmahal» maqbaralaridir. «Laʼl qalʼa» Jamna daryosi boʻyida qurilgan boʻlib, uning koʻrinishi Agradagiga oʻxshaydi.



Lugʻat

zamon – эпоха, время

koʻtarinkilik – возвышенность

ajdodlar – предки

ulkan – огромный, громадный

insoniyat – человечество

hayratga solmoq – удивить

roʻparasida – напротив

oʻlmas – бессмертный

koʻrinish – вид



Bilib oling!

Buyruq-xitobni bildirib, buyurish, istak, xohish ohangi bilan aytiladigan gaplar **buyruq gaplar** deb ataladi. Bunday gaplar oxiriga nuqta (.) yoki undov belgisi (!) qoʻyiladi.

Masalan: Ruxsat, ketishingiz mumkin. Tez yetib keling.

Xohish, istak maʼnosini bildiradigan gaplar **istak gaplar** deb ataladi. Bunday gaplarning kesimi *-sa* shart mayli va shaxs-son qoʻshimchalarini olib keladi.

Masalan: Qani endi, institutga oʻqishga kirsam va shifokor boʻlsam.

His-hayajonni ifodalab, kuchli ohang bilan aytiladigan gaplar **his-hayajon** yoki **undov gaplar** deyiladi. Ular koʻpincha undov soʻzlar bilan qoʻllanadi va oxiriga undov belgisi (!) qoʻyiladi.

Masalan: Eh, bu goʻzal manzaraga bir qarang!



2-mashq. Har bir gapni namunadagidek yozing va ohangini oʻzgartirib aytib, mazmunida yuz bergan oʻzgarishni tushuntiring.

Namuna: Mehmonlar kelishdi. Mehmonlar kelishdi? Mehmonlar kelishdi!

Dam olish kuni sayohatga boramiz. Ertaga mahallada toʻy boʻladi. Qor yogʻyapti. Yangi uyga koʻchaymiz. Bizga sport maydoni qurib berishdi.



3-mashq. Matnni gaplarga ajrating va zarur tinish belgilarini qoʻying. Har bir gapning ifoda maqsadiga koʻra turini ayting.

Qadimiy binolarimizning mahobati va goʻzalligini koʻring jahonda tengi yoʻq bu kabi obidalar bizning ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgani

biz uchun ulkan sharaf emasmi ajdodlari bunday ulkan va bebaho meros qoldirgan millatlar xalqlar unchalik ko‘p emas bizga juda ko‘plar havas bilan qarashini bilasizmi ha biz shunday boy merosning qonuniy vorislarimiz bu bilan faxrlanamiz albatta biroq faxrlanishning o‘zi yetarlimikan shunday buyuk ajdodlarning munosib davomchilari bo‘lish uchun nimalar qilish kerak sizning kelajak rejalarangiz qanday qaysi tengdoshlaringizga o‘xshashni xohlaysiz



4-mashq. Birinchi ustundagi maqollarning davomini ikkinchi ustundan topib yozing. Ularda nimalar targ‘ib qilingan?

Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim,	kulfat seni chetlab o‘tadi.
Boshqalarga yordam bersang,	olam seniki.
Yaxshi so‘z eshitmoqchi bo‘lsang,	hech kimga dushmanlik qilma.
Qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur	Yomonning yomonligi tegar tor yerda.
Olim bo‘lsang,	yomon gap aytma.
Agar do‘stim ko‘p bo‘lsin desang,	orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.
Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda,	oz-ozdan o‘rganib, dono bo‘lur.



Uyga vazifa. Berilgan maqol mazmunini sharhlab, matn tuzing.

Yigit kishiga qirq hunar oz.

2-dars



5-mashq. Matnni diqqat bilan tinglang. Tayanch so‘zlarni yozib boring va shu asosda matnni so‘zlab bering.

Tojmahal

Boburiylar saltanatining mashhur vakili Shohjahon eng omadli shohlardan biri bo‘lgan. U suyukli xotini Arjumand bonu – Mumtoz Mahalni dafn qilish uchun alohida maqbara qurdirgan. Tojmahal beqiyos darajada go‘zal



me'moriy yodgorlik. U Shohjahon o'zidan keyin qoldirgan tarixiy yodgorliklarning, umuman, Hindistondagi obidalarining eng hashamatlisidir. Shohjahon ushbu qasrni dunyoning mo'jizasi bo'lib qolishini istagan va niyatiga yetgan.

Ushbu bino betakrorligi bilan kishini hayratga soladi. Tojmahal Shohjahonning nomini ham tarixga muhrlab qoldirdi.



Lugʻat

saltanat – царство
vakil – представитель
omadli – удачливый
dafn qilish – хоронить

maqbara – мавзолей, усыпальница
beqiyos darajada – несравненный
mo'jiza – чудо
niyatiga yetmoq – добиться цели



Bilib oling!

Ariza – muayyan tashkilotga yoki biror shaxs nomiga iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjatdir. Eng keng tarqalgan va ko'p ishlatiladigan ish qog'ozi bo'lib, barcha idoralarga yozilishi mumkin.

◆ **2-topshiriq.** Ariza namunasini o'qing. Arizada qo'llanadigan nutqiy qoliplar va zaruriy qismlarning joylashishiga e'tibor bering.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori _____ ga
Toshkent shahar Yunusobod tumani
19-daha, 21-uy, 5-xonadonda yashovchi
fuqaro _____ dan

ARIZA

Menga O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga kirish uchun tanlov imtihonlarida qatnashishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Arizaga quyidagi hujjatlarimni ilova qilaman:

1. 11-sinfni bitirganligim to'g'risida guvohnoma.
2. Pasport nusxasi.
3. Sog'ligim haqida ma'lumotnoma.

sana

(imzo)

📄 **6-mashq.** Nuqtalar o'rnini zarur so'zlar bilan to'ldirgan holda o'qishga kirish, ta'tilga chiqishga ruxsat so'rab ariza yozing. Tinish belgilarining qo'yilishi, joy nomlari hamda bosh harflarning yozilishiga e'tibor bering.

(kimga?)

(kimdan?)

ARIZA

1. Men sizdan ... (nimani?) ... so'rayman.
2. Menga (nimaga?) ruxsat berishingizni so'rayman.

sana

(imzo)



Uyga vazifa. O'qishga kirish haqida ariza namunasini yozing.

3-dars



7-mashq. Matnni o'qing, savol va topshiriqlar asosida o'zaro suhbatlashing.

Boburning shaxsiy fazilatlari

Bobur ismi «sher» ma'nosini anglatib, uning o'zi ham ismi jismiga monand kishi bo'lgan, kelishgan qaddi-qomati va benihoya kuchliligidan tashqari dovyuraklikda, epchillikda, chaqqonlikda oldiga tushadigani topilmagan, uncha-muncha qiyinchiliklarni pisand etmagan. U ko'pincha ikki qo'lga og'ir yukni ko'tarib, Agra qal'asi devorlari ustida yugurib mashq qilgan. U yana ajoyib suzuvchi va g'avvos ham bo'lgan, Ganga daryosidan tashqari jamiki yo'lida uchragan hind daryolarini suzib o'tgan. Uning shirali til, ohangdor vazn bilan bitilgan tarjimayi holi – «Boburnoma»ni o'qir ekansiz, muallif badiiy didining naqadar go'zalligi, aql-u zakovati teranligi, bilimi naqadar cheksizligining guvohi bo'lasiz. Bobur tabiatni va bazmlarni jonidan yaxshi ko'rgan. Ayniqsa, tog'larni, daryolarni, bog'larni, yaylovlarni ko'rganda, o'z Vataniga bo'lgan muhabbat va sog'inch ilhomi jo'sh urgan.



Lug'at

jismi – тело

monand – похожий

dovyurak – храбрый

g'avvos – водолаз

epchillik – ловкость

muallif – автор

bazm – пиршество

yaylov – луг



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Siz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yana nimalarni bilasiz?
2. Bobur va boburiylar sulolasi Hindiston va Afg'onistonda barpo etgan bog'lar, madrasa va saroylar haqida bilganlaringizni so'zlab bering.
3. Bir xil so'roqqa javob bo'ladigan so'zlarni topib, ularning gapdagi vazifasini aniqlang.



Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi Umarshayx Amir Temurning nabirasi bo'lib, Farg'ona viloyatining hukmdori edi. Yosh Zahiriddin Bobur saroy muhitida, murabbiylar va mudarrislar qo'lida tarbiyalandi.

Umarshayx vafot etgach, 12 yoshli Zahiriddin Bobur taxtga o'tiradi. Bu davrda mamlakatda ichki urushlar avj olgan edi. Bobur butun kuchini Movarounnahrni markazlashgan davlat ostida birlashtirishga qaratdi. Biroq Shayboniyxonning temuriylardan hokimiyatni tortib olish uchun boshlagan shiddatli hujumi bu maqsadni amalga oshirishga yo'l qo'ymadi.

Bobur Shayboniylar tomonidan qat'iy zarbaga uchradi va Samarqand hamda Farg'onadan butunlay voz kechishga majbur bo'lib, 1514-yilda lashkarlari bilan Afg'onistonga ketdi. U yerda kuch to'plab Hindistonni qo'lga kiritdi va u yerda tarixda «Buyuk boburiylar imperiyasi» deb nom chiqargan davlatga asos soldi.

Bobur katta davlat arbobi va sarkarda bo'lishi bilan birga, iqtidorli olim va shoir ham edi. Boburning «Boburnoma» nomli asari sharq tarixi, geografiyasi bo'yicha g'oyat muhim ma'lumotlarga ega nodir ilmiy-adabiy yodgorlikdir. Bu asar dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yil 26-dekabrda Hindistonning Agra shahrida vafot etgan. Keyinchalik esa Zahiriddin Boburning o'z vasiyatiga ko'ra, uni Qobulga olib kelib dafn etganlar.

Bobur ruboiylari

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yub Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

* * *

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav' bitay firoq-u g'urbat sharhin –
Kim, ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

* * *

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.



Lug'at

mudarris – преподаватель медресе
avj olgan – самый разгар
markazlashgan – централи-
зованный

birlashtirmoq – объединять
shiddatli – ожесточённый
butunlay – полностью



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Buyuk ajdodlarimizdan qolgan mashhur san'at va ijod namunalari haqida gapirib bering.
2. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
3. Temuriylar va Boburiylar sulolalari vakillaridan kimlarni bilasiz?

Temuriylar	
Boburiylar	



Uyga vazifa. Bobur ruboiylarini yod oling va mazmunini tushuntiring.

4-mavzu. Xalqimizning asl farzandlari (Gap va matn. Matn qismlarini bog'lovchi vositalar)

1-dars



 **1-mashq.** Berilgan matnni o'qing. Matndagi asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarni ajrating.

Xalqimizning yetuk farzandi

O'zbek xalqidan juda ko'p allomalar, jamoat arboblari, yozuvchi va shoirlar yetishib chiqqan. Ana shu komil insonlar orasida XX asrda yashab ijod etgan yetuk bir shaxs alohida ajralib turadi. O'zining yorqin fazilatlarini, iste'dodi, dunyoqarashi va odil rahbarligi bilan xalqning qalbidan joy olgan inson Sharof Rashidov edi. Jizzax tuprog'ida tug'ilib voyaga yetgan Sharof Rashidov nafaqat taniqli yozuvchi, balki 34 yil davomida respublikaga hormay-tolmay rahbarlik qilgan taniqli davlat arbobi ham edi. U boshchilik qilgan davrda respublikamizda olamshumul bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.



O'tgan asrning boshida Toshkentda atigi 30 ming aholi yashagan. Asr oxirlariga kelib, Toshkent 2 million aholi yashaydigan, AQSH poytaxti Vashingtondan to'rt baravar katta shaharga aylandi. 1966-yilgi zilziladan so'ng chet el matbuoti Toshkentni qayta tiklash uchun to'rt yuz yil kerak deb yozgan ekan. Unday bo'lmadi. To'rt yil ichida Toshkent ikki karra katta qilib qaytadan bunyod etildi. Chilonzor, Yunusobod, Qoraqamish, Talabalar shaharchasi kabi tuman va dahalar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyoda yagona Toshkent metropoliteni ishga tushirildi. Markaziy Osiyoda eng baland Toshkent teleminorasi qurildi, muzeylar ochildi, osmono'par binolar qad ko'tardi.



Markaziy maydondagi ulkan favvoralar, istirohat bog'lari, stadionlar Toshkentning ramzi bo'lib qoldi. Bu ulkan ishlarning boshida Sharof Rashidov bosh-qosh bo'lgan.



Lug‘at

bunyodkorlik – созидательная деятельность

osmono‘par binolar – высотные здания

hormay-tolmay – неустанно

olamshumul – всемирный

qad ko‘tarmoq – выситься

istirohat bog‘i – парк



1-topshiriq. Berilgan savollarga javob bergan holda, o‘zaro suhbatlashing.

1. XX asrdagi Toshkent bilan XXI asrdagi Toshkent o‘rtasidagi farqlarni aytib bering.
2. Toshkentdagi bunyodkorlik ishlari haqida so‘zlab bering.
3. Respublika miqyosida qanday o‘zgarishlar yuz bermoqda?
4. O‘zingiz yashaydigan viloyat, tuman, shahardagi o‘zgarishlar qaysi yo‘nalishda ketyapti?



Bilib oling!

Insonlar gap vositasida o‘zaro fikr almashadilar. Nutq jarayonida gaplar, odatda, alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda bayon etiladi. Bir-biri bilan mantiqan uzviy bog‘langan gaplar **matn** deb ataladi. Misollarni qiyoslang:

Alohida gaplar

1. Kitob – insonning do‘sti. 2. Maktabimiz kutubxonasi birinchi qavatda joylashgan.

Matn

Kitob barcha bilimlarning kaliti. Ko‘p kitob o‘qigan odam bilimli bo‘ladi. Kitob insonni ko‘klarga ko‘taradi. Bilimni yoshlikda egallash kerak. Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabi.



2-mashq. Berilgan tayanch so‘z va so‘z birikmalaridan bog‘lanishli matn hosil qiling.

O‘zbekiston Respublikasi, mustaqillik, respublikamiz poytaxti, shahar va qishloqlar, yuz bergan o‘zgarishlar, bunyodkorlik ishlari, ta‘lim sohasidagi is-

lohotlar, davlatimiz rahbari, kelajakka intilish, amalga oshirmoq, yurtimiz ravnaqi, xizmat qilmoq, bilim olmoq, kasb egallamoq.



3-mashq. Birinchi qismda berilgan gaplarni va ikkinchi qismdagi bog‘lanishli matnni o‘qing va farqli tomonlarini o‘zaro qiyoslang.

1. Non mahsulotlari alohida do‘konlarda sotiladi. Non rizq-ro‘zimiz hisoblanadi. Bug‘doy donidan avval un tayyorlanadi, so‘ngra undan non pishiriladi. Issiq nonlar dasturxonimiz ko‘rkidir. Nonni uvol qilmang.

2. O‘n olti ming yil ilgari yer yuzida non paydo bo‘lgan. Avval kishilar donni xom holida iste‘mol qilganlar. Keyin uni ikki tosh orasida ezish va suv bilan aralashtirishni o‘rganganlar. Olov paydo bo‘lishi bilan esa don bo‘tqasidan non yopadigan bo‘lganlar. Oradan ko‘p ming yillar o‘tib qadimgi Misrda birinchi marta oshirilgan xamirdan foydalanish rasm bo‘lgan. Non yopish san‘ati keyinroq misrliklardan yunonlar va rimliklarga o‘tgan.



Lug‘at

non mahsulotlari – хлебные изделия

rizq-ro‘z – пища, хлеб насущный

paydo bo‘lmoq – появляться

xom – сырой

iste‘mol qilmoq – употреблять

iste‘mol qilmoq – употреблять

aralashtirmoq – перемешивать

oshirilgan xamir – дрожжевое тесто

foydalanmoq – пользоваться

rasm bo‘lgan – вошло в обычай



4-mashq. Berilgan gaplarni izchillikda bog‘lab, bog‘lanishli matnga aylantiring.

Mirzo Ulug‘bek

1. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek 1394-yilning 22-martida Sultoniya shahrida tug‘ilgan. 2. Ko‘p mamlakat va shaharlarni ko‘rgan. Temur vafotidan keyin hokimiyat Ulug‘bekning otasi Shohrux qo‘liga o‘tdi. Shohrux Xurosonda hukmronlik qiladi. 3. Ulug‘bek «Bibixonim» masjidi, «Go‘ri

Amir» maqbarasi, «Shohizinda» majmuasining qurilishini tamamladi. 4. Movarounnahrni o'g'li Ulug'bekka topshiradi. U vaqtda Mirzo Ulug'bek 15 yoshda edi. 5. Ulug'bek yoshlik yillarida bobosi Amir Temur bilan ko'p yurtlarga yurishlarda qatnashgan. 6. U ko'p yerlarda bog'lar yaratdi. 7. Ulug'bek keyinchalik Samarqandda rasadxona qurdirdi. 8. 1417–1420-yillarda ajoyib madrasa qurdirdi.

◆ **2-topshiriq.** She'rni o'qing. She'rda qo'shtirnoq bilan berilgan asarlar haqida nimalarni bilasiz? Shular haqida so'zlab bering.



Davr farzandi

Ona yurt mehridan har so'zim burchli,
Donish tabiatin ayladim talqin.
Angladim, xalq mehri «Bo'rondan kuchli»,
Kuyladim, xalq mehri «Qudratli to'liqin».

Zulm niqob kiysa, mehr-u oqibat,
Tugal talafotdan yolg'iz himoya.
Garchi yo'rig'ida tutdi saltanat,
«Kashmir qo'shig'i»da dardim hikoya.

Elimga qoldirdim xalqim mulkini,
Nima demasinlar tang muxoliflar.
Zamon o'qiyverar «Tarix hukmi»ni,
Hayot kitobidan o'chmas «G'oliblar»!

Sa'dulla Hakim



Lug'at

donish – мудрый

talqin (qilmoq) – проповедовать

niqob – маска

tang – затруднительный

muxolif – противник

yo'rig'ida tutmoq – управлять



Uyga vazifa. Sa'dulla Hakimning «Davri farzandi» she'rini yod oling.

2-dars



5-mashq. Matnni o'qing va qismlarga ajrating. Kirish va xulosa qismlarida foydalanilgan vositalarni ko'rsating.

Ikki buyuk adib

Sharof Rashidov va qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov deyarli bir davrda ijod qilgan adiblardan edi. Chingiz Aytmatov Sharof Rashidovdan 11 yosh kichik bo'lsa-da, ular doim hamfikir bo'lishgan, bir-birlarini juda qadrlashgan. Ikki buyuk adib yozuvchilar va jurnalistlarning sobiq Ittifoq miqyosida o'tkazilgan anjumanlarida tez-tez uchrashib, o'zaro suhbat qurishar edi. Bu ijodiy hamfikirlik amaliy faoliyatdagi hamkorlik bilan jipslashib ketgan edi. Chingiz Aytmatov yurtimizga «O'zbekiston bizning Sharqdagi yuzimiz va ko'zimiz» deya katta e'tibor bilan qaragan. Sharof

Rashidovning ukasi Asil Rashidov esa buyuk adibning ko‘plab asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.



Lug‘at

adib – писатель

qadrlamoq – ценить

anjuman – собрание, форум

hamfikir – единомышленник

jipslashmoq – сплотиться



Bilib oling!

Matn asosiy fikrni ifodalovchi va xulosalovchi qismlardan tashkil topadi. Matnning **xulosa qismida** qissadan hissa, demak, xullas, qisqasi, xulosa qilib aytganda kabi so‘zlar va birikmalar ko‘p qo‘llanadi.


Asosiy qismda fikrni dalillashga xizmat qiluvchi qo‘shimcha ma’lumotlar berilishi ham mumkin.



6-mashq. Matnni diqqat bilan o‘qing. Tarjimai holning yozilish shakliga e’tibor qiling.

Mahmud Koshg‘ariy

Mahmud ibn Muhammad Koshg‘ariy XI asrda yashab ijod etgan. Uning hayoti va ijodiyoti haqida yetarli ma’lumot saqlanib qolmagan. Uning tug‘ilgan va vafot etgan yili ham noma’lum. Otasi Husayn Koshg‘ardagi Beretan shahridan bo‘lgan. Koshg‘ariylar oilasi Bolasog‘unga (hozirgi Qirg‘izistonning To‘qmoq shahri) ko‘chib kelishganda, Mahmud yosh bola edi. Bo‘lajak olim, tilshunos va insoniyat tarixi madaniyatining ixlosmandi maktabda arab, fors tillarini chuqur o‘rganadi. U xalq yaratgan hikmatli so‘z, maqollarni yod olib yurar edi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlar tarixi, tili,



urf-odatlarini puxta o'rganish maqsadida butun Markaziy va Kichik Osiyoni kezib chiqdi. Uning birinchi asari «Javohir un-nahvi fil lug'otit turk» («Turkiy tillarning yetakchi durdonalari») hozirgacha topilmagan.

«Devonu lug'otit turk» asarida turkiy xalqlarning o'sha davrdagi lug'ati jamlangan. Ayni paytda ushbu asarda Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, urf-odatlari, rasm-rusumlarining izohi bilan 300 dan ortiq she'riy parchalar, maqollar va hikmatli so'zlardan namunalar ham berilgan. «Devonu lug'otit turk» XI asrning eng qimmatli yodgorliklaridan biridir.



Lug'at

noma'lum – неизвестный

ixlosmand – искренне привязанный

jamlangan – собран

rasm-rusum – обычай

izoh – примечание

tayanmoq – опираться

Yodda tuting!

Yozuvchilar, mashhur shaxslarning tarjimayi hollari, odatda, III shaxs nomidan yoziladi. Bunday tarjimayi hol matnlarining qisqa, kengaytirilgan va ijodiy tarzda yozilgan shakllari bo'ladi.

Tarjimayi hol rasmiy ish qog'ozi hisoblanadi. U I shaxsning o'z dastxati bilan ko'rsatilgan namunadagidek yoziladi. Har bir fuqaro o'z tarjimayi holini bilishi va davlat tilida to'g'ri yoza olishi kerak.



7-mashq. Tarjimayi holning tuzilishiga e'tibor bering va shu asosda o'z tarjimayi holingizni yozing.

Men – ... (kim?), ... (qachon?) ... (qayerda?) tug'ildim.

Otam – ... (kim?) ... (qayerda?) ... (kim bo'lib?) ishlaydi.

Onam – ... (kim?) ... (qayerda?) ... (kim bo'lib?) ishlaydi.

Men ... (qachon?) ... (qaysi?) maktabga o'qishga bordim.

Maktabni ... (qachon?) ... (qanday?) bitirdim.

... (qachon?) ... (qaysi?) oliy ta'lim o'quv muassasasiga o'qishga kirdim.

Hozir ... (qaysi?) fakultetda ... (nechanchi?) bosqichda o'qiyapman.



8-mashq. Qavs ichida berilgan soʻz va soʻz birikmalaridan mosini qoʻyib, ish qogʻozlari namunalari yozing.

1. Men, (Ikromov Akbar, 112-guruh oʻquvchisi A. Ikromov) 2001-yilda (ishchi, xizmatchi, ziyoli) oilasida (dunyoga keldim, tugʻildim, tavallud topdim). Oilamizda (otam, onam, bobom, buvim, akam, opam, ukam, singlim) bor. Otam va onam (qayerda? kim boʻlib?) ishlaydilar. Aka-ukalarim (qayerda? qaysi bosqichda? nechanchi sinfda?) oʻqishadi. Men (qaysi maktabda? nechanchi sinfda?) oʻqiyman.

2. Men (sizdan, sizga) sogʻligʻim yomonlashgani (tufayli, uchun, maqsadida) davolanish (uchun, maqsadida) 10 kun muddatga (oʻz hisobimdan, korxona hisobidan, oylik maoshim saqlangan holda, oylik maoshim saqlanmagan holda, navbatdagi, navbatdan tashqari) taʼtil berishingizni (iltimos qilaman, soʻrayman, talab qilaman).



Uyga vazifa. Oʻz tarjimai holingizni yozing.

3-dars



3-topshiriq. Matnni oʻqing. Matndagi qoʻshimcha maʼlumotlarni tushirib qoldirib, ixcham shaklga keltiring.

Otamning hikoyasi

1943-yilning qish fasli. Otamni raykomga chaqirishib, Farhod GES qurilishi boshlanganligi va unga yuzga yaqin ishchilarni olib borishni topshirishadi. Odamlarni toʻplagan otam Bekobod qurilishiga boradilar. Ular bilan birga urushda yarador boʻlib kelgan Sharof Rashidov ham bor edi. Ular bir yertoʻlada yotishgan. Oʻsha kunlarni otam shunday xotirlaydi:

Sharofjon chap qoʻlining yelkasiga yaqin joyidan yaralanganligi uchun etigini men kiygizib qoʻyardim. Qurilish 45 kun davom etdi. Ish qurolimiz ketmon, belkurak, zambil edi. Kun juda sovuq, ocharchilik, yegulik juda kam. 15–20 kunlardan keyin men yegulik olib kelgani Jizzaxga bordim. Shunda Sharofjon: «Zokir aka, bizning hovliga ham oʻting, uydagilardan

xabar oling, u-bu narsa berib yuborishsa, olib keling», – dedi. Jizzaxga ke-
lib, Rashid boboning uyiga bordim.

U paxtachilik zvenosining boshlig'i bo'lib ishlar edi. Yegulik hech nar-
sa yo'q, nihoyatda ocharchilik, zo'rg'a bir hovuch olma qoqi, bir hovuch
o'rik qoqi berishdi. So'ng men tog'alarimnikiga bordim.

Ular bozorda qassoblik qilishar, iqtisodiy jihatdan bizdan tuzuk edilar.
Ulardan arpa non, makkajo'xori, meva qoqi, biroz go'sht olib, to'lib-toshib
Bekobodga keldim. Olib kelganlarimdan bir qismini Sharofjonga tortiq
qilib, «Otang berib yubordi» dedim. U juda xursand bo'lib ketdi.

Bir kuni qurilishga O'zbekiston rahbari Usmon Yusupov keldi. U
juda sersavlat, yirik odam ekan. Yig'ilishda Farhod GESning ahamiya-
ti, unda qancha elektr toki ishlab chiqarilishi va jamiyatimiz iqtisodiga
foydasi to'g'risida gapirdi. Bu ulkan qurilishga hissa qo'shayotganlarga
minnatdorchilik bildirdi. Shundan so'ng birinchi bo'lib Sharofjon so'zga
chiqdi.

U bir she'rni shunday o'qidiki, hamma odam yig'ladi. Keyin bo'layot-
gan qurilish haqida gapirib, barchani go'yo sehrlab qo'ygandek bo'ldi.

Yig'ilish tugagach, Usmon Yusupov Sharof Rashidovni chaqirib so'radi:

– Isming nima?

– Ismim Sharofiddin.

Shunda Usmon Yusupov o'ylab turib:

– Isming bugundan boshlab Sharof. Sharofatli bo'l. Qurilish tugagach,
Toshkentga borib menga uchrash, – dedi.

Ana shu uchrashuvdan so'ng, Sharof Rashidov bosqichma-bosqich
yuqorilab bordi va O'zbekiston rahbari darajasigacha yetdi.

*M. Zokirov. «Ko'hna zaminning
buyuk farzandi» kitobidan*



Lug'at

yarador – раненый

xotirlamoq – вспоминать

paxtachilik – хлопководство

meva qoqi – сухофрукты

ocharchilik – голод

zo'rg'a – еле-еле

bir hovuch – пригоршня

qassoblik qilmoq – работать
мясником

❖ **4-topshiriq.** Berilgan ta’riflar asosida Sharof Rashidovni tavsiflovchi bog‘lanishli matn tuzing.

Yetuk inson, chuqur bilimli, o‘tkir zehnli, fidoyi rahbar, kamtar inson, davlat arbobi, chinakam tug‘ma iste’dodga ega ijodkor.

Adabiy o‘qish



Sharof Rashidov (1917–1983)

O‘zbek xalqining sevimli farzandi, atoqli davlat arbobi, taniqli adib Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabrda Jizzax shahrida tug‘ilgan. Jizzax pedagogika texnikumini bitirib, maktabda o‘qituvchilik qila boshlaydi. Samarqand viloyati gazetasida kotib, muharrir bo‘lib ishlaydi.

U Samarqand Davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga kiradi. 1941-yilda o‘qishni tugatgan Sharof Rashidov Ikkinchi jahon urushiga safarbar qilinadi, biroq 1942-yilda og‘ir yarador bo‘lib qaytadi. Samarqand viloyat gazetasida muharrir, Samarqand viloyati qo‘mitasining kotibi vazifalarida ishlaydi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Sobiq O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi va to umrining oxirigacha O‘zbekiston Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi lavozimlarida fidokorona faoliyat ko‘rsatdi.

Sharof Rashidovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2017-yilda tavallud kunining 100 yilligi butun mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlandi. U tug‘ilgan tuman, maktabga uning nomi berildi, unga atab katta haykal o‘rnatildi va go‘zal bog‘ bunyod etildi. Xalqimiz o‘zining asl farzandini hech qachon unutmaydi.



Lugʻat

safarbar qilish – мобилизация

muharrir – редактор

uyushma – объединение, союз

kotib – секретарь

bogʻ – сад, парк

fidokorona – самоотверженно

abadiylashtirmoq – увековечить

❖ **5-topshiriq.** Sheʼr asosida yozilgan qoʻshiqni tinglang.

Kashmir qoʻshigʻi (*dostondan parchalar*)

Dugonalar, bormisiz, omonmisiz,
Jam boʻlishib, ochilib gulzormisiz.

Hech qanday kuch bizni xazon etolmas,
Boʻron, Xorud murodiga yetolmas.
Yov chekinar, ozod boʻlur bogʻimiz,
Ozod boʻlur, obod boʻlur bogʻimiz.

Qora kuchlar gulistondan quvilsin,
Gullar bargi shabnam bilan yuvilsin!

Dushman oʻlsin, bogʻimiz obod boʻlsin,
Birlashaylik, doʻstlarimiz shod boʻlsin.

Gullarjon, bogʻimizdan
Ofatlarni quvaylik.
Nozik yaprogʻimizdan
Gʻuborlarni yuvaylik.

Boʻron – kuchli, Xorud ham
Boʻrondan qolishmaydi.
Ular bilan bu olam –
Qorongʻi, yorishmaydi.

Ammo birlashsak, doʻstlar,
Har qanday yov qochadi.
Axir, kichik yulduzlar
Birlashib nur sochadi.

Navro'zgul:

Bizlarni ojiz demang,
Dushmanlardan kuchlimiz.
Xorud nima? Qilsak jang,
Bo'rondan ham kuchlimiz.

Lola:

Qip-qizil rangim bilan
Zulmatni qochiraman.
Mardligim, jangim bilan
Senlarni shoshiraman.

Atirgul:

Agar xush bo'y taratsam,
O'limtiklar qochadi.
Qo'shig'imni yangratsam,
Do'stlar quchoq ochadi!

Oq atirgul:

Bizlarni ojiz dema,
Kurashda solishamiz.
Uyatchan bir qiz dema,
Yigitdek olishamiz!

**Lug'at**

shabnam – роса

ofat – напасть, беда

g'ubor – пыл, *перен.* тоска, грусть

qorong'i – темно

nur sochish – сияние

ojiz – слабый, бессильный

zulmat – мрак, тьма

o'limtik – падаль



6-topshiriq. She'rni rollarga bo'lib o'qing.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Kimlarni «O'zbekistonning asl farzandlari» deb atash mumkin?
2. Sharof Rashidov amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqida so'zlab bering.
3. Matnning gapdan farqi, matn qismlari haqida ma'lumot bering.
4. Tarjimayi hol kimning nomidan va qanday yoziladi?
5. Daftaringizga BBB jadvalini chizing. Mavzu bo'yicha nimalarni bilib olganingiz va nimalarni bilmoqchiligingizni yozing.

Bilar edim	Bilib oldim	Bilmoqchiman
...	...	...



Uyga vazifa. Sharof Rashidov haqida so'zlab bering, she'rlarini yod oling.

5-mavzu. Kasbim – faxrim (Matnning turlari. Dialogik matn)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasmlar asosida partadoshingiz bilan suhbatlashing.

💬 **2-topshiriq.** «Hunarmand bilan suhbat» mavzusida dialogni rollarga bo‘lib o‘qing va o‘z so‘zlaringiz bilan davom ettiring.

- Assalomu alaykum usta, bu eshiklar sotiladimi?
- Vaalaykum assalom, eshik olmoqchimisiz? Qayerga o‘rnatmoqchi ekanligingizni aytsangiz, shunga qarab tavsiya etaman.
- Rahmat, ikkita ichki xonalar uchun, bitta tashqariga ochiladigani kerak edi.
- Juda soz. Mana bu oynali eshiklar ichki xonalarga mo‘ljallangan, Naman-gan uslubida yasalgan. Bunisi naqshli, qo‘qonlik ustalarning mahsuloti. Qay-sisidan olasiz?

- Namangan uslubida tayyorlanganidan ikkita bering, menga shunisi ma'qul bo'ldi.
- Bunisi tashqi eshik, taxtasi mustahkam, tut yog'ochiniki.
- Usta, bu eshikning naqshlari juda nafis ekan-a?
- Ha, naqshdor eshik, bu buxorolik ustalarning ishi. Sizga yoqdimi?
- Albatta, shuni bera qoling.
-



Bilib oling!

Matn qo'llanishiga ko'ra **dialogik** va **monologik** matn turlariga bo'lina-di. Dialog so'zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni bo'lib, o'zaro savol-javoblardan iborat bo'ladi. Dialogik matn tarkibida so'roq ol-moshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llaniladi.



1-mashq. Berilgan dialoglarni o'qing. Suhbat jarayonida ishlatiladigan muomala odobiga oid so'zlar va his-hayajonni ifodalovchi vositalarni ko'rsa-ting.

1. – E, Zokirjon, sizmisiz? Xo'sh, qalay, topshirib chiqdingizmi?
 – Ha, qoniqarli deb topildi.
 – E, tabriklaymiz bo'lmasa.
 – Rahmat, rahmat.

2. – Hormanglar! – dedi rais ishchilarga qarab.
 – Bor bo'ling!
 – Qalay, charchamayapsizlarmi?
 – Hosil mo'l bo'lsa, hech kim charchamaydi.
 – Xirmonga baraka. Topganingiz halol mehnatingizga yarasha bo'lsin.
 – Rahmat.

3. – Assalomu alaykum, qarindosh.
 – Vaalaykum assalom, – dedi Umrzoq ota.
 – Bugun hasharchilar kelishmadimi?
 – Yo'q. O'zimiz eplaymiz, deb javob berib yubordik.
 – Ofarin. Kuchingizga kuch, g'ayratingizga g'ayrat qo'shilaversin.



◆ **3-topshiriq.** Matnni o‘qing va savollar tuzing. Matn mazmuni asosida partadoshingiz bilan dialog tuzing.

Men orzu qilgan kasb

Ustozimiz «Men orzu qilgan kasb» mavzusida insho yozib kelishni topshirdilar. Insho yozish uchun ancha yillardan buyon orzu qilib yurgan kasbim haqida yana qayta-qayta o‘yladim. Fikrlarim chigallashib ketdi. Qarorga kelolmay qiynaldim. Dunyoda bor kasblarni bir-bir ko‘z oldimdan o‘tkazdim. O‘qituvchi, tarbiyachi, shifokor, haydovchi, oshpaz...

Bularning oxiri ko‘rinmaydi. Shu kasb egalari o‘z kasblarida xizmat qilib kelmoqdalar va bir-birlariga yordam beradilar. O‘z kasblaridan noli-maydilar. Oilalarini kasblari orqali boqmoqdalar. Menimcha, har bir inson o‘zi orzu qilgan, yaxshi ko‘rgan kasbini egallasa, yurtimizning gullab-yashnashiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Yaqinlarim, tanishlarim tinim bilmay mehnat qiladilar. Xalqimiz bejizga «Hayotda ishning boshi sevimli kasb tanlash» deyishmagan. Bu gapni tushunish qiyin bo‘lmadi, chunki men katta hayot ostonasida turibman.

Oldimda xilma-xil kasblar, ularning birini tanlash juda qiyin. Go‘yo oldimda xazina, xazinada esa turli-tuman qimmatbaho toshlar. Bu toshlarning bittasini tanlash kerak. «Shoshib tanlangan kasbning umri qisqa», – deydi

xalqimiz. Men qat'iy qaror qildim. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o'qishga kirmoqchiman. O'zbekiston iqtisodiyotini eng ilg'or mamlakatlardan bilan tenglashtirishda bor bilimim va kuchimni ishlataman. Aql ko'pga yetkazar, hunar ko'kka yetkazar.



Lug'at

kasb – профессия

insho – сочинение

tanlamok – выбирать

qat'iy – категорический, решительный

go'yo – якобы, будто бы, будто

xazina – сокровище, клад

shoshmoq – торопиться

buyon – в дальнейшем, впредь

hissa – доля, часть

tenglashtirmok – уравниваться, быть уравниваемым



4-topshiriq. Matn mazmuni asosida partadoshingiz bilan dialog tuzing.



2-mashq. Berilgan maqollar va hikmatlarning ikkinchi qismini topib yozing va mazmunini tushuntiring.

Aql ko'pga yetkazar,	erta-kechi bo'lmaydi.
Hunarni asrabon netgumdir oxir,	bilimli xor bo'lmas.
Bilim bilan hunarning	toshga o'yilgan naqsh kabidir.
Yigit kishiga	olib tufroqqamu ketgumdir oxir.
Hunarli kam bo'lmas,	hunar ko'kka yetkazar.
Yoshlikda olingan bilim	qirq hunar ham oz.



Uyga vazifa. Ushbu maqollardan birini mavzu sifatida tanlab, ijodiy matn tuzing.

2-dars



◆ **5-topshiriq.** Rasm asosida namunadan foydalanib, berilgan soʻzlar va soʻz birikmalari ishtirokida dialog tuzing.

Foydalanish uchun soʻz va soʻz birikmalari: sadoqatli, fidoyi inson, kamtarlik, mehnatsevarlik, ulugʻlanadi, qadrlanadi, olqishga sazovor boʻlgan, elga tanilgan.

Namuna:

- Dildora, sen oʻz kasbiga sadoqatli, fidoyi insonlarni bilasanmi?
- Ha, bilaman.
- Kimni ayta olasan?
- Oʻzbek tili oʻqituvchimiz Dilbar Qosimxoʻjayevani aytsam boʻladi. Chunki u kishi oʻzlarining kamtarliklari, mehnatsevarliklari bilan bizga ham taʼlim, ham tarbiya berganlar.
-

◆ **6-topshiriq.** Matnni oʻqing. Mazmunini soʻzlab bering.

Hunar haqida

Ey farzand, agar oqil va dono boʻlay desang, hunarmand boʻlishni andisha qil, hunarmandlik sababidan izzat va hurmatga yetishasan. Hunardan bebahra boʻlsang, qup-quruq, soyasiz daraxtga oʻxshab qolasan.

Ey farzand, o‘z nasibangga, ota-bobongning martabasiga, mansabiga g‘ururlanib, ilm-u hunar o‘rganishdan zinhor or-nomus qilma. Ota mansabiga mag‘rur bo‘lib, mehnatdan qochish, ilm-u hunar o‘rganmay qolish johil va nodon kishilar ishidir.

Oqil va donolar mehnatdan qochmaydilar. Ilm-u hunar o‘rganadilar, shuni yaxshi bil, oliy nasablik bo‘lsang-u aql, donishing, hunaring bo‘lmasa, undan senga nima foyda?

Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do‘st bo‘l, hunarsiz kishida xosiyat bo‘lmaydi. Mehnatdan, ilm-u hunar o‘rganishdan uzoqlashma.

(«Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur» kitobidan)



Lug‘at

hunarmand – ремесленник

johil – невежда, невоспитанный

nodon – непросвещённый, глупый

nasab – происхождение



7-topshiriq. Kasblar haqida namunadagidek dialoglar tuzing va ular asosida suhbatlashing.

– Gulchehra, sen qaysi kasbni yoqtirasan?

– Tikuvchilik kasbini juda yoqtiraman. Shu maqsadda qisqa muddatli kursda o‘qib, tikuvchilikni o‘rganmoqchiman. O‘zing-chi, kim bo‘lmoqchisan?

– Senga o‘xshab chiroyli kiyimlarni xush ko‘raman. Esingda bo‘lsa, o‘tgan yili tikuvchilikka o‘qigan edim. Menga yangi modellar yoqadi. Shuning uchun dizayn yo‘nalishida o‘qishga kirmoqchiman.

* * *

– Do‘stim, ikkalamiz tibbiyot institutiga hujjat topshiramizmi?

– Men bunday demagan edim-ku, Xurshid?!

– To‘g‘ri, bunday demagansan. Men bir yerda o‘qiylik demoqchiman.

– Niyating yaxshi, ammo men kollejda hisobchilik yo‘nalishida o‘qimoqchiman. Menga otamning kasblari juda yoqadi. Otamga o‘xshab yaxshi hisobchi bo‘lsam deyman.

– Yaxshi o‘ylabsan. Xursandman.

* * *

- Sobir, sen qaysi kasbni yoqtirasan?
- Men shifokor kasbini yoqtiraman. Chunki otam shifokor, ular odamlarni davolaydilar.
- Dilbar, senga qaysi kasb yoqadi?
- Menga o'qituvchilik kasbi yoqadi. O'qituvchi bolalarga bilim, tarbiya beradi.



3-mashq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Savollar tuzing. Tayanch so'zlarni topib daftaringizga yozing.

O'z kasbining fidoyisi

Sharqshunoslik, tarix, arxeologiya, etnografiya, toponimiya fanining rivoji va ravnaqida Muhammadjonov Abdulahad Rahimjonovichning xizmatlari katta. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor A. Muhammadjonov sharqshunos va arxeolog olim bo'lgan. Uning ilmiy ishlari Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya, gidrotexnika hamda dehqonchilik vohalarining vujudga kelishi va taraqqiyoti tarixiga bag'ishlangan.

A. Muhammadjonov Buxoro, Toshkent shaharlarining qadimiy tarixini yoritishga, ayniqsa, ularning yoshini ilmiy asoslashga hissa qo'shgan. Vatanimiz tarixiy toponimiyasi bo'yicha 600 dan ortiq ilmiy asarlar va maqolalar nashr etib, tarixiy manbashunoslik bo'yicha yangi ilmiy yo'nalishga asos solgan.

Shuningdek, uning maqolalari xorijiy mamlakatlarda ham chop etilgan. O'ndan ortiq fan doktori, o'n beshga yaqin fan nomzodlari tayyorlagan, o'z kasbidan e'zoz topgan ustoz O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, O'zbekiston Fanlar akademiyasi sharqshunoslik institutida bosh ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan.



Lug'at

ravnaq – развитие
sharqshunos – востоковед
voha – оазис

asos solmoq – основать
shuningdek – также, ровно как
e'zoz – почёт, уважение



Bilib oling!

Tushuntirish xati ish yoki o‘qish jarayonida shaxs tomonidan sodir etilgan ayrim intizombuzarlik holati va uning sababi ko‘rsatilgan rasmiy ish qog‘ozi hisoblanadi. Tushuntirish xati rahbar talabi bilan aniq va ixcham tarzda yoziladi, dalillar bilan izohlanadi, qo‘shimcha asoslov hujjatlari bilan taqdim qilinadi.



4-mashq. Tushuntirish xatining namunasini o‘qing. Nutqiy qoliplarning qo‘llanishi bilan tanishing. Shu asosda o‘zingiz tushuntirish xati namunasini yozing.

*Toshkent shahar
Olmazor tumanidagi
45-maktab direktori
J.Salimovaga
11-B sinf o‘quvchisi
S. G‘aniyevadan*

Tushuntirish xati

Men 2018-yil 4-aprelda onam betob bo‘lib qolganliklari tufayli darslarga kela olmadim.

Ilova: Onamning kasalligi haqidagi shifokor ma’lumotnomasi.

2018-yil 5-aprel

(imzo) S. G‘aniyeva



5-mashq. Yuqorida berilgan namuna va so‘z birikmalaridan foydalanib, tushuntirish xati yozing.

Zaruriyat tufayli, betobliligi sababli, shifoxonada davolanayotgani uchun, no-sozligi tufayli, imkoniyati yo‘qligi tufayli, ob-havo o‘zgarganligi munosabati bilan, xabar berilmaganligi sababli, ruxsat berilmaganligi bois.



Uyga vazifa. Sinf rahbaringizga «Tushuntirish xati» yozing.

3-dars



Adabiy o'qish



8-topshiriq. Matnni o'qing. So'zlab, savollarga javob bering.



Halima Xudoyberdiyeva (1947)

Halima Xudoyberdiyeva 1947-yil 17-mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida dehqon oilasida tug'ilgan.

«Otam, – deb eslaydi shoira, – adabiyotga ixlosmand odam bo'lib, o'rtoqlari bilan tez-tez yig'ilishib turishardi. Ular chaqchaqlashib suhbat qurib, kitobxonlik qilganlarida uyimizda tongotar bazm bo'lardi.

Qiblagohim otam kitoblar qiroatini joyiga keltirib, g'alati, yurakni larzaga keltiruvchi bir xonish bilan o'qirdilar. Ijodkor bo'lib, ozgina nimagadir erishgan bo'lsam, buning uchun men ota-onamning poyiga bosh qo'yib, ko'nglimni izhor qilmog'im lozim».

Halima Xudoyberdiyeva o'rta maktabdan so'ng Toshkent Davlat universitetida ta'lim oldi. So'ngra «Saodat» jurnalida avval bo'lim boshlig'i, muharrir o'rinbosari va keyinchalik bosh muharrir sifatida samarali faoliyat ko'rsatdi.

Shoira ijodida uning so'nggi yillarda yaratgan ikki she'riy to'plami – «Bu kunlarga yetganlar bor» va «To'marisning aytgani» alohida qimmatga ega.

Halima Xudoyberdiyeva o'zining «Muqaddas ayol» nomli she'riy to'plami uchun Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. 1992-yilda esa unga «O'zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon berilgan.

Majnuntol

Majnuntol, ey, egib shox
Sen kimlarga sir aytding.
Baridan bo‘ldim ogoh,
O‘n aytdingmi, bir aytding.

Siringni suvga solma,
Bargingdan g‘am arisin.
Bir siringni ololmay
Yosh dunyolar qarisin.

Sen ham ko‘zin yoshini
Hech kim ko‘rmas bir naysan.
Faqat ishqing yashirib
Mendek yig‘layolmaysan.



Lug‘at

majnuntol – плакучая ива

sir – тайна, секрет

arimoq – исчезать

qarimoq – стареть

nay – музыкальный инструмент
типа свирели



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Shoir Halima Xudoyberdiyeva haqida so‘zlab bering.
2. Matnning qanday turlari bor?
3. Dialog va monolog matnlarga xos xususiyatlar haqida ma’lumot bering.
4. Tushuntirish xati qachon va qanday yoziladi?



Uyga vazifa. She’rni yod oling.

6-mavzu. Xalq amaliy san'ati (Monologik matn)

1-dars



◆ **1-topshiriq.** Rasm asosida suhbatlashing. Berilgan soʻz va soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Foydalanish uchun soʻz va soʻz birikmalari: san'atkor, o'ymakorlik, duradgorlik, san'at turlari, ganch ustasi, zargarlik, naqqoshlik san'ati.

💬 **2-topshiriq.** Suhbat matnini o'qing.

- Ustoz, naqsh degani nima?
- «Naqsh» arabcha soʻz boʻlib, tasvir, gul ma'nolarini anglatadi. U elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon, o'simliklar, geometrik shakllar va boshqalarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.
- Naqshlar qanday turlarga bo'linadi?
- Naqshlar mazmuniga ko'ra o'simliksimon, geometrik naqshlarga, gulli, guruh, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi.
- Men oq matoga naqshlar chizib ipak iplar bilan ustidan tikib chiqaman. Bunday kashta tikishni buvimdan o'rganganman. Naqsh haqida ma'lumot berganingiz uchun rahmat.



Bilib oling!

Monolog yunoncha *monos* – bir necha va *logos* – nutq soʻzlaridan olingan boʻlib, bir shaxsning bogʻlanishli nutqini bildiradi. Monolog oʻz xususiyatiga koʻra 2 xil boʻladi. Soʻzlovchining toʻgʻridan toʻgʻri boshqalarga qaratilgan nutqi ochiq shakldagi monolog yoki *tashqi monolog* deyiladi. Monolog insonning ichki nutqi, yaʼni oʻz-oʻzi bilan soʻzlashuvi tarzida boʻlsa, yopiq shakldagi monolog yoki *ichki monolog* deyiladi. Monologlar badiiy asarlarda koʻp uchraydi.



1-mashq. Abdulla Qahhor hikoyalaridan berilgan parchalarni oʻqing. Ichki va tashqi monologik nutqlarni qiyoslang va yozing.

1. Kampir uning tovushini eshitmadi. U oʻzicha gapirib borar edi: «Burungi zamon boʻlsa, mana shu maxluqqa tegmasdan ilojing yoʻq edi, desam, Adolat ishonmaydi, oʻlay agar ishonmaydi!» («*Qizlar*» hikoyasidan.)

2. Sanʼatkor izvoshchini hayron qoldirib, oʻzidan oʻzi gʻuldirab borar edi. Uyda ham tomogʻidan hech narsa oʻtmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib taʼsir qilar edi: «Ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon boʻlsa, nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilgʻulari kelipti... Obbo!...» («*Sanʼatkor*» hikoyasidan.)



3-topshiriq. Matnni oʻqing va soʻzlab bering.

Usta Shirin Murodov

Oʻzbek meʼmorchiligining shuhrati butun jahonga tanilgan. Bunda oʻz kasbi tufayli tanilgan isteʼdod sohibi usta Shirin Murodovning ham hissasi katta. Kasbga boʻlgan mehr-muhabbat, tinimsiz mehnat uni elga tanitdi.

Uning otasi usta Murod va bobosi usta Nosir Buxoroning mohir ganchkorlaridan boʻlishgan. Usta Shirin 14 yoshida yetim qolib, amakisi, mashhur ganchkor usta Hayot qoʻlida taʼlim oldi. Mustaqil usta sifatida Karmana (hozirgi Navoiy)dagi saroyini bezashda ishtirok etib tanildi. Qadim Buxoroning koʻrkam yodgorligi Sitorayi Mohi Xosaning Oq zali bezagi usta Shirinning meʼmorchilik mahorati kamolga yetganini namoyish etdi.

Usta Shirin ma'muriy binolarni ganchkorlik naqshlari bilan bezadi. Ko'pgina arxitektura yodgorliklarini ta'mirlashda faol qatnashdi. O'zbekiston va Turkmaniston qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi xonalari usta Shirin tomonidan bezatildi. Toshkent kuranti, Navoiy nomini olgan adabiyot muzeyi, Muqimiy teatri va boshqa ko'pgina binolardagi ganch o'ymakorligining nafis naqshlari usta Shirinning sermashaqqat ijodiy mehnati natijasidir. U Alisher Navoiy nomidagi teatrning Buxoro zali bezagi uchun Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Samarqand ta'mirlovchilar maktabida, Toshkent qurilish san'ati bilim yurtida, P.Benkov nomli respublika badiiy bilim yurtida ko'p yillar o'zbek xalq me'morchiligi sirlaridan o'quvchilarga saboq berdi.

(«Muloqot» jurnalidan)



Lug'at

me'morchilik – зодчество, архитектура
iste'dod sohibi – обладатель таланта
ganchkor – мастер резьбы по ганчу
mahorat – высокое мастерство
yodgorlik – памятник, реликвия

kamolga yetmoq – достигать совершенства

o'ymakorlik – резьба, гравировка
sermashaqqat – многотрудный



2-mashq. Matn namunalarini o'qib, mazmunini va tuzilishiga ko'ra farqlanishini tushuntiring va yozing.

– Bizga yuborgan kitoblaringizni oldik, – dedi Navoiyga Badiuzzamon. – Ittifotingiz uchun tashakkur. Sizning ash'oringiz va Jomiy hazratlarining asarlari mutolaasidan ko'nglimiz safoga to'ldi.

– Inson ruhi uchun haqiqiy zavq mutolaadir, – dedi Navoiy qiziqib. – Ammo yolg'iz ash'or o'qimoq kifoya qilmas. Tarix! Tarixni ko'zdan kechirmadingizmi?

– Ko'ngil ash'orga ko'proq moyil bo'ldi. Fursat bo'lsa, tarixni ham boshlagumdir, – javob berdi Badiuzzamon.

Oybek («Navoiy» romanidan parcha)



Uyg'a vazifa. «Men sevib o'qigan kitob» mavzusida kichik monologik matn yozing.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.

– Bugun o'qituvchimiz: «Bo'sh vaqtingizni qanday qilib o'tkazyapsiz?» – degan savol bilan suhbatni boshladilar.

– Sen nima deb javob berding?

– Sinf doshim Komilning javobi menga yoqdi. U yoshlar markaziga borar ekan. U yerda duradgorchilik, hunarmandchilik, zargarlik kabi to'garaklar bo'lib, u duradgorlik to'garagiga qatnashar ekan. Men ham yosh ijodkorlar markaziga bormoqchiman. Zargarlik to'garagiga a'zo bo'lmoqchiman.

– Meni ham qiziqtirib qo'yding. Birga boraylik.

–



5-topshiriq. Matnni o'qing. Savollar tuzing.



1937-yilda Toshkent shahrida amaliy san'at (hunarmandchilik) muzeyi tashkil qilingan. Muzeyda ekskursiyalar, ko'rgazmalar, xazina, ilmiy metodika bo'limlari, kutubxona (Internet tarmog'iga ulangan) bor.

Muzey xazinasida XIX asrning 1-yarmidan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrda o‘zbekistonlik ustalar tomonidan yaratilgan amaliy san‘at durdonalari saqlangan.

Ular 20 nomdagi (kulollik, chinnisozlik, shishasozlik, kashtado‘zlik, do‘ppi, matoga gul bosish, chitgarlik, badiiy mato, milliy kiyim, gilamchilik, yog‘och o‘ymakorligi, naqqoshlik, lokli miniatura, zargarlik, kandakorlik, pichoqchilik va boshqalar) to‘plamda saqlanadi va muzey ekspozitsiyasi ham shu nomlar bo‘yicha namoyish etiladi.

Muzey ilmiy muassasa sifatida amaliy san‘at bo‘yicha keng ko‘lamda tekshirish ishlari olib boradi, buyumlarni sotib oladi, ilmiy yoritadi, buklet, kataloglar nashr etadi, ko‘rgazmalar, ekskursiyalar, ilmiy anjumanlar uyushtiradi.



Lug‘at

amaliy san‘at muzeyi – музей прикладного искусства

durdona – *перен.* что либо отборное, лучшее, жемчужина

kulolchilik – гончарное ремесло

chinnisozlik – фарфоровая промышленность

shishasozlik – стекольная промышленность

kashtado‘zlik – вышивка, вышивание

yog‘och o‘ymakorligi – резьба по дереву

kandakorlik – чеканка по металлу



Bilib oling!

Xat kundalik turmushda o‘zaro munosabatlarni ifodalash maqsadida yoziladigan monologik matndir. Xatlarning salomnoma, tijorat xatlari va diplomatik yozishmalar turlari mavjud. Salomnoma xatlari do‘stlik va hamkorlik munosabatini ifodalaydi hamda erkin uslubda yoziladi.

Tijorat xatlari esa savdo-sotiq, tadbirkorlik faoliyatida qo‘llanadi. Diplomantik yozishmalar davlat rahbarlari, elchilar, konsullarning o‘z mamlakatlari nomidan olib boradigan yozishmalaridan iborat. Tijorat xatlari va diplomatik yozishmalar rasmiy uslubda yoziladi. Ularda davlat manfaatlari yuzasidan o‘tkaziladigan tadbirlar, rasmiy uchrashuvlar va iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘zaro kelishuvlar aks etadi.



3-mashq. Berilgan xat namunasini o‘qing. Xatning turi va asosiy xususiyatlarini tushuntiring.

Salom Yulduz, sog‘-salomatmisan, oila a‘zolaring yaxshimi? A‘lo baholarga o‘qib yuribsanmi?

Mendan so‘rasang, yaxshi yuribman. Maktabda o‘qishlarim namunali. Hamma fanlardan a‘lo baholarga o‘qiyapman. Sen yozgan maktubni olib, xursand bo‘ldim. Xatingda Oybekning «Navoiy» romanini o‘qishni boshlaganingni yozibsan. Men ham bu asarga qiziqib qoldim. Topib o‘qishga harakat qilyapman. Maslahating uchun rahmat.

Sendan xat kutib qoluvchi dugonang Difuza.



4-mashq. Xat namunasida nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘z birikmalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring va bu xatning qaysi turiga kirishini ayting.

Foydalanish uchun: kelishilgan joyga, shartnoma bandlarini kelishib olish uchun, qabul qildim.

Hurmatli _____

Sizning ertaga soat 11.00 da uchrashish haqidagi taklifingizni oldim. Bu taklifni xursand bo‘lib Ertaga o‘z vaqtida yetib boraman.

Hurmat bilan,

_____ imzo

_____ sana



Uyga vazifa. Xat namunalaridan foydalanib, do‘stingizga (dugonangizga) xat yozing.

3-dars



Adabiy o'qish

Abdulhamid Cho'lpon (1898–1938)

Buyuk ma'rifatparvar va serqirra faoliyat sohibi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1898-yili Andijonda tug'ilgan.

Uning otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o'g'li o'z davrining nozikta'b kishilaridan bo'lib, hajviy she'rlar ham yozgan. Cho'lpon madrasa va rus-tuzem maktabida tahsil olgan. U, bir tomondan, an'anaviy sharqona bilim, ikkinchi tomondan, yevropacha ta'lim va tarbiya olgan.

Cho'lponning adabiy merosi «Kecha va kunduz» romani, «Do'xtir Muhammadiyor», «Buloqlar», «Uyg'onish», «Tong sirlari», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz», «Oq podshoning in'omi» hikoyalari, «Yorqinoy», «Mush-tumzo'r», «O'rtoq Qarshiboyev» kabi pyesalardan iborat.

Mustaqillik yillarida Cho'lponning 100 yilligi keng nishonlanib, vafotidan keyin unga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi. Shuningdek, shoir «Mustaqillik» ordeni bilan taqdirlandi.



Lug'at

serqirra – многогранный

hajviy – сатирический

faoliyat – деятельность

ma'rifatparvar – просветитель

nozikta'b – с тонким вкусом

in'om – подарок, дар

sharqona – по-восточному

mushtumzo'r – насильник

taqdirlanmoq – быть оценённым

❖ **6-topshiriq.** Sheʼrni oʻqing va har bir misrasini izohlang.

Koʻngil

Koʻngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla doʻstlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?
Haqorat dilni ogʻritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?
Tiriksan, oʻlmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan.
Kishan kiyma,
Boʻyin egma,
Ki, sen ham hur tugʻilgʻonsan!



Lugʻat

kishan – кандалы, цепи

boʻyin – шея

faryod – крик, вопль

haqorat – оскорбление

qilich – меч

hur – свободный, вольный



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Xalq amaliy sanʼatiga nimalar kiradi?
2. Siz qaysi amaliy sanʼat turiga qiziqasiz?
3. Monologik matnga xos xususiyatlar, uning turlari haqida maʼlumot bering.
4. Berilgan jadvalga tushuntirish xati va xat (maktub) yozishga oid xususiyatlarni qiyoslab yozing.

Tushuntirish xati	Xat (maktub)



Uyga vazifa. Choʻlponning «Koʻngil» sheʼrini yod oling.

7-mavzu. Teatr va kino (Matnni qisqartirish va kengaytirish)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

- Olim, senga o‘zbek aktyorlaridan kimlar yoqadi?
- Shukur Burxonov, Razzoq Hamroyev, Hamza Umarov, Nabi Rahimov, Yoqub Ahmedov kabi mashhur san’atkorlarning mahoratiga qoyil qolaman. Ular o‘ynagan rollar juda hayotiy va ta’sirchan chiqqan.
- Qani, Yoqub Ahmedov ijro etgan rollarni aytib ber-chi.
- Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» spektaklida Alisher obrazi, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar»ida Yusufbek xoji obrazi, P.Qodirovning «Yulduzli tunlar»ida Bobur obrazlari kabi o‘nlab timsollarni yaratgan. Xo‘sh, o‘zing kimlarni bilasan?
- Men Yodgor Sa’diyev, Tesha Mo‘minov, Obid Yunusov, Hojiakbar Nurmatovlarni yoqtiraman.
-

◆ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing. Savollar tuzing.



Zaynab Sadriyeva



Nabi Rahimov

Sahna yulduzlari

Teatr (yun. *theatron* – tomoshagoh) – san’at turi; uning o‘ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o‘yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san’atida ham boshqa san’atlarda bo‘lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og‘zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi.

O‘zbek teatri o‘z tarixi va an’analariga ega. Sahnada aktyorlarning bir necha avlodi xalq mehrini qozonib kelgan. Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobonov, Olim Xo‘jayev, Shukur Burxonov, Nabi Rahimov, Razzoq Hamroyev, Soyib Xo‘jayev, Lutfixonim Sarimsoqova, Zaynab Sadriyeva va boshqa ko‘plab yulduzlar o‘chmas iz qoldirishgan.

Bir paytlar qoralangan asarlar istiqlool tufayli teatrlarimizda sahnalashtirildi, avval taqiqlangan mavzularda yangi asarlar yaratildi.

Bir nechta teatrdagi Fitratning «Abulfayzxon» tragediyasi qayta qo‘yildi. Avval Qashqadaryo teatrida, keyin esa O‘zbek Milliy akademik drama teatrida Amir Temur haqida asar tomoshabinlarga havola etildi.

Teatrlarimizda Cho‘lponning «Kecha va kunduz» hamda «Yorqinoy» dramasi qo‘yildi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Sobir Termiziy, Mirzo Ulug‘bek, Boborahim Mashrab, Ahmad Yassaviy, No-dirabegim haqida spektakllar yaratildi.

Teatrlar jamoasi har yili 27-mart – Xalqaro teatr kunini yangi spektakl premyerasi bilan kutib olishadi.

Mustaqillik yillarida teatrlarimizning moddiy bazasi yaxshilanmoqda. O‘zbek Milliy akademik drama teatri va akademik rus drama teatri yangi binolarga ega bo‘ldi.

O‘zbek teatrining bugungi yulduzlari yangi yorqin sahna asarlarini yaratish ustida ish olib borishmoqda.



Lug‘at

sahna – сцена

an‘ana – традиция

o‘chmas iz qoldirish – оставлять
негасимый след

jamoa – общество

moddiy baza – материальная база



Bilib oling!

Nutqda katta matnlarni ixchamlashtirish yoki kichik matnlarni kengaytirish ham mumkin. Matnni ixchamlashtirish uchun undagi qo‘shimcha ma‘lumotlar olib tashlanadi, sodda yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga, ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiriladi. Kengaytirish uchun esa matn qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan to‘ldiriladi. Matnni kengaytirish reja asosida yoki rejasiz amalga oshirilishi mumkin.



1-mashq. Berilgan matnlarni o‘qing va o‘zaro qiyoslang. Qisqartirilgan matndan qaysi ma‘lumotlar olib tashlanganligiga e‘tibor qiling.

Chingiz Aytmatov

To‘liq matn:

Chingiz Aytmatov 1928-yili qirg‘iz qishloqlaridan birida tug‘ildi. U otasidan erta yetim qolib, bolalar uyida tarbiyalandi. Bolaligidan rus tili ikkinchi ona tili bo‘lib qoldi. Ikkinchi jahon urushining suronli yillarida u kolxozda mehnat qildi. O‘zining dastlabki hikoyasini qishloq xo‘jaligi institutida tahsil olayotgan yillari yaratdi. Oliygozni tugatgach, zootexnik bo‘lib ishladi va hikoyalar yoza boshladi. Ijodda u hayotining mazmuni va maqsadini ko‘rar edi. So‘ngra Moskvadagi Adabiyot institutida o‘qishni davom ettirdi.

Qisqartirilgan matn:

Chingiz Aytmatov 1928-yili tugʻilgan. Qishloq xoʻjaligi institutida oʻqib yurgan kezlari birinchi hikoyasini yozdi. U hayotini ijodsiz tasavvur qila olmasdi. Ijodda hayotining mazmuni va maqsadini koʻrar edi. U keyinchalik Adabiyot institutiga kiradi.



2-mashq. Gaplarning asosiy mazmunini saqlagan holda ixchamlashtiring.

1. Uning manfaatlarini, fikr-oʻy doiralarini, gʻoya va maqsadlarini yaxshi bilamiz. 2. Gapni yana choʻzmasin deb unga qarshi hech narsa demadi. 3. Menga qara, bir ish buyursam, yoʻq demaysanmi? 4. Na muattar chamanzorlar, na muhtasham koʻshklar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafasdagi qushlar – hech nima uni qiziqtirmadi. 5. Kunduzi boʻlsa, oʻzingizdan oʻtar gap yoʻq, xunukroq koʻrinadi. 6. Kim maqtanchoq boʻlsa, u hammaning oldida xijolat tortadi. 7. Koʻz qayerda boʻlsa, mehr ham oʻsha yerda boʻladi.



3-topshiriq. Matnni oʻqing. Mazmunini soʻzlab, savollarga javob bering.



Abror Hidoyatov

1934-yilning bahori. Oʻzbek Milliy akademik drama teatrining 15 yillik yubileyiga atab Vilyam Shekspirning «Hamlet» asarini sahnalashtirishga qaror qilindi.

Mannon Uygʻur bilan Bobo Xoʻjayev Shekspir asarlarini sahnaga qoʻygan teatrlarning, rejissyor va aktyorlarning ijodiy tajribalari bilan tanishadilar. Shekspirshunos olimlar bilan muloqotda boʻladilar. Matn va uning tarjimasi ustida Choʻlpon bilan rosa bir hafta shugʻullanadilar. Keyin ularning iltimosiga binoan sahnalashtiruvchi rassom Shlepanov Toshkentga keladi.

Kelgan kuniyoq «Hamletni kim o‘ynaydi? – deb so‘rab qoldi, – deb yozadi Bobo Xo‘jayev. – Biz Abror Hidoyatovni xonaga taklif qildik. Shunda ustida charm kurtka, boshida shapka, oyog‘ida etik, chapanicha yurish qilib Abror Hidoyatov kirib keldi. Og‘a: «Qahramonimiz shu» dedilar.

– Mana shu kishi Hamletni o‘ynaydimi? Men hech narsa tushunmayapman, – dedi Shlepanov hayron bo‘lib. Shunda rejissyor «Ikki kun Abror bilan bitta monolog ustida ishlasin, bu kishi eshitsin», – deydi. Darhaqiqat, ikki kundan keyin A. Hidoyatov sahnada «Yo o‘lish, yo qolish» monologini o‘qiydi. Bosh yalang, o‘z kiyimida, faqatgina plash kiygan, xolos. A. Hidoyatovning ayni sog‘lom, yetilgan payti edi, jingalak qora sochlari unga alohida fayz bag‘ishlardi. Bo‘sh sahnada, goh qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, goh plash tugmasini o‘ynab, jarangdor, quyuq ovozi bilan monologni chunonam berilib o‘qidiki, uning holatga kirish qobiliyati, Shekspir fikrlarini chuqur tushunib, qalbiga singdira olgani hammamizni qoyil qoldirdi. Xususan, kechagina bunga shubha bilan qaragan Shlepanov lol qolgan edi. Shundan keyin sahnalashtirish ustida ishimiz yurishib ketdi», – deb eslaydi Bobo Xo‘jayev.



Matn yuzasidan savollar:

1. Matndan Abror Hidoyatovga berilgan tavsifni toping va izohlang.
2. Sahnada Shekspirning qaysi asari sahnalashtirilgan?
3. Abror Hidoyatov o‘qigan qaysi monolog barchani hayratga solgan edi?
4. U monologni qanday o‘qishini matndan topib izohlang.
5. Abror Hidoyatov haqida yana nimalarni bilasiz?



4-topshiriq. Berilgan savollarga javob yozing.

1. Ko‘proq qaysi teatrlarga borishni yaxshi ko‘rasiz?
2. Siz dramani ko‘proq yoqtirasizmi yoki komediyanimi?
3. Ko‘proq qanday obrazlarni yoqtirasiz?
4. Siz yaxshi ko‘rgan obrazlarni qaysi artistlar ijro etadi?
5. Qaysi dramaturglarning asarlarini ko‘proq yoqtirasiz?
6. Qaysi bastakorlarning musiqalarini ko‘proq yoqtirasiz?



Uyga vazifa. O‘qigan yoki ko‘rgan asaringiz mazmunini qisqa bayon eting.

2-dars



«Alisher Navoiy» filmidan lavhalar

 **5-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatni davom ettiring.

– Sen o‘zbek kino san’atining rivojiga hissa qo‘shgan rejissyorlardan kimlarni bilasan?

– Men o‘zbek kino san’atining rivojiga hissa qo‘shgan kinorejissyor Komil Yormatovni bilaman. U 1926-yilda Kinematografiya institutini tugatib, kino sohasida ishlagan.

– Komil Yormatov qanday filmlarda rol o‘ynagan?

– U «So‘nggi bek», «Muhojir», «Masjid gumbazlari ostida» filmlarida rollarini mahorat bilan ijro etgan.

– U qaysi badiiy filmlarni suratga olgan?

– Komil Yormatov «Vatanga sovg‘a», «Front uchun sovg‘a», «Uyqusiz yo‘l», «Alisher Navoiy» filmlarini suratga olgan.

–

◆ **6-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmuni yuzasidan suhbatlashing.

Kino san’ati 1895-yil Parijda (ixtirochilar aka-uka Lyumyerlar) yuzaga kelgan. Kino san’ati asarlari yozuvchi-dramaturg, rejissyor, aktyor, operator, rassom, bastakor kabi ijodiy xodimlardan iborat jamoa

mahsulidir. Kinoda rejissyor yetakchi rol o'ynaydi. Film yaratish 2 tomonni – ijod va ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Kino ishlab chiqarishning markazi – kinostudiya. Tayyor filmlar kinoprokat orqali tarqatiladi va ular kinoteatr, televideniya ko'rsatiladi. Ekran san'atining o'ziga xos ifoda vositalari bor: umumiy, o'rta va yirik planda suratga olish, turli rakurslarda kameralar harakati, epizod, kadrlar montajining turli shakllari va boshqalar. Kino san'atining 4 asosiy turi mavjud: badiiy, ilmiy-ommabop, hujjatli va multiplikatsion filmlar.



Lug'at

mahsul – продукт, плод

yetakchi – ведущий, руководящий

ishlab chiqarish – производство

o'ziga xos – своеобразный

orqali – по, через, посредством

o'z ichiga – включающий в себя

shakl – форма, вид

ilmiy-ommabop – научно-популярный



Matn yuzasidan savollar:

1. Kino san'ati qachon paydo bo'lgan?
2. Kino san'atining qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?
3. Kinofilmlar qanday yaratiladi?
4. Qanday kinofilmlarni yaxshi ko'rib tomosha qilasiz?



3-mashq. Berilgan matnni o'qing va kengaytirib yozing.

Yozishdan oldin yashash kerak, degan bir adib. U shoir, noshirlik, san'atkorlik ijod maydonida ot surar ekan, albatta, ma'lum bir yo'lni bosib o'tishi, hayotiy tajriba sohibi bo'lishi zarur. Buloq ko'zidan o'tilib chiqayotgan suv ham mashaqqatli yo'llarni bosib, ne-ne toshlarni yorib chiqqanligi uchun totli va aziz!

Men jamiyatning bir a'zosiman. Unga mutlaq daxldorman. Insonning jamiyatdagi o'rnini uning faqat harakatdagi faoliyatigina belgilaydi. Maqsad ulug' bo'lsa – qayiq kemaga aylanadi.



4-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli jumhalarni qo‘yib matnni kengaytirib yozing.

Milliy teatr – oila. Ustozlar mehribon edilar. Aktyorlik madaniyati, tushunchalarni ilk bor shu yerda egalladik. Menda teatrga, uyg‘ongan. Hamma aktyorlarning ham orzusi – yaratishdir. Iste’dod qudrati namoyon bo‘ladi.

Matnni kengaytirish uchun so‘z va so‘z birikmalari: bosh qahramon timsolini; ota-onaday; boshqalarga ibrat ko‘rsatish fazilati haqidagi; katta; ijodga mehr oila muhitida; kasbga muhabbat bilan.



5-mashq. Namunadan foydalanib, taklifnoma yozing.

Taklifnoma yozish namunasi.

Assalomu alaykum!

Hurmatli _____

Sizni 21-oktabr kuni soat 13.00 da o‘tkaziladigan «Ona tilim – jon-u dilim» deb nomlangan tadbirimizga taklif etamiz.

Hurmat va ehtirom ila 11-sinf o‘quvchilari.

Manzil: Chilonzor tumani, 6-mavze, 178-maktab.



Uyga vazifa. Siz yoqtirgan o‘zbek kino ustalari haqida ma’lumot yozing.



Said Ahmad

(1920–2007)

O'zbek nasrining peshqadam vakillaridan biri Said Ahmad Husanxo'jayev 1920-yil 10-iyunda Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida dunyoga keldi. Adabiyot darslari va to'garaklarida ijodga bo'lgan havasi ortib, qo'lga qalam ushlagan. Said Ahmad dastlab «Mushtum» jurnalida, Radio qo'mitasida, «Sharq yulduzi» jurnalida ishlagan.

Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab felyeton, ocherk va hikoyalar yozgan.

Said Ahmadning barcha hikoyalari zamonaviy mavzuda yozilgan.

U kichik hajviy asarlari bilan o'zbek radio va televideniyesida quvnoq miniaturalar teatriga asos solgan.

Said Ahmad dramaturg sifatida ham tanilgan. U «Kelinlar qo'zg'oloni», «Kuyov» kabi sahna asarlarining muallifidir.

Said Ahmad ham qatag'on davrining ikkinchi to'lqiniga duchor bo'lgan, lager azoblarini tortgan ijodkordir.

Adibning ko'pgina hikoyalari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Said Ahmad O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvonlariga sazovor bo'lgan. «Buyuk xizmatlari uchun» va «Do'stlik» ordenlari bilan taqdirlangan. U «O'zbekiston Qahramoni» hamdir.

Said Ahmad 2007-yil 5-dekabrda vafot etgan.



Cho'l burguti

(hikoya)

Cho'l burgutini izlab Oltiariqdan Yozyovonga otda jo'nadim. Kanal ko'prigidan oshib, cho'l tomonga jilovni burdim. Ot negadir tixirlik qilib, yurmay turib oldi. Jonivor bir-ikki qamchidan keyin ham oldinga jilish o'rni-ga orqasiga tisarilib, taysallardi. Jahl ustida qamchi bosmoqchi bo'lib qo'l ko'targan ham edimki, kimdir qichqirdi:

– O'g'lim, jonivorni sug'oring. Ko'rmayapsizmi, suvga intilyapti. O'girilib qaradim. Suv labida belbog'iga yuz-ko'zini artayotgan olt-mish yoshlardagi qariyaga ko'zim tushdi. U shundoq yuvosh otni besabab qamchilaganimga achingandek, ildam yurib kelib jilovdan oldi. Pastga tush-dim. U ot jilovidan ushlab, qirg'oqqa yetakladi. Ot oldingi oyoqlarini loyga



botirib, tumshug'ini suvga tiqdi. U har zamon-har zamonda bosh ko'tarib, menga qarab qo'yadi-da, yana suvga intiladi. Uning bu harakati chanqaga-nimni bilmading-a, deb ta'na qilayotgandek tuyuldi. Jahl ustida qamchi bos-ganimda eti dirillab ketganini eslab, ko'nglim ranjidi.

– Yo'l bo'lsin, safaringiz qay tomonga? – dedi chol otni qaytarib chiqqach.

– «Paxtakor»ning «G'alaba» uchastkasiga.

– Undoq bo'lsa, yo'lni o'ng tomonga soling.

Cholga minnatdorchilik bildirib, yo'lga tushdim. Kimsasiz cho'lda Cho'l burguti bilan uchrashuv haqida o'ylab ketmoqdaman. Nazarim-da, Cho'l burguti deb atalgan kishi yuzlarini shamollar qoraytirgan, ya-qinida turgan odamga ham xuddi olisdan qarayotgandek ko'zlari-

ni qisib, bo'ynini bir tomonga egib boqadigan, birov bilan ko'rishgani qo'l uzatganda shamolga qarshi uchishga hozirlanib, qanotini yozib, oldinga intilib turgan burgutga o'xshash bahaybat bir kishi bo'lib ko'rinardi. Mening bu fikrimni tasdiqlayotgandek, ot boshini silkitib qo'yadi. Cholni tanidim. U boyagi yo'l ko'rsatgan kishi. Otlarimiz baravarlashganda, jilovni bo'sh qo'yib yubordim.

– Xizmat, o'g'lim? Sizni Yozyovonga qaysi shamol uchirdi?

– Cho'l burgutini ko'rgani kelyapman.

– Ha! Ko'rsa arziydigan yigit. Burgut deganicha bor.

– Taniysizmi uni?

– Bu atrofda uni tanimaydigan odam yo'q. Bu cho'llarda u yonboshlamagan tepa, otining tuyog'i tegmagan soy qolmagan. Olov bola. Cho'lda ot choptirib kelayotganini ko'rsangiz to'ning ikki bari shamolda hilpirab, xuddi burgut qanot qoqib uchib kelayotgandek. G'ayratini aytmaysizmi, qoni tomiridan toshib chiqib ketayotgandek. Nimaga qo'l ura, gullatadi. Qo'li gul deb shuni aytsa bo'ladi. Kanalning berigi tomonidagi yerlarga ko'zingiz tushdimi? Ha, balli. Burgut obod qilgan. Hozir o'sha yerga klub qurilyapti. Juda gashtli yer bo'lgan-da. Burgutning yigitlari shu atrofdan ellik gektar yer ochib, mevazor qilishdi. Uch yil bo'ldi. Ha, uch yil bo'ldi, cho'lning qoq o'rtasidan yer ochgani bola-chaqasi bilan chiqib ketganiga.

– Burgut asli shu yerlik yigitmi, yo ko'chirmami?

Chol ancha vaqtgacha jim qoldi. Tuyoq tovushiga quloq solib bir muddat yo'l yurganimizdan keyin savolimga javob qaytardi.

– Burgut shu yerning bolasi. Yoshligida ham o't-olov edi.

O'sha kezlari Burgut bosar-tusarini bilmay, medallarini jaranglatib, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib yurdi. Yo'q, sal fursatda insofga kelib, ishga sho'ng'ib ketdi. Ammo lekin, dimog' baland. Birov buyurgan ishni qilmaydilar. Brigadirni pisand qilmay, bir chekkada o'ziga yer ajratib olib, ketmon chopib yurdi. Ketmoni qanaqa deng, temirchining miyasini achitib, tepasida turib barkashdek qilib yasatib olgan. Raisimiz esli bola. Aldab-suldab Burgutni yo'lga soldi. O'zi ham yaxshi gap bilan ilonni inidan chiqazadigan xilidan. Kolxoz qizlari bir kuni qiziqchilikka ketmonining sopiga isiriq bog'lab ketishibdi, degan bir gap ham bo'lgan edi chog'imda. O'sha yiliyoq Burgut kolxozda nom chiqarib, Ikromjonning o'rniga brigada boshlig'i bo'ldi. Kelasi yil, orden olib, qurultoyga ham borib keldi. Yopiray, qurultoydan keldi-yu, boshqa odam bo'ldi-qo'ydi. Cho'lga ot solgani solgan.

O‘ziga o‘xshagan yigitlarni ham cho‘lga boshladi. Rabbimsan, deb chunonam ketmon chopishdiki, hash-pash deguncha allaqancha yerni cho‘ldan yulib olishdi. Shu, nazarimda, Burgutning yuragi tanasiga sig‘mayotganga o‘xshaydi.

Cho‘lni siqsam, tanobini tortsam, deydi. G‘ayratingga balli-ye, azamat! O‘tgan yili gektaridan qirq ikki yarim sentnerdan paxta bergan brigadalar Burgut yer ochgan o‘sha cho‘ldan obro‘ topishdi-da.

Cho‘l o‘rtasidagi yo‘l ikkiga bo‘linib, chol otining jilovini tortdi. Cholning jilov tutgan o‘ng qo‘lining ikkita barmog‘i qo‘shaloq bitib qolgani ni ko‘rib qoldim.

– O‘g‘lim, men bu yoqqa ketaman. Endi yo‘lni otning o‘zi topib ketaveradi. Xayr, o‘g‘lim. Burgutga mendan duo deb qo‘ying.

Chol bilan xayrlashdik. To‘ppa-to‘g‘rimdan oy ko‘tarildi. Shu oy nuriga g‘arq bo‘lgan cho‘llarda Burgut parvoz qilib yurgandek, oy ham uning qadami tekkan yerlarni ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘lgandek, yanada ravshanlashayotganga o‘xshardi.

Burgut haqida kitob yozib, uning butun qiliqlari, nuqson va fazilatlarini tasvirlab, mana shu bepoyon cho‘lning peshonasidagi asriy sho‘rni yuvib, zo‘r hosil olishiga o‘quvchini ishontirib bo‘larmikin?



Lug‘at

cho‘l burguti – степной орёл

tuyoq – копыто

jilov – поводья

qamchi – кнут

o‘jar – упрямый

bo‘rdoqi – откормленный

chanqamoq – испытывать жажду

qiliq – выходка



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Yozuvchining Cho‘l burgutini tasvirlagan joylarini topib o‘qing.
2. Yozuvchiga yo‘lda uchragan notanish chol qanday fazilatlariga ega?
3. Chol Cho‘l burguti haqida bildirgan fikrlarini topib o‘qing.
4. «Cho‘l burguti» hikoyasiga o‘xshagan asar o‘qiganmisiz?



Uyga vazifa. Said Ahmadning «Cho‘l burguti» hikoyasini o‘qing va so‘zlab bering.

8-mavzu. Milliy madaniy markazlar (Iboralar)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

- Bizda baynalmilal milliy madaniy markaz bormi?
- Ha, bor. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan 1992-yil mamlakatimizda «Respublika baynalmilal madaniyat markazi» tashkil etildi.
- O‘zbekistonda bunday markazlar ko‘pmi?
- O‘zbekistonda millat va elatlarning madaniy markazi bugungi kunda 137 taga yetgan.
- Ha, rost aytasan, O‘zbekistonning millatlararo munosabatlarni mustahkamlash borasida katta tajribasi butun dunyoda keng e‘tirof etilmoqda, ko‘plab mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.
- Turli millat vakillari O‘zbekistonda tinch, totuv, farovon va baxtli yashab kelmoqdalar. Bu muqaddas Vatanda har bir inson millati, dini va tilidan qat’i nazar mehnat qilsa, xalqimiz uni ardoqlaydi.

❖ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

1992-yil 13-yanvar Toshkentda Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil qilindi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millat va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta’minlaydi. Ularning o‘ziga xos madaniyatlari va ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko‘maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

Mazkur markazning asosiy vazifasi millatlararo totuvlik qaror topishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Markaz O‘zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o‘ziga xos milliy an‘analari, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini tiklaydi va rivojlantiradi.



Lug‘at

baynalmilal – интернациональный
munosabat – отношение
hamkorlik – сотрудничество

qadriyat – ценность
muvofiqlashtirish – приводить в соответствие



Matn yuzasidan savollar:

1. Baynalmilal madaniyat markazi qanday muassasa hisoblanadi?
2. Madaniyat markazi qanday ishlar bilan shug‘ullanadi?



Bilib oling!

Ma’nosi bir so‘zga teng keladigan ikki va undan ortiq so‘zlar yig‘indisi ko‘chma ma’noda kelsa **ibora** deyiladi.

Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi.

Masalan: qulog‘i ding bo‘lmoq – hushyor bo‘lmoq, *qovog‘idan qor yog‘di* – xafa bo‘ldi.



1-mashq. Gaplarni yozing. Iboralarni topib mazmunini izohlang.

1. Hoshimjonning shundan keyin burni osmonga ko'tarildi. 2. Bolalar bog'ni vaqtida tozalashga bel bog'ladilar. 3. Farzandining yomon xulqi ota-onaning boshini bukdi. 4. Karima xola o'ziga bino qo'ygan bu yigitga uzoqdan qarab turardi. 5. Sobiq direktor otdan tushsa ham, egardan tushmas edi. 6. Kechagi voqeadan bolalarning dami ichida edi. 7. Ko'chamiz bolalari bugungi g'ala-badan do'ppisini osmonga otdi. 8. Ikkala dugonaning fikrlari bir joydan chiqdi.



2-mashq. Gaplarni o'qing. Iboralarni topib yozing, mazmunini izohlang.

1. Singlim labi labiga tegmay, kelgan mehmonlarga gap bermay faqat o'zi gapirdi. 2. U sahnaga chiqishdan oldin o'zini qo'lga oldi. 3. Bo'lib o'tgan voqealarni qor bosdi. 4. Uni ko'rib o'zini yo'qotib qo'ydi. 5. Yulduz qalbi pok, qo'li ochiq qiz. 6. Salimning ko'chaga chiqishga oyog'i tortmadi. 7. Opa-singilning oralaridan qil ham o'tmas edi. 8. O'rtoq, gapni rosa olib qochasan-da. 9. Atlas matolarimizdan mehmonlarning ko'zlari qamashdi.



3-mashq. Chap ustunda berilgan iboralarning mazmunini o'ng ustunga yozing.

yeng ichida	
tepa sochi tikka bo'ldi	
qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'ydi	
tarvuzi qo'ltig'idan tushdi	
yulduzni benarvon uradi	
yuragiga qil sig'maydi	
qildan qiyiq axtarib	



3-topshiriq. Maqollarni ko'chiring va mazmunini tushuntiring.

Yaxshilik nur keltirar, yomonlik – zulmat.
Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma.

Yaxshidan ot qoladi, yomondan – dod.
Yaxshi bo‘lsang yasharsan, nasibangni osharsan.
Yaxshilik qilsang yashir, yaxshilik ko‘rsang oshir.
Yaxshidan bog‘ qolar.



Uyga vazifa. Boshi osmonga yetmoq, burni ko‘tarilmoq, qovog‘idan qor yog‘moq, tepa sochi tikka bo‘lmoq iboralarining ma‘nolarini yozing.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

– Iltimos, Milliy madaniy markazning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari haqida gapirib bersangiz.

– Yil sayin markazning xorijiy tashkilotlar bilan o‘zaro do‘stona aloqalari mustahkamlanib bormoqda. Bir qator davlatlar o‘rtasida shartnomalar imzolangan. Milliy madaniy markazda turli millat vakillari o‘zlarining an‘anaviy bayramlarini o‘tkazib keladilar. Men televizorda rus milliy madaniy markazining bayramlarini tomosha qildim.

- Nimalarni ko‘rdingiz, gapirib bering-chi.
- Rus va boshqa millat vakillariga mansub insonlar o‘zlarining milliy taomlari, sport musobaqalari yuzasidan bellashuvlar, ko‘rgazmalar tashkil qildilar. Ayniqsa, menga ularning milliy taomlarini sharhlab berganlari yoqdi.
- Mening ota-onam ham koreys milliy madaniy markazi a‘zolari hisoblanishadi. Biz O‘zbekistonda yashayotganimizdan mamnunmiz. Chunki O‘zbekistonda turli millat vakillari o‘z an‘analari, qadriyatlari va tillarini saqlagan holda yashashlari qonun tomonidan himoyalab qo‘yilgan.



Bilib oling!

Tavsifnoma biror shaxsni tavsiflashga qaratilgan hujjatdir. Ushbu hujjat ishga, o‘qishga kirish vaqtida III shaxs tilidan aniq ma’lumotlar asosida xolis yoziladi. Unda tavsifnoma berilayotgan shaxsning yoshi, darajasi, o‘qiyotgan yoki ishlayotgan joyida qanday faoliyat yuritayotgani, ish va o‘qishda erishgan yutuqlari, mas’uliyatliligi, insoniy sifatlari, atrof-dagilarga munosabati, oilaviy holati haqida ma’lumot beriladi. Tavsifnoma boshqa muassasa yoki korxonaga berilsa, albatta, rasmiy ravishda tasdiqlab yuboriladigan hujjat hisoblanadi.



4-mashq. Tavsifnoma namunasini o‘qing. Hujjatning mazmuniy qismlariga va ularda beriladigan ma’lumotlarga e’tibor qiling.

Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 40-maktabning 11-sinf o‘quvchisi, 2001-yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek Vohidova Dilnozaga

Tavsifnoma

Vohidova Dilnoza 2008-yilda 1-sinfga qabul qilingan. Maktabda o‘qish davomida u barcha fanlardan a’lo baholarga o‘qimoqda, o‘zini har tomonlama bilimli, harakatchan, intiluvchan o‘quvchi sifatida ko‘rsatdi. Vohidova Dilnoza har yili o‘tkazib kelinayotgan umumta’lim fanlari bo‘yicha Respublika olimpiadasining g‘olibi hisoblanadi. Bugungi kungacha maktabda o‘tkazib kelinayotgan ko‘rik-tanlovlarda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga Vohidova Dilnoza ijodkor o‘quvchi hisoblanadi. Uning «Izlanish va ijod», «Gulshan» nomli to‘plamlari chop etilgan.

Vohidova Dilnoza jamoa ishlarida ham faol ishtirok etadi. Sinfdoshlari bilan xushmuomala, ochiq ko‘ngilli, odobli va intizomli o‘quvchi. O‘tgan davr

mobaynida sababsiz dars qoldirmagan, ustozlariga hamisha hurmat-e'tiborli. Bilimlarini oshirib borib, o'z ustida tinmay izlanadi, qo'shimcha tayyorlov kurslariga, iqtidorli o'quvchilar guruhlari bilan o'tkaziladigan qo'shimcha mashg'ulotlarga muntazam qatnashadi.

Tavsifnoma so'ralgan joyga taqdim etish uchun berildi.

Sinf rahbari

T. T. Ikromova

Sana

muhr



5-mashq. Gaplarni o'qing, iboralarni topib yozing.

1. Nosir bobo charchagan ekan, shekilli, ko'zi ilindi. 2. Ona farzandiga ichi achib, ko'nglingni buzma, hammasi yaxshi bo'ladi, dedi. 3. Bolaning eshitgan gaplari u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketdi. 4. O'quvchi masalani ishlashda ancha bosh qotirdi. 5. Sinf rahbariga voqeani bir boshdan gapirishdi. 6. Arpasini xom o'rdimmi, xafa bo'ladi, – dedi bola.



6-mashq. Nuqtalar o'rniga mazmuniga mos so'zlarni qo'yib yozing. Mazmunini izohlang.

1. bilan ikki quyonni urdi. 2. Musobaqada o'quvchilar bo'lilar. 3. kelsa ham to'g'ri gapiradi. 4. Bolalarning bog'da ishi yotibdi. 5. Kampirning yetganda, bir piyola suv beradigan odami yo'q edi. 6. Bolalar darsga sho'ng'ib ketishdi.

Foydalanish uchun so'z birikmalari: bir jon-u bir tan, boshdan oshib, boshiga qilich, boshi yostiqqa, boshi bilan, bir o'q.



Uyga vazifa. Iboralardan foydalangan holda 4 ta gap tuzing.

3-dars



Adabiy o'qish

◆ **5-topshiriq.** Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

Odil Yoqubov

(1926–2009)

Odil Yoqubov 1926-yili Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyatining Qar-noq qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ildi. O'rta maktabni tugatib, O'rta Osiyo Davlat dorilfununining filologiya fakultetida o'qidi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi, «Literaturnaya gazeta»ning respublikamizdagi maxsus muxbiri, «O'zbekfilm» kinostudiyasi va Respublika kinematografiya qo'mitasida bosh muharrir, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishladi. So'ngra «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining bosh muharriri bo'lib faoliyat yuritdi. Yozuvchi keyingi yillarda yaratilgan «Ulug'bek xazinasi» romanida ulug' o'zbek astronomi Ulug'bek va uning o'g'li Abdullatif o'rtasidagi ziddiyatli kurashlarni tasvirlaydi. Romanda Ulug'bekning iste'dodli shogirdi, mashhur olim Ali Qushchining ham ulug'vor obrazi yaratilgan. Boshqa bir yirik asari – «Ko'hna dunyo» romanida Markaziy Osiyoning ikki buyuk allomasi Beruniy va Ibn Sino hayoti va fojiali taqdiri qalamga olinadi. Ularning jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini umumlashtirishga intiladi. Shuningdek, Odil Yoqubov zamonaviy mavzularda ham «Diyonat», «Oqqushlar, oppoq qushlar» kabi yirik asarlar yaratdi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov «Ulug'bek xazinasi» romani uchun Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. «Do'stlik», «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan.

Atoqli adib Odil Yoqubov 2009-yilda 83 yoshida vafot etdi.



Muzqaymoq

(hikoya)

Mana, bu voqealarning sodir bo'lganiga yarim asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Shaxsga sig'inish davrining ne-ne jinoyatlari fosh etildi. Bu jinoyatlar qanday dahshatli bo'lmasin, nazarimda, ularning eng yomoni – kattalar yetmagandek, menday go'daklarni ham hamma narsaga shubha bilan qarash, hammayoqdan yovuz kirdikorlar qidirishga qaratilgan urinishlar deb bilaman. Nihoyat, dadamlar bilan vidolashadigan kun ham keldi. Vidolashishga uch kishiga ruxsat berishgandi: oyimlar, katta opamlar va menga! Shu boisdan bo'lsa kerak, qarindosh-urug'lardan hech kim, na dadamlarning ukalari, na yor-do'stlari – hech kim kelmadi.

Oyimlar bilan opamlar kechasi uxlashmay, dadamlar uchun bug'doy tolqon, so'k tolqon va yana allaqanday narsalar tayyorlashdi. Chunki bu payt dadamlar ozod bo'ladi degan umid ojiz miltirab turgan shamday so'ngan, u kishini uzoqlarga olib ketishlari chamasi oyimlarga ayon edi. Ertalab to'rva-xaltalarni ko'tarib qamoqxonaga qarab yo'l oldik. Bu safar bizni ko'p kuttirishmadi. Beliga choynakday to'pponcha taqib olgan harbiy bizni uzun, tor, nimqorong'i yo'lakdan ichkariga boshladi.

Yo'lakning yarmiga borganda o'ng qo'ldagi eshikni ochib, bizga yo'l berdi. Chog'roqqina to'rtburchak xonaning to'ridagi stol oldida gimnastyorka kiygan, sochlari oppoq bir odam allanimalarni yozib o'tirardi.

Dadamlar burchakda kursida o'tirgan ekanlar (men avval u kishini tanimay qolibman!), biz kirishimiz bilan dik etib o'rnidan turdilar. Azaldan barvasta, to'ladan kelgan, novcha odam bir-ikki oy ichida cho'pday ozib, lunjlari ichiga botgan, ko'zlari kirtayib, qiyg'ir burni so'rrayib qolgandi.

Yana qamalgan kechasidagidek yig'i-sig'i boshlandi. Oyimlar-ku, yuzini ro'moliga yashirib, jimgina titrab yig'lar, lekin opamlar... dadamlarning bo'ynilariga osilib olgan opamlarning faryodi tor xonani zir titratardi.

Keyinchalik marhum oyimlar ko'p aytguvchi edilar:

– Noinsoflar jilla qursa yarim soat ham fursat bermadilar. Dadang sho'rlikning diydoriga ham to'ymadik. Bergan chorak soatlari ko'z ochib-yumguncha o'tib ketdi...

Bu safar chorak soat davom etgan vidolashuv davomida dadamlar biror marta Stalinning nomini tilga olmadilar, qamalgan kunlaridagidek: «Men partiya oldida gunohkor emasman! O'rtoq Stalin barhayot ekan, meni oyoqosti qilib qo'ymaydi!» demadilar. Bil'aks, bir necha marta ko'zlariga yosh olib:

– Meni kechir, Gulshan. Ayol boshing bilan besh bolani qanday boqasan – aqlim bovar qilmaydi. Endi yuz ko'rishishimizga ham ko'zim yetmaydi, kechir meni! – dedilar.

Har safar dadam shunday deganlarida stolga mukka tushib, allanimalarni yozayotgan kishi:

– Hoy, Yoqubov! – derdi qog'ozdan bosh ko'tarmay. – Senga nima bo'ldi? Yosh bolamisan, Yoqubov?

Nihoyat, bu odam qarshisidagi devorga osilgan almisoqdan qolgan devor soatiga ko'z tashlab:

– Fursat tugadi, Yoqubov. Endi xayrlashinglar! – deb buyurdi.

Opamlarning nidosi battar avjiga chiqdi. Oyimlar ozgina pul olib kelgan ekanlar, dir-dir titragan qo'llari bilan dadamlarga tutdi, dadamlar esa:

– Bolalaringga yarat, Gulshan! – deb yolvorar edilar. Lekin oyim ko'nmadilar, axiri pulni olishga majbur qildilar.

Oyimlar keltirgan pul bor-yo'g'i ellik so'm bo'lib, o'nta besh so'mlikdan iborat edi.

Dadamlar pulni qiynala-qiynala olarkanlar, besh so'mliklardan birini menga uzatdilar. Oyimlar pulni mendan olib, dadamlarga qaytarib bermoqchi bo'lgandilar, dadamlar ko'nmadilar, kaftlarini boshimga qo'yib:

– Sen endi bu uydagi eng katta erkaksan, bolam, – dedilar va yana ko'ziga yosh oldilar. – Oyingga yordamlashib, ukalaringga qarab turgin, bolam! Dadamlar shunday deb besh so'mlikni cho'ntagimga soldilar.

– Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lgan edim, bu ham nasib etmadi. Bu pulga daftar-kitob ol! Qolganiga muzqaymoq olib ye, o'g'lim!.. Boyadan beri oyim va opamlarga qo'shib yig'lashni o'zimga ep ko'rmay serrayib turgan bola, to'satdan, xuddi dadamlarni olib chiqib ketayotgan paytlaridagidek yuragimda nimadir darz ketganday tuyuldi-yu, NKVD xodimining maqtovlari ham, aksilinqilobchilar kirdikorlarini fosh etgan hushyor o'quvchi ekanligim ham – bari yodimdan chiqib, «Dadajon!», degancha otamning tizzasini quchoqlab oldim.

Bu mash'um voqealardan keyin ko'p yillar o'tdi, ko'p suvlar oqib ketdi.



Lugʻat

nimqorongʻi – полутёмный

chogʻroq – малый

barvasta – рослый

chorak soat – четверть часа

bilʻaks – *книжн.*, наоборот, напротив

lunj – нижняя часть щеки

barvasta – дородный, рослый

fursat – момент

mashʻum – злополучный, злосчастный

nido – восклицание

aksilingilobchi – контрреволюционер

darz – трещина



Matn yuzasidan savollar:

1. Hikoyada qaysi davr tasvirlangan?
2. Matn asosida Yoqubov obraziga izoh bering.
3. Nima uchun bosh qahramon «Endi yuz koʻrishishimizga ham koʻzim yetmaydi», – dedi.
4. Oyisi bergan puldan besh soʻmni dadasi nega oʻgʻliga berdi?



7-topshiriq. Jadval asosida asarni tahlil qiling.

Davr	Izoh
Oʻsha davrga xos boʻlgan xususiyatni yozing.	
Ota nima uchun muzqaymoq olib bera olmadi?	



Uyga vazifa. Hikoyani soʻzlab bering.

9-mavzu. Jahon adabiyoti namoyandalari (Ko'chma ma'noli so'zlarning qo'llanishi)

1-dars



◆ 1-topshiriq. Matnni o'qing va savollar asosida suhbatlashing.

Ingliz dramaturgi va shoiri Vilyam Shekspir o'z faoliyatini 1580-yildan teatr aktyori va dramaturgi sifatida boshlagan. Shoirning 1603-yildan keyingi aktyorlik faoliyati to'g'risida biror ma'lumot yo'q. Ammo u o'zining «Lord Kamerger xizmatkorlari» truppasi uchun pyesalar yozishda davom etgan. Bu truppa Yakov I ning taxtni egallaganidan keyin qirol truppasi deb atalgan. Shekspir taxminan 1612-yilda Stratfordga qaytib kelgan va shu yerda vafot etgan. Uning aktyorlik faoliyati taxminan 15 yil davom etgan. U Uyg'onish davri madaniyati bilan uzviy maydonga kirib kelgan juda ko'p asarlar yaratgan. Shekspir yaratgan asarlar jahon lirikasining buyuk namunalari qatoridan o'rin olgan. Ijodkorning shoh asarlari «Romeo va Julyetta», «Yuliy Sezar», «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir» tragediyalaridir.



Matn yuzasidan savollar:

1. Shekspirning aktyorlik faoliyati qancha davom etgan?
2. Shekspirning qanday asarlari bor?
3. Shekspir yana qanday kasbda ijod qilgan?



Bilib oling!

Ayrim soʻzlarning oʻz maʼnosi va koʻchma maʼnosi boʻladi. Soʻzning boshqa soʻzlar yordamida aniqlanadigan, izohlanadigan maʼnosi **koʻchma maʼno** deyiladi.

Soʻzlarning oʻz maʼnosida qoʻllanishi	Soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanishi
Koʻz – koʻrish aʼzosi	uzukning koʻzi
Bosh – odamning tana aʼzosi	koʻchaning boshi



1-mashq. Quyidagi gaplardagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning oʻz yoki koʻchma maʼnoda kelganligini aniqlab yozing.

Namuna: qanot – qushning qanoti (oʻz maʼnosi); qanot – samolyotning qanoti (koʻchma maʼno).

1. Farida opa xontaxtaga yangi dasturxon yozdi. 2. Qani, mehmonlar, dasturxonga qaranglar. 3. Uning qora koʻzlari gʻazabdan chaqnar edi. 4. Buloqning koʻzi yopilib qolibdi. 5. Men ellik birga chiqib, Beshyogʻochga bordim. 6. Qirq oltiga beshni qoʻshsa, ellik bir boʻladi. 7. Uyimizning shundoq ostonasi yonidan ariq oqib oʻtar edi. 8. Gap shundaki, oʻlim ostonasida vijdoni sergaklashadi. 9. Uch yoshga kirganda bulutga sakraydigan, tuyogʻidan oʻt chaqnaydigan ot boʻldi. 10. Jamoamiz fermada yildan yilga tuyoqlar sonini koʻpaytirishga intilmoqda. 11. Tolibjonning koʻnglida uxlagan xotiralar uygʻonib ketdi. 12. Sobir kech uxlagan boʻlsa ham, sahar payti uygʻonib ketdi.



2-mashq. Koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻz birikmalari yordamida gaplar tuzing.

1. Stolning oyogʻi. 2. Ariqning labi. 3. Koʻchaning boshi. 4. Kemaning tumshugʻi. 5. Sovuq xabar. 6. Shirin soʻz. 7. Achchiq haqiqat. 8. Qarzni uzmoq.



2-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini izohlang.

Bir kuni shogird ustozidan so'radi:

– Qanoat egasi kimdir, ustoz?

Ustoz javob berdi:

– Nasib etganiga shukur qilguvchi, birovlarining mol-mulkini ko'rib ma'yus bo'lmaydigan, tamadan yiroq insondir. Olamda qanoat kabi dilni poklaydigan narsa yo'qdur. U kishining nazarini to'q tutadi, tama, hasad, ochko'zlik illatlaridan asraydi va oxir-oqibatda eng saodatmand, davlatmand kishilar safiga qo'shadi.

Ustoz biroz sukut saqlab, so'ngra yana davom etdi:

– Boylik mol-mulkning ko'pligi degani emas, balki ko'ngilning to'qligidadir.



Lug'at

qanoat – довольствоваться малым

tama – корысть

illat – болезнь, зло

ko'ngil – душа

poklamoq – чистить, очищать

oxir-oqibat – в завершении

saodatmand – счастливый



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Qanoatli insonlar deganda kimlarni tushunasiz?
2. Ustoz boylik so'ziga qanday izoh berdi?
3. Hasad, ochko'zlik so'zlarini izohlang.
4. Ko'ngil to'qligi deganda nimani tushunasiz?



Uyga vazifa. O'z ma'nosi va ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarga 4 ta gap tuzing.



◆ 3-topshiriq. Matnni o'qing va o'zaro suhbatlashing.

– Men jahon adabiyoti namoyandalari yaratgan asarlar bilan tanishmoqchiman. Siz qaysi yozuvchini tavsiya qilgan bo'lar edingiz?

– Men yunon yozuvchisi Sofoklning asarlarini o'qiganman. Uning «Shoh Edip» tragediyasi qanchalik achinarli bo'lmasin, bundan 25 asr oldin yozilgan bu asar hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Yana sizga qadimiy xitoy mutafakkiri, siyosiy arbob Konfutsiyning asarlarini ham tavsiya qilaman. Uning asarlari faqat Xitoyning emas, butun Sharq xalqlari donishmandligining ajoyib namunasi hisoblanadi.

– Men Hindistonning buyuk yozuvchisi Robindranat Tagorning «Nur va soyalar» asarini o'qidim. Menga juda yoqdi. Shu sababli bu yozuvchi haqida ko'proq ma'lumot olmoqchiman. Qayerdan olsam bo'ladi?

– Men, asosan, gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadze, tojik shoiri Mirzo Tursunzoda, qoraqalpoq adabiyoti asoschisi Berdaqning asarlari bilan tanishmoqchiman. Siz Alisher Navoiy nomidagi kutubxonaga borishingiz kerak.



3-mashq. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni ikki guruhga ajratib yozing.


Qush, sen, kir, tish, chumchuq, ko'z, bugun, bel, kub, yer, morfologiya, qalam, olmos, qalin, tog', tumshuq, men, yaproq, issiq, ona, o't, yo'l, tush, kechagi.



4-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Mark Tven

Asl ism-sharifi Semuel Lengxorn Klemens bo'lgan amerikalik yozuvchi, jahon adabiyotining yirik namoyandasi Mark Tven o'spirinlik va yigitlik yillarida darbadarlikda kun kechirgan, turli kasblar bilan shug'ullanib, tirikchilik o'tkazgan, keyinchalik gazeta tahririyatlarida ishlagan. Folklor sujeti asosida yozilgan «Kallaverasdan chiqqan mashhur sakrovchi qurbaqa» asarida soddadil amerikaliklarning hazil-mutoyibasi va hayoti tasvirlangan.



U Yevropa va Falastin bo'ylab sayohat qilgan. «Chet ellardagi soddadil kishilar» hajviy ocherklari, «Toblanganlar» ocherklari, kitoblariga kirgan asarlar ana shu sayohatlar taassurotlari asosida vujudga kelgan. Yumoristik va satirik yo'sinda yozilgan «Eski va yangi hikoyalar», «Tennesidagi jurnalistika», «Meni gubernatorlikka qanday saylashgani», «Qishloq xo'jaligi gazetasiga qanday muharrirlik qildim» singari to'plamlariga kirgan asarlarida Amerika hayotining turli qirralari tasvirlangan.



4-mashq. Ko'chma ma'noli so'zlarni topib namunadagidek yozing.

Namuna: Arraning tishi – ko'chma ma'noda, o'z ma'nosi – a'zo.

G'orning og'zi, yumshoqqina kulimsiradi, qozonning qulog'i, derazaning ko'zi.

❖ **5-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmunini izohlang.

O‘qib, olim bo‘lganingizda ilmingiz bilan maqtanib, boshqalarni mensimay mutakabbir bo‘lib yurmang, olim odam kamtar, muloyim, tavozeli bo‘ladi, ilmi bilan sira ham maqtanmaydi. Kecha-yu kunduz fikr-u zikri xalqqa foyda yetkazish bo‘ladi.



Lug‘at
mensimaslik – пренебрежение
mutakabbir – высокомерный

kamtar – скромный
tavozeli – учтивый, почтительный



Uyga vazifa. So‘zlarni o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda qo‘llab, 4 ta gap tuzing.

3-dars =====



Adabiy o‘qish



Rasul Hamzatov
(1923–2003)

*She’riyat, mazlumga homiylik qilding,
Qaroli bo‘lmading zo‘ravonlarning.
Olding panohingga notavonlarni,
Zolimlarni esa dushman deb bilding.*

Rasul Hamzatov

Dog‘istondagi kichkinagina avar elining farzandi, XX asr jahon she’riyatining yirik vakili Rasul Hamzatov 1923-yilda tug‘ilgan. 13–14 yoshlaridan boshlab she’rlar yoza boshlagan. 16 yoshida shoir sifatida tanilgan. Otasi – Dog‘istonning mashhur shoiri Hamzat Sadasa unga ijod ishida hamisha haqiqatni kuylashga o‘rgatdi. 18 yoshidan boshlab Rasul o‘qituvchi, artist

va muxbir sifatida mehnat qildi. Shoirning birinchi kitobi 1943-yili chop etilgan. 1945-yilda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil olishga kirishadi.

«Tog‘ qo‘shig‘i», «Mening qalbim tog‘lari», «Tog‘ qizi», «Dog‘istonim», «Yuksak yulduzlar», «Tug‘ilgan kunim», «Tog‘likning vatani», «Ovuldan xat» singari she‘riy kitoblar, «Ona tilim», «Shu ham erkakmi?», «Do‘stlik haqida qissa» kabi she‘rlari adibni butub dunyoga tanitdi.

Ona tilim

Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da,
O‘lib qolganmishman tushda nogahon.
Ko‘ksimda qo‘rg‘oshin, quyosh tig‘ida,
Tog‘lar orasida yotibman bejon.

Uzoqda sharqirab soylar oqmoqda,
Borliqda bir ajib dilbarlik hokim.
Men esam o‘ylayman yotib tuproqda:
Mana shu tuproqqa qo‘shilar xokim.

Men o‘lib yotibman, kimsasiz, unut,
Hech kimsa qayg‘urmas va chekmas yohu.
Faqat cho‘qqilarda qurqurar burgut,
Faqat vodiylarda ingraydi ohu.

Navqiron yoshimda bo‘ldim-ku ado,
Otash yuragimni o‘ydi axir o‘q.
Na onam, na yorim bermaydi sado,
Do‘st tugul, hattoki yig‘ichi ham yo‘q.

Fig‘on otiladi jonsiz bag‘rimdan,
(Go‘yo fig‘on bordek murda dilida.)
Shu payt ikki kishi o‘tdi naridan,
Quvnoq suhbat qurib avar tilida.

Men-ku bu dunyodan ko‘z yumdim mangu,
 Ular kulib-kulib so‘zlashar borin;
 Qandaydir Hasanning turfa ishi-yu
 Qandaydir Alining sho‘x kirdikorin.

Avar so‘zin tinglab kirdi menga jon,
 Ohista tirildim va shunda bildim:
 Meni tuzatolmas hech dori-darmon,
 Jonimga masihdir shu ona tilim.

Mayli, kim qay tildan zavq-u shavq olsa,
 Mening o‘z tilimga ming jonim fido.
 Erta ona tilim agar yo‘qolsa,
 Men bugun o‘lishga bo‘lurman rizo.

Mayli, qashshoq bo‘lsin, mayli, behasham,
 Lekin mening uchun aziz va suyuk.
 Jahon minbaridan yangramasa ham,
 Ona tilim menga muqaddas, buyuk.



Lug‘at

quyosh tig‘i – солнцепёк

jonim fido – пожертвовать собой

qashshoq – бедный, нищий

behasham – без особых украшений

minbar – трибуна

rizo – согласие



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. She’rda shoir tabiatni qanday tasvirlaydi?
2. Yarador qahramonni nima tuzatadi?
3. Nima uchun shoir ona tilini muqaddas, buyuk hisoblaydi?



Uyga vazifa. She’rdan parcha yod oling.

10-mavzu. Vatanga sadoqat (Ma'nodosh so'zlarning qo'llanishi)

1-dars



 **1-topshiriq.** Dialogni o'qing va rasm asosida suhbatlashing.

Bobo nabiradan so'radi: Vatanimiz jahon miqyosida qanday o'ringa ega?

Nabira: Bobojon, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, Vatanimizda ilm olish uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Davlatimiz yoshlarga g'amxo'r. Xalqimizning madaniyati butun dunyoga mashhur.

Bobo: Ayt-chi, o'g'lim, bizning mamlakatimizda qanday yangiliklar bo'layapti?

Nabira: Bugun biz yoshlar bir nechta tilda gaplasha olamiz. Yurtimizda tadbirkorlik, marketing sohalari rivojlanmoqda. Bizning yurtimizda dunyoning mashhur o'quv yurtlari joylashgan. O'zbekistonda yashab turib o'qish imkoniyatiga egamiz.

Bobo: Nabiraginam, sen Vatan uchun qanday xizmat qilmoqchisan?

Nabira: Men yaxshi o'qishim, namunali xulqim, kelajakda yaxshi kasbni egallashim orqali Vatanimga xizmat qilaman.

◆ **2-topshiriq.** Matnni o'qing. Matn asosida suhbatlashing.



Vatan himoyasi

Vatan himoyasi hamma zamonlarda ham eng sharaflı va oliyjanob ish, ona diyorga bo'lgan mehr-muhabbatni namoyon etishning oliy namunasi bo'lib kelgan. Biz kelajagi buyuk Vatanning farzandlarimiz. Biz uni sevamiz, ardoqlaymiz. Uning qudrati, shon-shuhrati, erk-u farovonligi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilamiz.

Yurt himoyasi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk bobolarimizning jasorati bizlar uchun ibrat bo'lib xizmat qiladi. Vatanga bo'lgan mehr va sadoqatimizni yanada oshiradi. Xorazmlik ulug'alloma Najmiddin Kubro falsafiy she'rlari, ilmiy risolalari bilangina emas, Vatan himoyasi yo'lidagi qahramonligi bilan ham xalqimiz xotirasida yashab kelmoqda.

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari yurtimizga bostirib kelgan paytda dushmanlar ul zotning obro'-e'tiborini hisobga olib ozodlik bermoqchi bo'ladilar. Ammo donishmand dushmanning bu iltifotini qabul qilmaydi. U kishi mard o'g'lonlar bilan birga jangga kiradi va qahramonlarcha halok bo'ladi. Rivoyat qilishlaricha, avliyo bobomiz dushman bayrog'ini tortib olib, shu qadar mahkam ushlagan ekanki, o'n kishi bo'lib ham uni bobomiz qo'lidan ajratib ololmagan ekanlar.

Bu Najmiddin Kubro bobomizning dushmanga bo'lgan cheksiz nafrati, Vatanga bo'lgan mustahkam sadoqatining ifodasidir. Bu sadoqatni hatto o'lim ham yo'q qila olmadi.

(«*Vatan tuyg'usi*» kitobidan)



Lug'at

oliyjanob – благородный

risola – брошюра

iltifot – внимание, любезность

sharaflī – почётный

rivoyat – предание, сказание

qo'shin – войско

shu qadar – в такой степени, настолько



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Vatanga sadoqat deganda nimani tushunasiz?
2. Najmiddin Kubroga tavsif bering.
3. Xorazmga kim bostirib keldi?
4. Chingizxon kimga iltifot ko'rsatdi?



Bilib oling!

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatdan, bir xillari talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. **Ma'nodosh so'zlar** «bir nomli» degan ma'noni bildirib, shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir.

Masalan: ovqat, osh, taom; ishchan, harakatchan, tirishqoq.



1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib yozing va ma'nodoshlarini toping.

1. Avtobusga chiqqan ... kishiga yoshlar joy berishdi. 2. Do'stidan kelgan ... uzoq asrab yurdi. 3. Bolalar ... suzilganda kirib kelishdi. 4. Sinfimiz o'quvchilari ... tufayli a'lo baholarni olishdi. 5. Ota-onalar majlisida ... masala ko'rildi. 6. Shu maktabga ... qadamni bosgan edim. 7. O'qituvchimiz ... voqealar haqida gapirardi. 8. ... shoir Navoiy Hirotda tug'ilgan.



2-mashq. Foydalanish uchun berilgan soʻzlar yordamida nuqtalar oʻrnini toʻldirib yozing va ularning maʼnodoshlarini toping.

1. ... tirik sayyoralardan biri bizning yerimiz hisoblanadi. 2. ... ongli jonzotlardan biridir. 3. Uning onasi ... bilan chiqib ketdi. 4. Bu yil bogʻbon uzumdan ... hosil oldi. 5. Qizlarimiz ... xulqqa ega boʻlishlari kerak. 6. ... bu gaplarni eshitardi. 7. ... soʻzla, soz soʻzla. 8. Kutubxonada ikkita qiz tinmay nimalarnidir

Foydalanish uchun soʻzlar: moʻl, samoda, inson, iboli, yumush, hamma, shivirlashardi, oz.



3-topshiriq. Munosabat texnologiyasi asosida fikringizni ayting va jadvalni toʻldiring.

Vatanga sadoqat	Vatanga xiyonat



4-topshiriq. Quyidagi maqollarni oʻqing, mazmunini izohlab daftaringizga koʻchiring.

Olim boʻlsang, olam seniki.
 Bilmaganingni bilgandan soʻra.
 Birni kessang, oʻnni ek.
 Befoyda soʻzni aytma, foydali soʻzni eshitishdan qaytma.
 Avval oʻyla, keyin soʻyla.
 Yaxshini koʻrib fikr qil,
 Yomonni koʻrib shukur qil.



Uyga vazifa. Chap ustunda berilgan soʻzlarning maʼnodoshlarini oʻng ustundan topib yozing.

chiroyli, xunuk, avval	goʻzal, ilgari, koʻrimsiz, latofatli, xushsurat, badbashara, oldin, sohibjamol, qadim
------------------------	---



◆ **5-topshiriq.** Matnni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Vatanparvarlik

Vatanni sevish vatanparvar bo‘lish demakdir. Vatan muqaddasdir. Uni asrashimiz kerak.

Vatanparvarlik ona **zaminga** bo‘lgan muhabbat bilan o‘lchanadi.

Uning ravnaqiga har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shishga intiladi.

Xalqiga **sodiq** kishi vatanparvardir. U har qanday vaziyatda ham xalqiga, Vataniga **xiyonat** qilmaydi, Vatanini sotmaydi.

Vatanparvarlik – jonkuyarlikdir. Chunki vatanparvar kishi o‘z hayotini **yurtining** tarixi, ilm va madaniyati, milliy qadriyatlarini bilish hamda e‘zozlashga bag‘ishlaydi. Vatan kelajagi yoshlar qo‘lida. Ular **ajdodlari** tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy boyliklarni asrab-avaylaydilar. Vatan taraqqiyoti, millat obro‘sigacha hissa qo‘shgan, xalqiga foyda keltirgan, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilgan inson vatanparvar hisoblanadi.

Shunday ekan, har bir kishining **qalbida** o‘z Vataniga buyuk e‘tiqod, muhabbat his-tuyg‘ulari barq urib tursa, bu ajoyib ne‘matlarni umrbod ardoqlasa, shundagina u haqiqiy vatanparvar bo‘la oladi.



Lug‘at

jonkuyar – преданный всей душой

fidoyi – самоотверженный

e’tibor – внимание

moddiy – материальный

ma’naviy – духовный

taraqqiyot – развитие



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Matn mazmunini o‘z tushunchalaringiz asosida to‘ldiring va davom ettiring.

2. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini toping.



3-mashq. Berilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini quyida berilgan jadvaldan topib namunadagidek yozing.

Namuna: samo – osmon, ko‘k, falak.

Yuz, inson, ulug‘, yurak, taom, keksa, ishchan, chiroyli, ko‘p, hamma, bitirmoq, sezgi, asramoq.

Bet, chehra, aft, ovqat, bashara, qalb, dil, odam, tugatmoq, tamomlamoq, osh, his, mo‘l, ko‘ngil, bisyor, bari, himoya qilmoq, mo‘ysafid, avaylamoq, saqlamoq, go‘zal, tirishqoq, xushro‘y, ko‘hlik, qari, barcha, oqsoqol, nuroniy, harakatchan, buyuk, katta.



4-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini topib yozing.

1. Uning akasi ishni **bitirdi**. 2. Berilgan ishni **bitirdi**. 3. Yangi rejalar haqida **so‘zladi**. 4. Gulnozaning **betiga tabassum** yugurdi. 5. Onasiga, Vataniga bo‘lgan **mehrini** sezdi. 6. Eshik ochilib, onasining **chiroyli yuzini** ko‘rdi. 7. O‘zbek xalqining **urf-odatlari** ko‘p. 8. Bu yil dalalarda poliz ekinlaridan **mo‘l** hosil olindi.



5-mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.

1. Bu o‘qish uning uchun ... (kam, oz) bo‘lib ko‘rindi. 2. Senga ... (ozgina, kam) tirishqoqlik yetishmaydi. 3. ... (buyuk, ulug‘) ishlar qilish uchun tinmasdan harakat qilish kerak. 4. O‘zbek xalqining ... (katta, ulug‘) allomalaridan biri Abdulla Avloniy «Birinch muallim» darsligini yaratgan. 5. Shoir ... (ko‘ngli, dilida)gini oq qog‘ozga tushiradi. 6. ... (mo‘ysafid, qariya)ning gaplari unga qattiq ta’sir qildi. 7. Bir ... (oqsoqol, nuroniy) daraxt soyasida dam olardi. 8. ... (ovqat, taom) pishguncha uyga vazifani yozib tugatishga harakat qildi. 9. O‘zbek xalqining ... (palov, taom)lari xilma-xil. 10. Jamilaning ... (qalbi, ko‘ngli) juda nozik.



6-topshiriq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Shahrimizda yangi binolar qurilmoqda. 2. Ajdodlarimiz merosini o‘rga-namiz. 3. Yurtimizda tinchlik va farovonlik bo‘lsin! 4. Vatanimizning taqdiri bizning taqdirimizdir. 5. Vatan kelajagi yoshlar qo‘lida.



7-topshiriq. Quyidagi maqollarni o‘qing, mazmunini izohlang.

1. Vatanning tinch – sen tinch.
2. Vatanni sotgan er bo‘lmas.
3. Ona yerining tuprog‘i ona sutiday aziz.
4. Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas.
5. Vatani borning baxti bor, mehnati borning taxti bor.



Uyga vazifa. Avaylamoq, yurt, harakatchan, himoya, ko‘rmoq so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing.



Ozod
Sharafiddinov
(1929–2005)

**O'lsam ayrilmasman
quchoqlaringdan**

Yosh tomoshabinlar teatrining Eski Jo'va-
dagi almisoqdan qolgan torgina zali. Odam tir-
band. Sahnada past bo'yli, istarasi issiq artist
ko'zlari chaqnab, ovozini bir ko'tarib, bir pa-
saytirib hayajon bilan she'r o'qimoqda:

*Vatan – ona so'zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo'tabar, aziz,
Hurmatini saqlar har bir o'g'il-qiz,
Muqaddas, mo'tabar, ulug' Vatanim,
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan...*

Vatan. Vatan tuyg'usi. Vatan muhabbati. Nimadir bular? Bular qanday
sehrli qudratki, hali voyaga yetmagan, dunyo ko'rmagan, turmushning past-
balandlaridan bexabar, o'yin-u sho'xliklardan o'zga dardi yo'q bir o'smirning
yuragiga jo bo'lib olib, butun umr uning xatti-harakatini, yurish-turishini bosh-
qarib turadi. Bu tuyg'u inson farzandida tug'ma bo'larmikin?

Umuman, «Vatan» deganning o'zi nadir?

Tug'ilib o'sgan uyingmi? Beshikda qulog'ingga kirgan mungli va ayni
chog'da nurli allami? Buvingning ertaklarimi? Maktabmi? Ilk bor visol onla-
riga guvoh bo'lgan so'lim xiyobonlarmi? Albatta, bularning hammasi va
yana allaqancha narsalar birlashib, «Vatan» degan narsaning so'nmas tim-

solini yaratsa kerak. Odamzod shunday yaratilganki, u boshqalardan ajralgan holda, yakka-yolg'iz, so'ppayib umrguzaronlik qilolmaydi. Hatto umrining yarmini xumni vatan qilib o'tkazgan qadimgi yunon faylasufi Diogen ham, baribir, shogirdlari bilan, boshqa faylasuflar bilan aloqada yashagan. Xullas, qarindosh-urug', do'st-u birodarlar, mahalla, jamoa, qolaversa, butun jamiyat odamning o'sib-ulg'ayishida, umrguzaronligida istasa-istamasa unga tayanch bo'ladi, uning parvozig qanot beradi. Shuning uchun «Vatan» tushunchasi muayyan jug'rofiy hududnigina qamrab olmaydi, balki uning tarkibiga butun jamiyat, uning kechagi kuni, buguni va ertasi ham kiradi.

Shuning uchun men «o'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» deya bot-bot takrorlaganimda, bilamanki, men Vatanimga kerakman.

Tekin meros ekan deb, uning boyliklarini bir chekkadan sovuraverishim kerakmi? Axir, yotib yesa tog' chidamas ekan.

Yo'q, orqa-oldimizga qaramay sovurish yo'lini tutadigan bo'lsak, bu go'zal o'lka uch-to'rtta avlodning umri o'tmasdanoq odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadigan dasht-u biyobonga aylanadi-yu, biz hammamiz kelajak avlodlarning qarg'ishiga uchraymiz. Baxtimizga, o'tgan avlod-ajdodlarimiz bizga Vatanni meros qilibgina qoldirgan emaslar, balki bu Vatanni chin yurakdan sevishni, unga fidokorlik bilan xizmat qilishni, uning husniga husn, boyligiga boylik qo'shishni ham meros qoldirishgan. Vatanni sevmoq imondandir, deb ta'lim berishgan ular...

Vatan muhabbati hammaga ko'z-ko'z qilinmaydi, u to'g'risida tantana-vor e'lonlar chop etilmaydi, har muyulishda odam ko'kragiga urib, Vatanga oshiqqligini pisanda qilmaydi. Vatanga muhabbat bozorda sotiladigan matoh emas, balki inson qalbining to'rida gard yuqtirmay pokiza saqlanadigan eng nafis, eng inja bir tuyg'udir.

Shu o'rinda olis zamonlarda o'tgan ajdodimiz Shiroqning Vatan yo'lidagi buyuk fidokorligi yodimga tushadi. Biz bu odamning oddiy cho'pon bo'lganini bilarmiz, xolos. Uning o'zi qanaqa odam bo'lgan, yoshmi, keksami, bola-chaqalari bo'lganmi-yo'qmi ekanidan butunlay bexabarmiz. Lekin shuni aniq aytilish mumkinki, u biror maktabda o'qib, xat-savod chiqarmagan bo'lsa kerak. Yana shunisi aniqki, u televizor ko'rmagan, radio eshitmagan, gazeta o'qimagan. Binobarin, Vatanni sevish, unga jon fido qilish kerakligi haqidagi xitoblar-u siyqasi chiqqan balandparvoz chaqiriqlarni eshitmagan. Lekin yurtiga bostirib kelgan yovni sahroga olib borib adashtirib kelishga qaror qilganida, sahrodan o'zining ham sog' qaytib kelmasligini yaxshi bilgan. Demak,

ona-Vatanini yovdan saqlab qolish uchun ongli ravishda jonini qurbon qilishga otlangan.

Har holda, Shiroq «bir zamonlar kelib, o‘zbek yoshlari mening jasoratimni darsliklaridan o‘qib, sha’nimga olqishlar yog‘dirishar», degan o‘ydan mutlaqo uzoq bo‘lgan.

Ha, Vatan muhabbati ana shunday pokiza, oliyjanob, beminnat bo‘lmog‘i, har qanday maqtanchoqlikdan, sun‘iylikdan, pisandadan xoli bo‘lmog‘i kerak.

Odam ota-onasini tanlayolmaganidek, Vatanni ham tanlayolmaydi. Albatta, Alloh odamga Vatanni muzliklardan ham, sahrolardan ham, changalzorlardan ham ato etishi mumkin. Lekin siz bilan bizga Alloh O‘zbekiston deb atalgan, tuprog‘ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog‘ desa tog‘i bor, bog‘ desa bog‘i bor, har tongda bulbullar madhini o‘qib tamom qilolmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o‘zimizni BAXTLI deb bilmog‘imiz kerak.



Lug‘at

ravnaq – процветание

umrguzaronlik – образ жизни,
жизнь

aylasuflar – философы

jamiyat – общество

sovrmoq – везать, взметать

tantanavor – торжественный

sun‘iylik – искусственность

bulbul – соловей



Mavzu yuzasidan savollar:

1. Vatanga muhabbat deganda nimani tushundingiz?
2. Odamzod qanday maqsadlar uchun yaralgan?
3. O‘lsam ayrilmasman quchoq‘ingdan, deganda yozuvchi o‘zining nimaga kerakligini tushunadi?
4. Siz Vatan uchun nima qildingiz?



Uyga vazifa. «O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» matnini o‘qing va mazmunini so‘zlang.

11-mavzu. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi (Shakldosh va zid ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

– E’zoza, sen kimyo, biologiya fanlarini qunt bilan o‘qiyapsan. Kelajakda kim bo‘lmoqchisan?

– Menga bu fanlar yoqadi. Kelajakda men shifokor bo‘lmoqchiman. Oq xalat kiyib, xalqimga xizmat qilmoqchiman. O‘zbekiston tibbiyot tizimi dunyo standartlariga mos. Bu bejizga emas, chunki bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino tibbiyot faniga asos solganlar. Men ham buyuk bobom kabi bemorlarni davolab, dardiga malham topmoqchiman.

– Yurtimizda har bir kishi yuqori sifatli tibbiy yordam olishga haqli. Sen meni qiziqtirib qo‘yding. Men ham o‘ylab ko‘raman.



2-topshiriq. Matnni o‘qing va berilgan savollar asosida suhbatlashing.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi boshqaradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, shahar hamda tumanlarda tegishli boshqarma yoki bo‘limlar mavjud. Respublikada sog‘liqni saqlashni rivojlantirishga O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi,

shuningdek, «Sogʻlom avlod uchun» xalqaro xayriya jamgʻarmasi, «Qizil Yarim oy» jamiyati, «Nuroni» jamgʻarmalari oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda. Mamlakatda sogʻliqni saqlash sohasida islohotlar bosqichma-bosqich olib borilmoqda. Butun eʼtibor onalar va bolalar sogʻligʻini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, yuqumli kasalliklarni kamaytirishga qaratilgan. Shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatish tizimining yangi shakli joriy etildi. Natijada mamlakatning hamma hududlarida shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatishga, uyga shifokor chaqirish bilan malakali tibbiy yordam koʻrsatish oʻrtasidagi vaqtni ancha qisqartirishga erishildi.



Lugʻat

islohot – реформа

boshqarma – управление

boʻlim – отдел

takomillashtirmoq –

совершенствовать

bosqichma-bosqich – поэтапно



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Oʻzbekistonda sogʻliqni saqlash ishlarini qaysi tashkilot boshqaradi?
2. Sogʻliqni saqlash tizimida qanday yangiliklar boʻlmoqda?
3. Qanday xayriya jamgʻarmalarini bilasiz?



Bilib oling

Talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo atash maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar **shakldosh soʻzlardir**. Masalan: tut (daraxt) – tut (harakat), yosh (koʻz yoshi) – yosh (umr oʻlchovi).



1-mashq. Berilgan soʻzlarning maʼnodoshlarini toping. Soʻz birikmalari va gaplar tuzing.

Yumshoq, yengil, oʻt, lab, koʻch, mushak, osh, qirq.



2-mashq. Berilgan gaplarni oʻqing. Ot soʻzining turli maʼnolarda ishlatilishini izohlang.

1. Koptokni uzoqqa ot, – dedi Tohir. 2. Qoʻlingdan kelganicha chiqar yaxshi ot. 3. Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot. 4. Yolgʻiz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dongʻi chiqmas.



3-mashq. Ikki ustunda berilgan gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlab, solishtiring.

Men tushimda buvimni ko'rdim.	Jamila, zinadan pastga tush .
Aziz yengil nafas oldi.	Uning sumkasi yengillashdi .
Masalaning shartini tuz .	Sho'rvaning tuzi baland ekan.
Onam unni elakda eladi.	Laylo un chiqarmasdan yig'lardi.
Abrorga otasi ot olib berdi.	Notanish kishi boladan oting nima deb so'radi.
Omborxonaga o't ketdi.	Akmal qo'ylarga o't berdi.
Bu yil tut serhosil bo'ldi.	Sardor, qaddingni tik tut .



4-mashq. Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini solishtiring.

1. Bog'bon **dam olish** uchun supaga o'tirdi. 2. Bobom velosipedning g'ildiraklariga **dam soldi**. 3. Qizcha **sochini** chiroyli qilib o'rdi. 4. Doniyor tovuqlarga don **sochdi**. 5. Bugun biz **fe'l** so'z turkumini o'tdik. 6. Komilaga kundan kun **fe'ling** o'zgarib boryapti, dedi o'qituvchi. 7. Salima xola ro'zg'or ishlari bilan bo'lib **kech** tushganini ham bilmay qoldi. 8. Bolalar suvdan **kechib** o'tishdi. 9. Ustingni **kir** qilma, – deb bolaning qulog'iga shivirladi onasi. 10. Kech tushib qoldi, uyga **kir**, – dedi buvisi.



Uyga vazifa. Chap ustunda berilgan so'zlarning ma'nolarini o'ng ustundan topib yozing.

yosh	rang, osmon
och	a'zo, harakat
ko'k	qorni och, eshikni och
soch	ko'z yoshi, umr o'lchovi

2-dars



 **3-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

– Kechirasiz, terapevt, ko‘z doktori va nevropatolog qachon qabul qilishini bilsam bo‘ladimi?

– Marhamat, terapevt va nevropatolog har kuni soat to‘qqizdan o‘n ikkigacha va o‘n to‘rtidan o‘n yettigacha qabul qiladi. Ko‘z doktori esa haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari soat o‘ndan o‘n oltigacha qabul qiladi.

– Jarroh-chi?

– Men sizni soat o‘n birga yozib qo‘ydim.

– Rahmat. Kechirasiz, men elektrokardiogramma qildirishim kerak edi.

Qaysi xonaga kiraman?

– Ikkinchi qavatga chiqib, 14-xonaga kirasiz. Laboratoriya soat sakkizdan ishlaydi.

– Dorilarni qayerdan olish mumkin?

– Retseptingiz bormi?

– Bor.

– Dorilarni retsept bilan dorixonadan olish mumkin. Dorixona hovlida.

– Katta rahmat, xayr.

– Sog‘ bo‘ling, xayr.

❖ **4-topshiriq.** Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Badantarbiya

Sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiyadir. O‘z vaqtida badantarbiya bilan shug‘ullanuvchi odam kasallikdan yiroq bo‘ladi. Badantarbiya tanaga yengillik beradi. Chunki u tanada mo‘tadil issiqlik paydo qiladi, kunda to‘planuvchi chiqindilarni yo‘qotadi. Badantarbiya turlariga qo‘l va oyoqlar bilan turli mashqlarni bajarish, yurish, ma’lum balandlikdagi turnikda tortilish, bir oyoqda sakrash, oyoq uchlarida turib, qo‘llarni oldiga va orqaga cho‘zib harakat qilish kabilar kiradi.

Badantarbiya bilan shug‘ullanuvchi, avvalo, o‘z gavdasini mashq qilish uchun tayyorlashi lozim. Buning uchun u avval dush qabul qilishi, keyin tanasini qattiq mato bilan ishqalashi kerak. Natijada u tetiklashib, terisining teshiklari kengayadi.



Lug‘at

yiroq bo‘lmoq – быть отдалённым

yengillik – становиться лёгким

mo‘tadil – умеренный

chiqindi – отходы

ishqalamoq – натирать

tetiklashmoq – ободряться



Matn yuzasidan savollar:

1. Sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri nima?
2. Badantarbiyaga nimalar kiradi?
3. Odam qachon kasallikdan yiroq bo‘ladi?
4. Siz sog‘lig‘ingizni qanday asraysiz?



5-topshiriq. Matnni rollarga bo‘lib o‘qing.

Salomatlik – tuman boylik

O‘tgan zamonda bir qashshoq yigit donishmand cholning oldiga kelib:
– Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo‘q, juda qiynaldim. Nima qilishimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan? – debdi.

Chol: – Sen kambag‘almisan? – desa, u:

– Ha, bola-chaqalarim va o‘zim ochman, kiyim-kechagim yo‘q, – deb zorlanibdi. Chol:

– Xo‘p, bo‘lmasa, menga o‘ng qo‘lingni sot, necha pul beray? – desa, haligi yigit:

– Yo‘q, o‘ng qo‘lim o‘zimga kerak, sotmayman, – debdi.

Shunda chol:

– Bo‘lmasa, o‘ng ko‘zingni sot, – debdi. Yigit:

– Nega men o‘ng ko‘zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, – debdi.

Chol shu tarzda yigitning tana a‘zolarini birma-bir sanab, ularni sotishni taklif qilibdi. Yigit «Yo‘q» javobini qaytaravergach, chol unga:

– Ha, oyoq-qo‘ling but, to‘rt muchang sog‘ bo‘lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan? – dedi.

Kishining tan-joni sog‘lig‘i tuman boyligi-ku. «Sog‘ tanda – sog‘lom aql» deb bekorga aytmaganlar. Sog‘ bo‘lsang, qanday ish bajarsang qo‘lingdan keladi, kuning o‘tadi, – deb javob qaytargan ekan chol.



Lug‘at

donishmand – обладающий знаниями, мудрец

zorlanmoq – жаловаться

shu tarzda – таким образом

bekorga aytmaganlar – недаром говорят

qo‘lingdan keladi – ты сможешь

mucha – части тела



Matn yuzasidan savollar:

1. Yigit donishmandga nima deb zorlanibdi?
2. Donishmand nimalarni taklif qilibdi?
3. Donishmand nima deb javob qaytaribdi?



Bilib oling!

Zid ma‘noli so‘zlar – qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlardir.

Masalan: ko‘p – oz, uzun – qisqa, chiroyli – xunuk.



5-mashq. Uch guruhga bo‘linib, jadvaldan berilgan so‘zlarning zid ma’nolarini topib yozing.

Oq, uzun, baland, suvli, yaxshi, keng, bormoq, kel, qattiq, erta, yig‘lamoq, ko‘p, yosh, go‘zal, achchiq, tun, uzoq, aqlli, dono, yaxshilik, do‘st, eski, mushkul, mehr, tiniq, tez, to‘q, to‘xtadi, yoqdi, g‘ayratli.

Erinchoq, ket, o‘chdi, yurgizdi, och, asta, loyqa, yangi, oson, nafrat, dushman, yomonlik, nodon, kun, yaqin, aqlsiz, shirin, xunuk, qari, yumshoq, kech, kulmoq, oz, kelmoq, tor, yomon, qora, qisqa, past, suvsiz.



6-mashq. Berilgan zid ma’noli so‘zlardan gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

1. O‘zib ketdi – orqada qoldi. 2. Shodlanmoq – xafa bo‘lmoq. 3. Ziqna – saxiy. 4. Yopiq – ochiq. 5. Urush – tinchlik. 6. To‘qlik – ochlik. 7. Tez – sekin. 8. Sovuq – issiq. 9. Tor – keng. 10. Sodda – ayyor. 11. Siniq – butun. 12. Sog‘lom – kasal. 13. Rostgo‘y – yolg‘onchi.



7-mashq. O‘ng ustunda berilgan maqollarning davomini chap ustundan topib yozing.

Sog‘ yurak	ozoda bo‘l
Sog‘ yuray desang	boylicing
Sog‘liq	tog‘ yurak
Sog‘lig‘ing	umrning garovi



6-topshiriq. Quyidagi maqol va hikmatlarni o‘qing, ularning mazmunini sharhlang.

1. Sog‘lom tanda – sog‘ aql.
 2. Salomatlik – tuman boylik.
 3. Baxtimizning o‘ndan to‘qqiz ulushi sog‘lig‘imizga bog‘liq. *A. Shopengauer*

4. O‘z vaqtida, me‘yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo‘lamaydi.

5. Ruhni davolamay turib, tanni davolab bo‘lmaydi. *Sugrot*

◆ **7-topshiriq.** Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

Yaxshini maqtasang yarashadi. Bo‘linganni bo‘ri yer. Yaxshiga yondash, yomondan qoch. O‘qigan odam hayotda qiynalmaydi. Kitob – bu dono maslahatchi. Dunyo ko‘raman desang, o‘qi! Ilm olish igna bilan quduq qazish demakdir.



Uyga vazifa. Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Jismoniy, sog‘lom, davolanmoq, muntazam, shug‘ullanmoq, parhez, chiniqmoq, shifokor, tashxis, tibbiy nazorat.

3-dars



Adabiy o‘qish

Maqsud Shayxzoda

(1908–1967)



*Do‘stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!
«Salom» degan so‘zning salmog‘in oqlang!
O‘lganda yuz soat yig‘lab turgandan
Uni tirigida bir soat yo‘qlang!*

Maqsud Shayxzoda

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon

Maqsud Shayxzoda 1908-yili Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topgan. Boshlang‘ich va o‘rta ma‘lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogi-

ka institutida sirtidan o'qidi va 1925-yildan boshlab Darband shahrida muallimlik bilan shug'ullandi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida, Fanlar qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim va to umrining oxiriga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutining o'zbek klassik adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, yuqori malakali kadrlar tayyorladi.

1960-yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida buyuk o'zbek astronomi va ma'rifatparvar podshosi obrazini o'zbek adiblaridan birinchi bo'lib yaratdi. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi va dotsent bo'lishi bilan bir qatorda buyuk shoir ham edi. Shayxzoda asarlari qardosh va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shayxzoda 1967-yili vafot etdi. U 2001-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.



Toshkentnoma *(Lirik poemadan parchalar)*

Bag'ishlov

Shaharlar boqiydir, umr – o'tkinchi,
Daryolar sobitdir, suvlar – ko'chkinchi.
Har kim o'z shahrida qo'ygan esdalik:
Yo bino qurishda katta ustalik,
Yo shirin latifa yoki ixtiro,
Yo daraxt, yo farzand, ko'prik, yo misra,

Yo qo‘shiq, yo dori, maktab, sog‘chilik,
 Xulosa: dunyoda biron yaxshilik...
 Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab
 Qilarkan ta‘rifin, sen biroz to‘xtab,
 «Shunchalar bormikan?» deb gumon qilding,
 «Ko‘rganda aytamiz!» deb imo qilding.
 Va aytding – darvoqe, ko‘rgandan keyin:
 «Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!»
 Qomatga munosib bo‘lsin deb libos,
 Shahrimga dildagi muhabbat, ixlos
 Dostonga quyilsin degandim u choq,
 Kechikib yozganim kechirgin, o‘rtoq!
 Bu yerda turganlar, yoki ko‘rganlar,
 Yoki ko‘rayin deb istab turganlar,
 Yoki Toshkentimning shaklin so‘rganlar,
 Naqshini dilida olib yurganlar...
 Sizga bu taronam – kuyim armug‘on,
 Nasr – og‘ir qadam, nazm – chopog‘on.



Lug‘at

boqiy – вечный

sobit – постоянный, стойкий

ko‘chkinchi – бродячий

ta‘rif – описание

darvoqe – между прочим, кстати

qomat – стан

tarona – напев

armug‘on – дар



She‘r yuzasidan savollar:

1. «Dunyoda biron yaxshilik» deb yozuvchi nimani nazarda tutgan?
2. «Maqtoving oz ekan, soz ekan uying» misrasini izohlang.
3. Yozuvchi nimani «kechikib yozdim», deb uzr so‘raydi?
4. Shoir kimlar uchun kuyini armug‘on qiladi?



Uyga vazifa. «Toshkentnoma» she‘rini yod oling.

12-mavzu. O‘zbek sportchilarining shuhrati (Tasviriy ifodalar)

1-dars



 **1-topshiriq.** Suhbat matnini o‘qing. Rasm asosida suhbatlashing.

– Komil, bizning yurtimizda qanday sport turlari rivojlanganligini bilasanmi?

– Bizda sportning hamma turlariga e’tibor berilgan. Jumladan, boks, badiiy gimnastika, futbol, kanoeda eshkak eshish, dzyudo, og‘ir va yengil atletika, erkin va yunon rum kurashi, suzish va boshqa sport turlari rivojlangan.

– Ha, sportchilarimiz Osiyo va Jahon chempionatlarida, Olimpiada o‘yinlarida mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilib kelmoqdalar.

– To‘g‘ri aytasan. O‘zbekistonda sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilganligi sababli, Vatanimiz sha’ni butun dunyoga yanada ulug‘lashiga hissa qo‘shyapti. Eng muhimi, O‘zbekiston sportchilari hech kimdan hech qachon kam bo‘lmagan. Sport bilan shug‘ullanuvchilar uchun ko‘plab zamonaviy inshootlarning barpo etilishi ularni ruhlantirmoqda.

 **2-topshiriq.** Quyidagi matnni o‘qing va savollar asosida suhbatlashing.

Kurash

Kurash juda qadimiy sport turlaridan biridir. Kurash qadimiy va erkin kurash turlariga bo‘linadi. U rivojlanib o‘zbek kurashi nomi bilan dunyoga

tarqaldi va alohida sport turi sifatida tan olindi.

Turkiy xalqlar tarixidan ma'lumki, qadimda xotin-qizlar ham kurash tushishgan. Asosan, sayl va bayramlarda, turli tantanalarda, katta-kichik to'ylarda pahlavonlar o'zaro kurashishgan.

O'zbekistonda Milliy kurash federatsiyasi tuzilgan va kurashchilar bu jamiyatning a'zosi hisoblanadilar. Hozirda jahonning ko'pgina davlatlarida o'zbek kurashi bo'yicha xalqaro musobaqalar o'tkazilmoqda. Bu musobaqalarda o'zbek kurashchilari oldingi safda borishmoqda.



Lug'at

erkin kurash – вольная борьба
sayl – народные гулянья

pahlavon – богатырь
jamiyat a'zosi – член общества



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Qadimiy sport turlaridan qaysilarini bilasiz?
2. Kurash sportini ko'rganmisiz?
3. Jahonda kurash sportiga o'xshash sport turlari bormi?
4. Kurash sporti musobaqalari qayerlarda o'tkazilgan?



Bilib oling!

Narsa-buyumning nomini aniq atamay, uni tasvirlab, boshqa nom bilan ataladigan so'z birikmasi **tasviriy ifoda** deyiladi.

Masalan: qushlar – qanotli do'stlar, fazogirlar – samo lochinlari, mak-kajo'xori – dala malikasi.



1-mashq. Chap ustunda berilgan tasviriyl ifodalarni o'ng ustundan mazmuniga mosini topib yozing.

aql gimnastikasi	rassom
qora oltin	shifokor
mo'yqalam sohibi	neft
salomatlik posboni	shaxmat
charm qo'lqop ustasi	bug'doy
oltin boshq	bokschi



2-mashq. Gaplarni o'qing. Namuna asosida yozing.

Namuna: Sayohatchilar **tuyalarda** sayr qilishdi. Sayohatchilar **sahro kemalarida** sayr qilishdi.

1. **Shoir** Alisher Navoiy o'z davrida ko'p shogirdlar yetishtirgan. 2. **Onam** men uchun bu olamning chirog'i. 3. Ukamga **sher** haqida ertak o'qib berdim. 4. **Cho'ponlar** o'z vazifalarini yaxshi bilardilar. 5. Bahor kelishi bilan issiq o'lkalarga uchib ketgan **qushlar** qayta boshladi. 6. Bola **samolyotga** qo'llarini siltab qoldi. 7. **Qor** orasidan **boychechaklar** bosh ko'tara boshladi.

Foydalanish uchun so'z birikmalari: kumush choyshab, qanotli do'stlar, g'azal mulkinging sultoni, zangori kema, o'rmon podshosi, qalbim quyoshi, yaylov bahodirlari, bahor elchilari.



3-topshiriq. Sport qachon, qayerda, qanday rivojlanganligi haqida bilganlaringizni qo'shgan holda matnni davom ettiring.

Sport qadimdan inson hayotida muhim o'rin tutgan. Qadimgi Misrda sportning ayrim turlari 4 ming yil avval mavjud bo'lganligi haqida ma'lumot bor. Qadimgi Sharqda hatto ayollarning har tomonlama bilimli, kuchli bo'lib yetishishlariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Har bir davlat boshlig'i, albatta, yetakchi sarkarda bo'lishi ham shart hisoblangan. Tarixda o'chmas iz qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur shunday hukmdorlardan edi.

❖ **4-topshiriq.** Gaplarni o‘qing va ma’nosini izohlang.

Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l.

Badantarbiya sog‘liqni saqlashda muhimdir.

Agar havoda chang va tutun bo‘lmasa, kishi ming yil yashagan bo‘lar edi.

Boylikning boshi – sog‘liq.

Sog‘lig‘ing boyliging.

❖ **5-topshiriq.** Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Hakam hushtak chaldi. 2. Futbolchi to‘pni zarb bilan tepdi. To‘p darvoza ustidan o‘tib ketdi. 3. Murabbiy yangi qoidalarini o‘rgatdi. Biz ularni tez o‘zlashtirib oldik. 4. Tennischilar to‘g‘risida bahs-munozara boshlandi. Men kechagi musobaqa natijalarini bilib oldim. 5. Ahror badantarbiya bilan muntazam shug‘ullanadi. Jamoa murabbiyi uni hujumchilar safiga qo‘shdi.

❖ **6-topshiriq.** Berilgan topshiriqni bajaring.

	Sport turi	O‘zbekiston sport iftixorlari		Sport turi	O‘zbekiston sport iftixorlari
					
					
					



Uyga vazifa. Savollarga javob yozing.

1. Sportning qanday turlarini bilasiz?
2. Qaysi sport turiga qiziqasiz?
3. Sportchi ayollardan kimlarni bilasiz?
4. Qaysi sportchiga o‘xshashni xohlaysiz?

2-dars



 **7-topshiriq.** «O‘zbek sporti ustalarini taniysizmi?» mavzusida bahs-munozara uyushtiring va namunadagidek dialog tuzing.

Namuna: Nodir, shaxmat bo‘yicha chempion bo‘lgan o‘zbek sportchisini taniysanmi?

– Bilaman, u Rustam Qosimjonov bo‘ladi. Jahonning eng kuchli shaxmatchilaridan hisoblanadi. Yaqinda dunyoning eng kuchli shaxmat ustalari musobaqasida qatnashadi. Men uning g‘olib bo‘lishiga ishonaman va Rustam Qosimjonov buni uddalaydi deb umid qilaman.

– O‘zing-chi, shaxmatga qiziqasanmi?

– Men tennisni yoqtiraman. Mashhur tennis ustalarining o‘yinini kuzatib boraman. Masalan, Denis Istominning mahorati va shiddatli o‘yinlariga qoyil qolaman.

 **8-topshiriq.** Matnni o‘qing va so‘zlab bering.

Markaziy Osiyo qadimdan alp, bahodir yigitlar yurti sifatida dovrug‘ taratgan. Bizning o‘lkamizdan Muqanna, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi kabi jahon tan olgan insonlar yetishib chiqqan. Sportning kurash, chavandozlik, qilichbozlik, nayzabozlik, dorbozlik kabi turlari nafaqat o‘g‘il

bolalar, hatto qiz bolalar orasida ham keng tarqalgan edi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda sportni rivojlantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Yurtimizda ko'plab sport inshootlari qurilmoqda. Qayerda sportga e'tibor katta bo'lsa, o'sha yerda salomatlik bo'ladi.

 **3-mashq.** Uch guruhga bo'linib, jadvaldan berilgan tasviriy ifoda birikmalarining o'z ma'nosini topib yozing.

Afsonaviy qush, aloqa vositasi, aqlli mashina, bahor elchilari, bilim bu-log'i, dengiz hokimi, ilm o'chog'i, insonning do'sti, ilm zahmatkashlari, izqu-var, kunchiqar mamlakat, ma'rifat maskani, yurtboshi, vatan posbonlari, po'lat ot, zangori olov, charm to'p ustalari, o'rmon malikasi.

Olimlar, archa, mashhur futbolchilar, traktor, askarlar, Yaponiya, tergovchi, maktab, it, gaz, qaldirg'och, kitob, kit, kutubxona, kompyuter, semurg', til, prezident.

 **4-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan tasviriy ifoda birikmalariga mos so'zlarni topib yozing.

1. O'zbek **charm to'p ustalari** Osiyo chempionatida birinchi o'rinni egal-lashdi. 2. **Ilm zahmatkashlarining** tinimsiz harakatlari natijasida tabiatning juda ko'p sir-sinoatlari ochildi. 3. Yurtimizda **ma'rifat maskanlari** ko'paydi. 4. Bolalar **yashil qit'aga** sayr qilishdi. 5. **Kunchiqar mamlakati** quyoshni bi-rinchi bo'lib qarshilaydi.

 **5-mashq.** So'zlarni o'qing va qatorni davom ettiring.

S – sog'lik, salomatlik,

P – poklik, polvon,

O – orastalik, oqillik,

R – rostgo'ylik, raqobat,

T – tezlik, tinchlik,

◆ **9-topshiriq.** Quyidagi sportchilar qaysi sport turida ishtirok etishini aniqlang.

Abdulla Tangriyev	?	Shaxmat
Rustam Qosimjonov		Futbol
Denis Istomin		Gimnastika
Oksana Chusovitina		Boks
Odil Ahmedov		Og‘ir atletika
Hasanboy Do‘smatov		Dzyudo
Ruslan Nuriddinov		Tennis

Uyga vazifa. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying va sport mavzusida o‘zingiz mustaqil gaplar tuzing.

1. Sport ... – garovi.
2. Sportchilar O‘zbekiston bayrog‘ini ... ko‘taradilar.
3. Sportning ... turini yoqtiraman, chunki

3-dars



Adabiy o‘qish

Tog‘ay Murod (1948–2003)

Iste’dodli adib Tog‘ay Murod 1948-yili Surxondaryo viloyati Denov tumanining Xo‘ja-soat qishlog‘ida dunyoga kelgan. O‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘idagi o‘rta maktabni tugatgach, Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan. U «Yulduzlar mangu yonadi», «Ot kishnagan oqshom», «Momo yer qo‘shig‘i», «Oydinda yurgan odamlar» qis-salari, «Otamdan qolgan dalalar» romanlarini yaratgan.



Adib o'zining ilk «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida o'zbek milliy kurashi haqida hikoya qilgan bo'lsa, «Ot kishnagan oqshom» qissasida uloqchi chavandozlar hayotini tasvirlagan. Undagi bosh qahramon Tarlon nomli ot timsolida bir olam insoniy ezgu tuyg'ularni tasvirlagan. Yozuvchi «Oydinda yurgan odamlar» qissasidagi bosh qahramonlar Qoplon bilan Oymomolarning farzand ilinjida o'tkazgan iztiroblarga to'la hayoti misolida insondagi ilohiy mehrni ulug'laydi. «Momo yer qo'shig'i»da esa ona zamindan ajralib qolgan, ona Vatanda yashab turib, el-yurt tuyg'usidan mahrum bo'lgan va oqibatda mustabid tuzum mafkurasi qurboniga aylangan ijodkor shaxs obrazini mahorat bilan umumlashtiradi.

Unga 1999-yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni berilgan.

Tog'ay Murod 2003-yilda vafot etgan.

Yulduzlar mangu yonadi

(qissadan parchalar)

Bo'ri polvon davradan xursand: janjal-araz yo'q. O'zini taroziga solmay olishyapti.

Ana, xo'jasoatlik Sadir polvon sho'rchilik Ro'zi polvonni yelkasidan oshirib urdi.

Ro'zi polvon o'rniga Maksim polvon degan chiqdi.

Sadir polvon:

– E, u sport masteri, chiqmayman, – deya turib ketdi.

Maksim polvon sambo kurashi bo'yicha sport ustasi ekani chin bo'ldi.

Bo'ri polvon xo'jasoatliklarga:

– Chiqinglar-da endi! – dedi.

Amir polvon:

– E, polvon bova, master sportga teng kep bo'ladimi? – dedi.

Davruga kirib, xo'jasoatliklarga ovoz berdi:

– Amir, Tilovberdini berman yubor! Tilovberdi, munda ke! – dedi.

Shunda, davraga Bo'ri polvonning o'g'li Tilovberdi chiqib keldi. Bo'ri polvon o'g'lini tirsagidan yetaklab, bakovul ro'parasiga o'tirg'izdi.

Sho'rchiliklar ko'nishga ko'ndi-yu, Maksim polvon rozi bo'lmadi.

– Tilovberdining vazni og'ir, chiqmayman, – dedi.

Bo'ri polvonning zardasi qaynadi.



– Nima, endi davraga taroziga tortib chiqaraylikmi? – dedi. – Ko‘rib turibsan, bo‘yi basti sendan ziyod emas, chiq ber-da! Chiq-e, ota-bovamız tarozisiz olishgan!

– E, chiq-e, Maksim-e, yiqilsang yer ko‘taradi-da! – dedi sho‘rchiliklar. Polvonlar fotiha olib ketdi.

Bo‘ri polvon ich-ichidan zil ketdi. O‘zi bilan o‘zi gapirishdi.

Biz polvonlik maktabida o‘qimadik. Polvonlik bizga otameros. Pushtdan pushtga, qondan qonga o‘tib kelyapti. Polvonlikning ko‘zga ko‘rinmas, til bilan tushuntirib bo‘lmas shunday sirlari borki, buni faqat tomirida polvonlik qoni borlarga biladi. Biz bilamiz!

Bu sirlar hech bir kitobda yo‘q!

Mana, mening o‘zim. Surxon vohasida mendan yiqilmagan polvonning o‘zi yo‘q! O‘sha maktab ko‘rgan sport masterlariyam yag‘rinimdan oshib ketdi!

Xalq nimasi bilan xalq?

O‘zining urf-odatları bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an‘analari bilan xalq! Ko‘p urf-odatlarimizni birovlar... birovlar o‘ziniki qilib oldi!

Shunday keta bersak, hademay... o‘zimizni-da boy berib qo‘yamiz!

Bu yog‘i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo‘q qildik. ...Sariosiyodagi o‘sha davrada Bo‘ri polvonga teng topilishi qiyin bo‘ldi. Davra egalari talvasada qoldi.

Bordi-yu, Bo‘ri polvonga talabgor bo‘lmasa, sariosiyoliklar denovliklardan qoyil bo‘ldi, bo‘ladi. O‘z uyida qoyil bo‘lish, mag‘lub bo‘lishdan-da yomon bo‘ladi!

Shunda, davraga yoshgina bir yigit chiqib keldi. Bo‘ri polvonga talabgor bo‘ldi.

Davra egalari shundagina yengil nafas oldi.

Bo‘ri polvon yosh polvonga mensimay-mensimay qaradi.

Bo‘ri polvon bilan Ismoil otli bu yosh polvonga bir g‘unajin, yana bir qancha mayda zotlar qo‘yildi.

Bo‘ri polvon Ismoilni ko‘zga ilmay-ko‘zga ilmay davra aylandi. «Tayyor osh-ku»... – deya o‘zidan ketdi.

Oqibat... Bo‘ri polvon... Polvon nomini olgandan buyon umrida birinchi marta yelkasi yer ko‘rdi!

Qanday yiqildi – o‘zi-da bilmadi!..

Ko‘zlarini ochsa... osmon to‘la yulduz bo‘ldi!..

Bo‘ri polvon yelkasi yerga tekkani elga yoyildi. Bo‘ri polvon nomi bilan g‘ururlanib yurmishlar ichi achiy-achiy bosh chayqadi.

Bo‘ri polvon el orasida bosh ko‘tarolmay qoldi. Uyidan ko‘chaga chiqmay qoldi.

Keyin, o‘sha yosh polvonni ta‘qib etib boshladi. Qayerda to‘y bo‘lsa, poylab bordi.

Ammo yosh polvon Bo‘ri polvon nomini eshitiboq, rad qila berdi. Ismoil otli bu yosh polvon dovrug‘i butun vohaga yoyildi.

Kimsan – Bo‘ri polvon yelkasini yerga tekkizgan Ismoil polvon!

Ismoil polvon bu nomni umrbod saqlab qolmoqchi bo‘ldi. Shu bois, Bo‘ri polvon davraga kelibdi, desa bo‘ldi, indamay ketib qola berdi.

Bo‘ri polvon Ismoilni tinmay ta‘qib eta berdi. Bo‘ri polvon davralarga o‘ziga xos dabdaba bilan bordi. Ismoil Bo‘ri polvonni ko‘rdi. Davraga chiqmadi.

U endi mug‘ambirlik yo‘liga o‘tdi.

Termizda bo‘lmish bir to‘yga juda kech bordi. Mashina kabinasida davraga qarab o‘tirdi.

Davra oxirida bakovullar boshqa katta polvon yo‘q, deyishib, kimsan, Bo‘ri polvonday polvon yelkasini yerga tekkizgan Ismoil polvonga jar soldi.

Ismoil polvon davrani bir aylanib, o‘zini ko‘rsatdi.

Xuddi shu vaziyatni ikki oydan buyon angg‘ib yurmish Bo‘ri polvon kabinadan sakrab tushib, davraga kirdi.

Ismoil polvon arosatda qoldi.

Chiqayin desa – Bo‘ri polvon, chiqmayin desa – bakovul jar solib bo‘ldi.

Bo‘ri polvon davraga kirdi.

Ismoil polvon-da sakrab davraga tushdi.

Polvonlar bir-biriga quloch otib kela berdi!

Bo‘ri polvon Ismoil polvon yoqasidan ushlab, ichidan chil berdi. Jon-jah-di bilan ketiga burdi. Shunday shiddat bilan burdiki, Ismoil polvon o‘zini o‘ngga-da, chapga-da ololmadi.

Bo‘ri polvon g‘oyatda tezlik bilan chilini chiqarib oldi. Chap oyog‘ini yoniga to‘shadi. Ismoil polvonni davra o‘rtasiga sermab yubordi.

– Yo, otam!.. – deya hayqirdi.

Ismoil Bo‘ri polvon to‘g‘onoq oyog‘i ustidan oshib, davra o‘rtasiga chalqancha tushdi!

Ismoil polvon yulduz sanadi!..



Lug‘at

chalqancha – на спине, вверх лицом

sarqit – здесь: пережиток

talabgor – желающий

mug‘ambir – лукавый, хитрый



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Bo‘ri polvon mehmonlar oldida nima uchun izza bo‘ldi?
2. Bo‘ri polvon kurashda yutqizishining sabablari nimada?
3. Ismoil nimaga Bo‘ri polvondan qochib yurdi?
4. Bo‘ri polvon qanday qilib maqsadiga erishdi?



Uyg‘a vazifa. «Yulduzlar mangu yonadi» qissasini o‘qing.

13-mavzu. O‘zbekistonda turizm (Nutq uslublari. So‘zlashuv uslubi)

1-dars



◆ 1-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar asosida suhbatlashing.

O‘zbekiston qadimiy tarixiy shaharlari, boy me‘moriy obidalari bilan jahonga mashhur. Mashhur Buyuk ipak yo‘li ham O‘zbekiston hududidan o‘tgan. Keyingi yillarda respublikamizga keluvchi soyyohlarning soni borgan sari ko‘paymoqda va turizm sohasi rivojlanmoqda. O‘zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi olib boradi. Qo‘mitaning asosiy vazifasi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib, zamonaviy turistik kompaniyalarni barpo etish, yangi sayyohlik yo‘nalishlari ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat. Turizm sohasiga munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, sayyohlar va sayyohlik faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilingan.



Lugʻat

soha – отрасль

kengaytirmoq – расширять

sarmoya – денежные средства

jihatdan – в этом отношении

yoʻnalish – направление

munosabat – отношение

manfaat – польза, благо



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Turizm deganda nimalarni tushunasiz?
2. Oʻzbekistonda sayyohlikni rivojlantirish uchun nimalar qilish mumkin deb oʻylaysiz?
3. Oʻzbekistonda sayyohlarni qiziqtiradigan qanday maskanlar bor?



Bilib oling!

Adabiy tilda 5 xil nutq uslublari bor: soʻzlashuv uslubi, badiiy uslub, publitsistik uslub, rasmiy uslub va ilmiy uslub. Har bir nutq uslubining oʻziga xos xususiyatlari va qoʻllanish oʻrinlari bor. Uyda, koʻchada, insonlarning oʻzaro soʻzlashuvida qoʻllanadigan uslub **soʻzlashuv uslubi** deb ataladi. Bu uslubning adabiy til meʼyorlariga rioya qilinadigan koʻrinishi adabiy soʻzlashuv uslubi deb yuritilsa, bunday meʼyorlarga rioya qilinmaydigan koʻrinishi jonli soʻzlashuv uslubi deb ataladi. Jonli soʻzlashuv uslubi erkin uslub, unda shevaga hos soʻzlar ham qoʻllanadi. Soʻzlashuv uslubidagi nutq koʻpincha dialog shaklida boʻladi.



1-mashq. Berilgan gaplarni oʻqing. Soʻzlashuv uslubiga xos boʻlgan soʻz va iboralarni aniqlang.

1. – Hoy chiptachi, ma, bitta chipta ber! – dedi Qumri xola. 2. Avtobus Oqqoʻrgʻonga boradimi? – deb soʻradi otaxon. 3. – Bizziyam apketing, – dedi qoʻl siltab Mehri. 4. Salima: «Yu-u-r!» – deb bolasining qoʻlidan ushlab avtobusga chiqardi. 5. Obbo! Hamma ishni doʻndiribsiz-da. 6. Mazza qilib ariqda choʻmildik. 7. Anvar aka hammani toʻyga chaqirdi. 8. «Oldingi gaplarni unut», – dedi Dilbar xola. 9. Baland ovozda: «Rahmat, kattakon!» – dedim.



2-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. So‘zlashuv uslubiga oid so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan daftaringizga ko‘chiring.

1. Ana huv-v adirning nariyog‘ida Ko‘kabuloq qishlog‘i bor. 2. Ha, og‘zing qulog‘ingda, haqqingni oldingmi? 3. U og‘zidagi oshini oldirib o‘tiradigan anoyilar nusxasidan emas. 4. Maktabimiz o‘quvchilari hasharda binoyiday ishlashdi. 5. Salima kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun pulini uzatib: «Beshinchidan ikkita», – dedi. 6. Hammasi ham mayli-ya, bolam, burnog‘i yilgi ish sira-sira esidan chiqmadi. 7. «Ketaaaa qool», – deb Solijon bolaga ishora qildi. 8. Misol uchun, Naziraxon sayyohlarga qishlog‘imiz tarixini gapirsa, ular O‘zbekistonda shunday joy bor ekan, deb ko‘rgani kelishadi, – dedi mahallamiz oqsoqoli. 9. «Iye, iye, ana xolos, kap-katta bola-ya» – qo‘liga ko‘tarib ovuta boshladi.



2-topshiriq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Intizomsiz kishi hech qayerda muvaffaqiyatga erisha olmaydi. 2. Har yerda va har qachon ilm kerak. 3. Aqldan ortiq boylik yo‘q. 4. Odamning yuzi oftobdan issiq. 5. O‘zing o‘tirgan shoxga bolta urma. 6. Dunyoda shunday aziz bir inson borki, biz undan hamisha qarzdormiz.



3-topshiriq. Maqollarni o‘qing, mazmunini tushunib oling. Maqollarni yod oling.

Bilim – baxt belgisi.

Haqiqat egiladi, lekin sinmaydi.

Maqtanchiq – bekorchiga o‘yinchoq.

Shirin so‘z – asaldan shirin.



Uyga vazifa. Obbo, kep qoling, ketaqol so‘zlari ishtirokida so‘zlashuv uslubiga oid gaplar tuzing.

2-dars



4-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing. O‘zingiz ham suhbat tuzing.

- Aziza, ta’til kunlari qayerlarga bording?
- Samarqand shahriga bordik. Akam o‘sha yerda o‘qiydilar.
- Sayohating o‘zingga yoqdimi?
- Ha, albatta, Registon maydonini va yana ko‘p joylarni tomosha qildim. Mirzo Ulug‘bek, Sherdor madrasalari juda chiroyli qurilgan.
- Ayt-chi, bu madrasalar asl holida saqlanganmi yoki qayta ta’mirlanganmi?
- Bu madrasalar asl holicha saqlanib qolgan, mustaqillik yillarida esa ta’mirlangan. Atrofi obodonlashtirilib, gul va ko‘chatlar o‘tqazilgan. Dam olish joylari ham shinamgina.
- U yerda sayyohlarni ko‘rdingmi?
- Ha, Sharq mash’ali Samarqandni tomosha qilish uchun butun dunyodan sayyohlar kelishgan. Men ular bilan shahrimiz haqida ingliz tilida gaplashdim.

❖ 5-topshiriq. Matnni o'qing va matn asosida savollar tuzing.

O'zbekistonda ko'plab sayyohlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan mehmonxonalar soni tobora o'sib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi sayohat qilish turiga qarab, quyidagi sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqqan. Birinchi yo'nalish: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva. Ikkinchi yo'nalish: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz. Bu yo'nalishlar eng qadimiy yodgorliklarga va boshqa madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq. Ekologik turizm yo'nalishi Chimyon, Chortoq dam olish va davo-
lanish oromgohi, Zomin qo'riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalarni o'z ichiga oladi.



Lug'at
imkoniyat – возможность
yodgorlik – памятник, реликвие
madaniy – культурный

obida – памятник старины
qo'riqxona – заповедник



Bilib oling!

So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi. Piching, kinoyalar ishlatiladi. Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Masalan: Kep, qoling! Obbo, mashg'ulotga kech qoldingiz-ku!



3-mashq. So'zlashuv uslubiga xos bo'lgan gaplarni ko'chirib yozing.

1. «Bezovta bo'lmang, ustoz, hamma aytganlaringizni bajaramiz», – dedi Sardor. 2. O'zbek xalq me'morchiligining shuhrati butun jahonga tanilgan. 3. Komil, qani, yugur uyga. Opangni opkegin baqqa. 4. Ona quyosh, uning mehr-tafti hech qachon so'nmaydi. 5. Esim qursin, ustozim bergan topshiriqlarni unutibman-a. 6. O'qish insonni ulug'laydi, buyuk kashfiyotlarga yo'l ochadi. 7. Hayronman senga, ukaginam, oddiy ertakni ham o'qiy olmay-san. 8. Ayting-chi, bu masjid asl holida saqlanganmi yoki qayta ta'mirlanganmi?



4-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘zlarni toping va izohlang.

1. General Olimov qiziqib so‘radi: «Mutaxassisligingiz qanday? Albatta, foydalanamiz». 2. «Akkumulatori o‘lgan, uni bir kun tokka qo‘yish kerak», – dedi haydovchi. 3. «Ja zarur, Buxoroga shu mashinada ketaman», – dedi yo‘lovchi. 4. Keldingizmi, tog‘a? Ahvolingiz durustmi? 5. «To‘xta, beri kel. Manovi kitoblarni o‘qi», – dedi buvim va qo‘limga bir nechta kitobni tutqizdi. 6. «Endimi, bugun bu masala hal bo‘ladi», – dedi Komil. 7. «Islom uka, rahmat sanga, endi biza dars qilamiz», – dedi Salima. 8. «Shoshma, Aziz, bunaqa balandparvoz gaplarni qo‘y, sal pastroq tushib gapir», – dedi bobo nabirasiga.



6-topshiriq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Qalb salomat bo‘lsa, aql ham, fikr ham salomat bo‘ladi. 2. Sen bormasang, men bir o‘zim u yerda nima ham qildim. 3. U shunday tez gapirdiki, hech kim e‘tiroz bildira olmadi. 4. Shahrimizga har yili minglab sayyohlar kelishadi. 5. O‘zbekistonda chiroyli joylar ko‘p. 6. Men kitobni bir kechada o‘qib bitirdim. 7. Men bugun kutubxonaga bormoqchiman.



Uyga vazifa. «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat» mavzusida kichik matn tuzing.

3-dars



Adabiy o‘qish

Shukrullo (1921)

O‘zbekiston xalq shoiri va dramaturg Shukrullo (Shukrullo Yusupov) 1921-yili Toshkentda tug‘ilgan. Dastlabki ta‘limni olgach, pedagogika bilim yurtida, so‘ngra Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida o‘qigan. U turli gazeta va jurnallarda, badiiy adabiyot nashri-



yotlarida ishladi, o'qituvchilik qildi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'ldi. Shukrullo dramaturg sifatida ham qalam tebratib keladi. Uning «Xatarli yo'l», «Tabassum o'g'rilari» dramalari respublika teatrlari sahnalarida namoyish etilgan. Shukrullo «Javohirlar sandig'i», «Kafansiz ko'milganlar» xotira romanlarini yozgan. Shukrullo bolalar uchun ham asarlar yaratgan. Uning «Bahor sovg'asi», «Yulduzlar» kabi she'riy to'plamlarida bolalarning ichki dunyosi, orzu-istaklari, do'stlik, Vatanga bo'lgan muhabbat, ona tabiat tasviri yetakchilik qiladi.

Qabr toshi

Onasi o'lganda yetib kelmadi,
Hatto yo'qlamadi tirigida ham.
Pul va shuhrat uchun qancha kezmadi,
Ne-ne shaharlarni bu ayanch odam.

Bugun elni yig'ib ko'tardi faryod,
Marmardan xotira qo'ydi qabriga.
Ona tirigida qilolmagan yod,
Nahot endi yetdi uning qadriga.

Afsus, ona nomin ko'z ham ilg'amas,
O'zin ismiga-chi, berilgan zarhal.
Buni ham onaga mehridan emas,
O'zin shuhratiga qo'yibdi haykal.

Og'ir kunlar sevinchi

(hikoya)

... Bir qo'limda ichiga ikki-uch kilo jiyda, toshchoy, gugurt, turshak solingan xalta, bir qo'lda hassa, ustimda telogreyka, Chirchiq stansiyasidan kechki dachniy poyezdiga o'tirib, Qozog'istonning Sarjilg'a razyezdidagi qozoq ovuliga jo'nayman. Oyoq-qo'lim soppa-sog' bo'lsa-yu, nega qo'limda hassa? Gap shunda! Bu hassa faqat ovuldagi itlardan qo'riqlash uchun-gina emas, boshqa vazifasi ham bor edi. Bu hassa meni balo-ofatlardan asrardi...

Toshkentga kelgunimizcha ne-ne azoblarga duchor bo'lmasdik. Lekin ikki-uch kunlik non puliga yetarli chiqqan foyda, hamma mashaqqatlarni

unuttirib yuborardi. Eson-omon narsalarimizni uyga yetkazib olgach, quvonchdan kechirgan mashaqqatlar unutilardi. Oradan biroz o'tgach yana «yo huv» deb safarga otlanardik. Axir, uyingda nondan boshqa yeydigan narsa bo'lmagan zamonda, ikki-uch kun yemay, och o'tirib ko'r, holing ne kechadi!

Bu gaplarimni eshitganlar orasida «taglaring shunchalar past, gado darajasida bo'lganmi?» deb bolalarimga ta'na qiluvchilar ham topiladi, aytmay qo'yaqolay deyman-u, ammo o'sha davrni eslaganimda nuqul Oybek aka ko'z oldimga keladi. Oybekdek buyuk yozuvchining kechirgan kunlarini o'ylasam, uning oldida meniki nima bo'пти deyman!

Oybek akaning rafiqasi Zarifa opa:

– «Ortiqcha kiyim-boshimiz yo'q. Kiyilgan bir palto, bir kastumdan ortig'i bo'lmas edi, bizda. Shundan boshqa sotishga arziqli narsamiz bo'lmagani uchun eski-tuski nimalarnidir yig'ib Oybek aka Qarshiga jo'nadilar. U yerda besh-olti kun turib eski kiyimlarni un, yog'ga almashtirib keldilar...» – deb yozgan edi.

Oybek aka eski-tuskini don-dunga almashtirish uchun Qarshiga (Qashqadaryoga) jo'nagan vaqtlarda, men choy, turshak, jiyda ko'tarib don-dunga almashtirgani Qozog'istonga opalarim bilan jo'naganman.

Menda, bizning uyimizda almashtiradigan narsa ham qolmagan edi. Bu yo'qchilik edi. Ammo ocharchilik, ochlik nima?! Ochlik shuki, og'izga soladigan bir burda nondan boshqa hech narsa, mol, bisot ko'zga ko'rinmay qoladi.

Ochlik...

Toshkent shahrining Eski Jo'va bozoriga kiraverishdagi binoning tagida oyoq-qo'llari shishib, ko'zlari o'qrayib qolgan qator tilanchilar o'tirardi. Holsizlikdan ovoz chiqarib sadaqa so'rashga ham tillari kelmay qolgan. Bugun men ko'rgan gadoylarning ko'plari ertaga uvadasi chiqib ketgan kiyimlarining ustini qor bosib, sovuqda qotib o'lib yotgan bo'lardi.

Bir kecha yodimda, – deydi, Zarifa opa, Oybek yozib o'tirardi. Men ham yozibmi, o'qibmi o'tirardim.

Oybek:

– Zarifa, qornim och, juda ochiqdim, – deb qoldi.

Men nima deyishni bilmayman, indamadim, darhol javob qilolmadim. Negaki, uy qup-quruq edi.

– Biror narsa yo'qmi? – so'radi Oybek.

Oʻrnimdan turib shkafni axtardim. Hujradagi xurmacha, xaltalarni tekshirdim. Bir hovuch yirik kepak, bir-ikki qoshiq shakar topdim, soʻng xurmachani sidira-sidira bir qoshiq yogʻ oldim.

Primusda kepakni qovurib, soʻng unga shakar aralashtirib, dasturxonga tortdim. Bilmadim, bu qanday taom boʻldi ekan? Nomi menga ham nomaʼlum boʻlgan bu taomdan Oybek bir-ikki marta qoshiq uchida olgan boʻldi. Soʻng «Sen ham yegin», deb meni qistadi.

– Yoʻq, ochiqmadim. Oʻzingiz yeyabering, – dedim unga.

Men ham och edim, hech narsa yoʻq edi, faqat qanoat bor, xolos!

Oybek ozgina yedi. Ozginasini qoldirib, dedi:

– Ertalab bolalarga berarsan.

Bilmadim, bemazalikdan yeya olmadimi yoxud bolalarga ilinib, to-mogʻidan oʻtmadimi?...»

Bu alamlarga, bu azoblarga oʻsha yillari odamlar qanday chidadi!

Oʻsha ochlikning bir kunini bugun tasavvur qilib koʻraylik. Bir kun, ikki kun och qolib koʻraylik.

Bir kun emas, bir yil emas, yillab bu ocharchilik, bu xoʻrliklarda nima ularni suyadi?! Nimaga orqa qilib yashadi?

Qoʻshnim oʻz farzandini urushga joʻnatayotganda, omon qaytsin deb bit-ta nonni tishlatib olib qolgan. Uyning devorida hamon osigʻliq oʻsha nonini och boʻlsa ham ona yemadi. Ha, yemadi!

Ona oʻrnida biz boʻlsak-chi, balki!.. Ha, u ulugʻ! Sabrli ona!



Lugʻat

xalta – мешок

koʻz oldinga – перед глазами

eski-tuski – старье, хлам

don-dun – зерновые продукты

uvada – тряпье, лохмотья

ochlik – голод

xoʻrlik – унижение

qanoat – довольство



Matn yuzasidan savollar:

1. Hikoyada qaysi davr tasvirlangan?
2. Sabr-qanoat deganda nimani tushunasiz?
3. Matn yuzasidan fikr-mulohazalaringizni ayting.



Uyga vazifa. «Qabr toshi» sheʼrini yod oling.

14-mavzu. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayohat (Badiiy uslub)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

– Bizning ko‘chamiz Buyuk ipak yo‘li deb nomlangan. Bu nimani anglatadi? Vatanimiz xalqlari tarixida Buyuk ipak yo‘li katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bronza davrida ham hududlarni bog‘lovchi yo‘llar bo‘lgan.

– Ha, men ham bilaman. Miloddan avvalgi V asrlarda, Eron ahamoniylar saltanati davrida uning hududini bog‘lab turuvchi «shoh» yo‘li bo‘lgan.

– IX–X asrlarda karvon savdosi Janubi-Sharqiy Yevropani Markaziy Osiyo, Eron va Kavkaz orqali Mo‘g‘uliston va Xitoy bilan bog‘lagan.

– Rus savdogarlari Markaziy Osiyoning kumush pullarini yaxshi ko‘rishgan. Shosh viloyati o‘rta asrlarda chekka o‘lkalarga charmdan ishlangan buyumlar, ot terisidan ishlangan egarlar, qog‘oz va g‘alla chiqargan. Shu viloyatga qarashli Iloq konlaridagi kumushning dovrug‘i butun Yevropaga mashhur edi.

– Buyuk ipak yo‘li o‘rta asrlarda Sharqdan G‘arbgacha ulkan savdo yo‘li bo‘lgan.

◆ 2-topshiriq. Matnni o'qing va matn asosida savollar tuzing.

Buyuk ipak yo'li qadimda va o'rta asrda Sharq va G'arb mamlakatlarini ilk bor o'zaro bog'lagan qit'alararo karvon yo'lidir. Mamlakatlar o'rtasida qimmatbaho mahsulotlar, savdo-sotiq ishlari, xitoy ipagi Buyuk ipak yo'li orqali olib borilgan. Markaziy Osiyo va Yevropada o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman savdogarlarini millatidan qat'i nazar bir nomda «Musulmon savdogarlari» deb atashgan. Xitoyda musulmon savdogarlari molni molga ayirboshlashsa, Yevropada ularning kumush tangasi pul bo'lib ham, tovar bo'lib ham xizmat qilgan. X asrda savdo-sotiqda cheklar qo'llanilgan. Pul muayyan shaharda savdogarlarning ishonchli kishisi – sarrofga berilib, undan tegishli hujjat – chek olingan.

«Qutadg'u bilig» asari muallifi Yusuf Xos Hojib Bolasog'unliy savdogarlarning jamiyatdagi o'rnini ta'riflab: «Agar karvonlar savdo qilmay qo'ysalar, sen o'n minglarcha qimmatbaho narsalarni qayerdan olasan? Savdo ahllari bilan chiqish, ularga o'z eshigingni ochib qo'y», – degan edi.



Lug'at

qit'alararo – межконтинентальный
ayirboshlash – обмен

ishonchli – надёжный
savdogar – торговец, купец



Bilib oling!

Voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiradigan, badiiylikka, ifodalilikka, ta'sirchanlikka boy bo'lgan uslub **badiiy uslub** deb ataladi. Badiiy uslubda yoziladigan asarlar quyidagi turlarga bo'linadi: nasr – proza janrida yoziladigan, nazm – she'riy va dramatik asarlar. Bunday asarlarda uslubiy bo'yoqdor va ko'chma ma'noli so'zlar ko'p qo'llanadi.



1-mashq. Gaplarni o'qing va yozing. Gaplarning qaysi uslubda yozilganligini aniqlang.

1. Asrlarning so'kib chokini,
Ko'zlarimga surib hokini.
Tarixlarni bir-bir titurman,
Afsonalar topib biturman.

Oybek

2. Zamaxshariyning o‘lmas asarlari unga shuhrat keltirdi. 3. Bahor keldi, daraxtlar bezandi. 4. Osmonda rang-barang kamalakning yoyi ko‘rindi. 5. O‘rmonlarni yashil boylik deb atash mumkin. 6. Atirgulni gullar malikasi deyishadi. 7. Butun tabiat porlab turgan quyoshga kulib boqdi. 8. Ko‘lning suvi tip-tiniq oynaday yaltiraydi. 9. O‘lkamizga fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor o‘z sepini yoydi.



2-mashq. Nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozing. Uslubiga e‘tibor qarating.

1. Suv uzoq-uzoqlarga boradi. 2. Sigir ko‘p pichan, o‘tni sevib 3. Qishda daraxtlar o‘raladi va xayol surib turganday tuyuladi. 4. Kutubxona – nurxona. Kitoblar inson umrining ... o‘tishiga, ... bo‘lishiga yordam beradi. 5. Kuzda qushlar bu joylar bilan ... janubga yo‘l oladilar. 6. Bobomiz Alisher Navoiyning ... bag‘ishlab, «Kitob bilim manbayi» mavzusida kitobxonlik kechasi o‘tkazildi. 7. Ibrohim bu yil Norin daryosini ko‘rishga 8. Bulutlar bo‘linib, ular orasidan quyosh socha boshladi.

Foydalanish uchun so‘z va so‘z birikmalari: muyassar bo‘ldi, hayot olib, yeydi, ilmi, sermazmun, xayrlashib, tavalludiga, zarrin nurlarini, oq kiyimga.



3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbek tilini qachondan beri o‘rganasiz? 2. O‘zbek tilidan birinchi o‘qituvchingiz kim bo‘lgan? 3. O‘zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz? Yozuvchilardan-chi? 4. Siz o‘zbek tili darsida nimalar qilasiz?



4-topshiriq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko‘rki bosh bilan. 2. Kim birovga chuqur qazisa, unga o‘zi yiqiladi. 3. Dangasaga ish buyursang, aql o‘rgatadi. 4. Yigit kishiga qirq hunar oz. 5. Gapni kam so‘zla, ishni ko‘p ko‘zla.



Uyga vazifa. Badiiy uslubga 4 ta gap tuzing.

2-dars



 **5-topshiriq.** Suhbat matnini o'qing. Rasm asosida suhbatlashing.

- Buyuk ipak yo'li degan nom qayerdan paydo bo'lgan?
- Miloddan avvalgi II asrda paydo bo'lgan bu yo'lga ipak yo'li degan nom 1877-yilda nemis geografi F. Rixtgoften tomonidan berilgan.
- Buyuk yo'lining uzunligi necha kilometr bo'lgan?
- Buyuk ipak yo'li 12 ming kilometrgacha uzunlikda bo'lgan. Bu yo'ldan Hindistondan Markaziy Osiyo hududlariga ip gazlama va paxta chigiti olib kelingan. Xitoydan guruch keltirilgan. Osiyodan Xitoyga uzum, yong'oq, anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari tashilgan. Xitoyga Farg'ona otlaridan, beda urug'idan olib ketilgan.
- Buyuk ipak yo'lining ahamiyati nimada?
- Bu yo'l orqali Sharq va G'arb xalqlarining madaniy aloqalari va savdo ayirboshlash ishlari olib borilgan. O'zaro hamkorlik va madaniyatlar boyib borgan.

 **6-topshiriq.** Matnni o'qing va savollarga javob bering.

Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk ipak yo'li tufayli Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo'lganlar. G'arb mamlakatlari xalqlari esa Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o'zlari uchun kashf qildilar. Markaziy Osiyo aholisi Xitoy shoyisini qadrlasa, Xitoyda Osiyo gilamlari, jun gazlamalari, hunarmandchilik buyumlariga talab katta bo'lgan.

Buyuk ipak yo‘li Sharq va G‘arb mamlakatlari xalqlarining o‘zaro madaniy aloqalaridan bahramand bo‘lish imkonini berdi. Markaziy Osiyo bu yo‘lning asosiy yo‘nalishlari kesib o‘tadigan markazga aylangan. Bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va musiqa-chilar tashrif buyurar edi. Buyuk ipak yo‘li sharofati bilan Markaziy Osiyo xalqlari G‘arb va Sharqning iqtisodiy va madaniy yutuqlari bilan tanishdilar.



Matn yuzasidan savollar:

1. Buyuk ipak yo‘lining ahamiyatini aytib bering.
2. Buyuk ipak yo‘li orqali qanday karvonlar o‘tgan?



Bilib oling!

Badiiy uslub **aralash uslub** hisoblanadi. Chunki bu uslubda so‘zlashuv va kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga timsollar vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi.

Masalan: Kumush qish o‘z o‘rnini fasllar kelinchagi bahorga bo‘shatib berdi.



3-mashq. Berilgan so‘zlarni quyidagicha ajratib yozing.

Kitobiy uslub:

So‘zlashuv uslubi:

Janjal, to‘polon, mojaro, g‘alva, g‘avg‘o, mashmasha, iste’mol qilmoq, totmoq, yemoq, tanovul qilmoq, olmoq, tushirmoq, umrbod, toabad, hijron, ayriqliq, valdiramoq, gapirmoq, aloqador, taalluqli, tegishli, ayol, xotin, aylanmoq, sayr etmoq, avvalgi, oldingi, ilgari, burungi, adabiy, mangu, umrbod, avaylamoq, ayamoq, ehtiyotlamoq, e‘zozlamoq, ardoqlamoq.



4-mashq. Gaplarni o‘qing. Badiiy uslubga xos bo‘lgan so‘zlarni toping.

1. Ilk bahor. Daraxtlar uyg‘onib kurtak yoza boshladi. 2. Havo sof va salqin. 3. Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayot-

dir. 4. Bobodehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. 5. Hushyor bo'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. 6. Onaga – eng ulug' zotga ehtirom chinakam insoniylik sanaladi.



7-topshiriq. Hikmatni o'qing va savollarga javob bering.

Mashhur donishmand Buzurgmehrdan: «Insof nima»? deb so'radilar.

– Insof odam o'ziga nimani ravo ko'rsa, boshqa kishiga ham shuni ravo ko'rishidir, deb javob berdi Buzurgmehr.

– Eng yaxshi odam kim?

– Aqlli odam.

– Qanday kishini aqlli odam desak bo'ladi?

– Aqlli odam o'ylamasdan biror ishga kirishmaydi.

– Bilimni qanday narsa bezaydi? Shijoatni-chi, saxiylikni-chi?

– Bilimni to'g'rilik, shijoatni afv qilishlik, saxiylikni ochiq yuzlilik va shirino'zlik bezaydi.

– Insonning hayotda eng muhim orzu-tilagi nimalardan iborat?

– Sihat-salomatlik, farovon turmush va xotirjamlik.



Lug'at

insof – честность, совесть

afv qilmoq – прощать, помиловать

shijoat – храбрость, смелость

saxiylik – щедрость

ravo ko'rmoq – считать (что-л)

дозволенным, допустимым

xotirjamlik – спокойствие,

душевный покой



Matn yuzasidan savollar:

1. Insof, to'g'rilik, saxiylik, shijoat so'zlariga izoh bering.

2. Aqlli odam deganda kimni tushunasiz?



8-topshiriq. Maqollarni o'qing va mazmunini izohlang.

1. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi. 2. O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir. 3. Ko'pni ko'rgan ko'p biladi. 4. Ona bilan bola – gul bilan lola.



Uyga vazifa. O'zingiz yoqtirgan kitobdan badiiy uslubga xos bo'lgan gaplarga misollar yozib keling.



Adabiy o'qish

Herman Hesse (1877–1962)

XX asr nemis adabiyotining ulug' namoyandaligidan biri, Nobel mukofoti sohibi Herman Hesse (*nem. Hermann Hesse*) eng ko'p mutolaa qilinadigan olmon adiblaridan biridir. U 1877-yilning 2-iyulida Germaniyaning Baden-Vyurtemberg zaminidagi Kalv shaharchasida dunyoga kelgan.

Adibning ko'plab roman, qissa, hikoyalari, she'rlari, siyosiy, adabiy-tanqidiy ruhdagi asarlari chop etilgan. Ular orasida, ayniqsa, «Cho'l bo'risi», «Marjonlar o'yini», «G'ildiraklar ostida», «Demian» kabi asarlari alohida dovrug' qozongan. Munaqqidlar tomonidan «Romantizm oqimining so'nggi jangchisi» deb ta'riflangan adib 60–70-yillarda dunyoda eng ko'p o'qilgan nemis yozuvchisi hisoblanadi.

Adib 1962-yil 9-avgustda vafot etgan.



Cho'l bo'risi

(*hikoya*)

Farangiston tog'larida hali hech qachon bunday qahraton qish bo'lmagan va bunchalik uzoq cho'zilmagan edi.

Tevarak-atrofda yashovchi jonivorlar uchun ham og'ir davr boshlangan edi. Maydaroqlari to'p-to'p bo'lib muzlab qolar, qushlar ham qahraton qish sovug'iga dosh berolmay halok bo'lib, qirg'iy va bo'rilarga yem bo'lardi. Biroq ayoz va ochlikdan barchaning sillasi qurigan edi. Bo'rilarning ham juda ozginasi omon qolgan, kulfat ularni bir-biriga yanada jipslashtirgandi. Kunduzlari yemish topish ilinjida ular yakka-yakka izg'ir edilar.

Shamolda bir nimani sezdimi, o'tkir tumshug'ini cho'zib, tinka-madori qurib, qisqa-qisqa uvlab qo'yadi. Kechalari ular gala-gala bo'lib ovga chiqar,



bo'g'iq uvillab, qishloqlar atrofida izg'irdi. U yerlarda mol va parrandalar og'illarga mahkam berkitilgan, derazalarning dar-chalariga ov multiqlari suwab qo'yilgandi. Onda-sonda itmi, shunga o'xshash may-da o'ljani hisobga olmaganda ahvol tang, shundog'am gala ichidan ikki bo'ri otib o'ldirilgan edi.

Nihoyat, galaning chog'roqqina qis-mi yo'lga otlanishga ahd qildi. Erta tong-da uyalarini tark etib, bir yerga to'plan-

gan bo'rilar sovuq havoni bezovta ishay boshladi. So'ng chamasi baravar qo'zg'aldi. O'rta qolganlar oldindagilar ketidan ancha joygacha ergashib chopib bordi, so'ng ikkilanib to'xtab, ularga majolsiz qarab turgach, sekin in-iniga qaytdi.

Yo'lda borayotganlar qiyom payti bir-birlaridan ajraldilar. Uchtasi sharq tarafga – Shveysariyaning Yura tog'lari tomon, qolganlari esa janubga qarab ketdi. Uchala bo'ri kelishgan, kuchli, biroq tashnalikdan nihoyatda ozib-to'zib ketgan edi. Oqimtir qorinlari kamardek tortilgan, qovurg'alari ayanchli tarzda turtib chiqqan, halqumlari quruqshab, ko'zlari ma'yus va tushkun boqardi.

Uchovlon Yuraga yetib borgandan so'ng ikkinchi kuniyoq bitta qo'y, uchinchi kuni esa it bilan qulunni o'lja oldi, bundan darg'azab bo'lgan qish-loq aholisi yirtqichlarni har tomondan ta'qib qila boshladi. Chor atrof-dagi qishloqlar va shaharchalarda vahimali gap-so'zlar tarqaldi.

Bo'rilar kim o'ldirsa, unga mukofot e'lon qilingan, bundan dehqonlar jasoratiga jasorat qo'shilgandi. Ular shu zahoti ikki bo'rini tinchitishdi, biri-ning bo'g'ziga ov miltig'idan otilgan o'q tekkan bo'lsa, boshqasini oybolta bilan bir yoqlik qilishdi. Uchinchisi chap berib qochib qoldi, joni halqumiga kelib, qor ustiga qulamagunga qadar orqa-oldiga qaramay yugurdi.

Tog'ning narigi tomoniga o'tgan ham ediki, u bir qishloqqa duch keldi. Kech kirib borardi. Bo'ri qalin o'sgan archazor ichiga kirib, nafasini rostladi. Qishloq molxonalarning iliq-miliq hidi dimog'iga urildi-yu, asta bog'qo'ralar ustidan oshib o'tdi. Ko'chada hech zog' yo'q. U o'zini tutib, endi yugurmoq-chi bo'lgan ham ediki, qarsillab ikkinchi o'q uzildi. Oqish qornining quyi qismidan yirik qon tomchilari tirqiray boshladi. Bo'ri bor kuchini to'plab, hakkalay-hakkalay, nihoyat narigi taraf-dagi tog' bag'rida joylashgan o'rmon-

zorga yetib bordi. U yerda bir zum tevarak-atrofga diqqat bilan quloq soldi, ikkala tarafdin ham odamlarning ovozlari va qadam tovushlari eshitildi. Qoʻrqa-pisa togʻga razm soldi. Togʻ nishab, serdaraxt, unga chiqib borish ancha mushkul edi. Biroq boshqa yoʻl ham yoʻq edi. Boʻri nafasi boʻgʻziga tiqilib, qiya togʻ bagʻriga qapishgancha asta yuqoriga oʻrimalab chiqa boshladi, pastda esa yaqinlashib kelayotgan olomonning gʻala-gʻovur ovozlari eshilib, dam-badam fonuslar yaltillab qolardi.

Asta-sekin jon taslim qilayotgan jonivor xira, tussiz oy gardishiga maʼyuslanib boqarkan, zaif xirillagan ovozda uvillab qoʻydi, ovoz sassiz tun qaʻriga singib ketdi. Hademay qoʻllarida fonus koʻtargan odamlar yetib keldi. Qalin palto kiygan dehqonlar, boshlariga moʻyna telpak, oyoqlariga issiq paypoqli etik kiygan ovchilar, yigit-yalanglar qorni bir-bir bosib, yaqinlashib kelishardi. Hamma shodon qiyqirib yubordi. Harom qotayotgan boʻriga koʻzlari toʻyib, unga ikki marta oʻq uzishdi, ikkala oʻq ham nishonga tegmadi. Keyin kelib koʻrishsaki, oʻzi jon talvasasida yotibdi. Ular tayoq va soʻylarini oʻynatib, boʻriga yopirilishdi. Boʻri buni ortiq sezmad ham.

Tilka-pora boʻlgan boʻri jasadini Sankt-Immer tomon sudrab olib ketishdi. Hammalari kulishar, bir-birlariga maqtanishar, qahva ichib, xursandchilik qilishar, ashula aytishardi.

Mirzaali Akbarov tarjimasi



Lugʻat

munaqqid – критик

Farangiston – Франция

qahraton qish – суровая зима

dargʻazab – рассерженный

fonus – фонарь

jipslashtirmoq – еще теснее
сплачивать

vahimali – страшный

tashnalik – жажда



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Hikoyadan tabiat manzaralari tasvirlangan gaplarni topib, izohlang.
2. Qahraton qishning yovvoyi hayvonlarga keltirgan zarari va ayanchli holatlarini gapiring.
3. Insonlarning hayvonlarga boʻlgan munosabati qanday tasvirlangan?



Uygʻa vazifa. Herman Hessening «Choʻl boʻrisi» hikoyasini oʻqib keling.

15-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati (Publitsistik uslub)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini o'qing va rasm asosida suhbatlashing.

– Mening opam milliy gilamlar to'qishga juda qiziqadilar. Ustozlaridan o'rgangan bu hunarlarini yanada kengaytirishga intilyaptilar. Gilam to'qishga ijodiy yondashib, bejirim, turli-tuman gilamlar yaratib, ularda xalqimizga xos xususiyatlarni aks ettirish ularning asosiy maqsadlaridir.

– Men esa echki yungidan ro'mol, sharf hamda boshqa to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchiman.

– Mening akam avtoservis ochganlar. Bu avtoservis haydovchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Men esa qandolatchilik hunarini o'rganmoqchiman va ke-lajakda qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonani ochmoqchi-man.

– Men esa sartaroshxona ochmoqchiman. Sartaroshxona tadbirkorlikning servis sohasiga kiradi.



2-topshiriq. Matnni o'qing va matn asosida savollar tuzing.

Tadbirkorlik kapital sarflab tovar va xizmatlar yaratish bilan foyda topishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir. U biznesning asosiy turi hisobla-

nadi. Tadbirkorlik mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida takvakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir. Tadbirkorlikning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tadbirkorlik biznes sifatida, asosan, sanoat, agrar va servis sohalarda kechadi.

Tadbirkorlik mulkiy jihatdan 4 xil ko'rinishga ega: davlat tadbirkorligi, xususiy tadbirkorlik, jamoa tadbirkorligi, aralash tadbirkorlik. Ish ko'lami jihatidan kichik, o'rta va yirik tadbirkorlikka bo'linadi. Ular bir-biridan kapital miqdori, ishlovchilarning soni, yaratilgan mahsulot, xizmatlarning bozor qiymati va olingan foyda miqdoriga qarab farqlanadi. Tadbirkorlik g'oyat murakkab faoliyat bo'lganidan, iste'dod, tayyorgarlik va tajribani talab qiladi.



Bilib oling!

Tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borishda qo'llanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi **publitsistik uslub** deyiladi. Ushbu uslubning asosiy xususiyatlari ijtimoiy hayotimizdagi eng dolzarb masalalarni barchaga tushunarli, ta'sirchan shaklda, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodalashdir.



1-mashq. Berilgan publitsistik uslubda yozilgan gaplarni o'qing va nuqtalar o'rnini mazmuniga mos so'zlar bilan to'ldiring.

Mutaxassislarning fikricha, dehqonchilikda har bir hududning , ...
... kelib chiqqan holda muayyan natijalarga erishish mumkin. Jumladan ,
Boysun va Baxmalning , Yashnabod hamda Sherobod ... dovrug'i dong
taratishi ana shunday o'ziga xos omillar bilan bog'liq. Samarqand ... boshqa
hududda aynan tayyorlash imkonsiz bo'lgani singari yuqorida nomi keltirilgan
mevalar ham joy tanlashi bilan farqlanadi. Sherobod anorlari hududning ...
..., anor yetishtirish uchun juda mos. Anorlar dastlab ... yetishtirilgani,
so'ngra ... hamda boshqa o'lkalarda ham ommalashtirilgani haqida ma'lumotlar
bor.

Foydalanish uchun so'z va so'z birikmalari: geografik joylashuvi, iqlim sharoitidan; Oltinsoy uzumlari; Eronda; qirmizi olmalari; nonini; anorlari; tuproq unumdorligi, quruq havosi; Misr.



2-mashq. Publitsistik uslubda berilgan gaplarni davom ettiring.

1. Bu yil mirishkor dehqonlar uchun omadli bo‘ldi
2. Yetishtirilgan hosilning cho‘g‘i baland, bozori chaqqon
3. Dehqon xohlasa ichki va tashqi savdoni
4. Birgina Surxondaryo viloyatining o‘zida ... tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
5. Endi tadbirkorlar eksportga oid qonunchilikdan
6. Meva va sabzavot mahsulotlarini eksport



3-topshiriq. Quyidagi maqol va hikmatlarni daftaringizga ko‘chiring, ularning ma’nosini izohlang. Fikrning mantiqiy asosini aniqlang.

1. Oliyjanob yurak to‘g‘ri yo‘ldan toymaydi.
2. Inoqlikning eng birinchi sharti – samimiyat.
3. Odamiy ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. *A. Navoiy*
4. Boshqalarning baxtini o‘ylab, o‘z baxtimizni ham topamiz. *Aflotun*
5. Kim g‘amingga sherik bo‘lmas,
U seni hech sevgan emas.



4-topshiriq. Hikmatni o‘qing va mazmuni yuzasidan suhbatlashing.

Ey, o‘g‘il! Qaysi fan bo‘lmasin, to uni mukammal egallamaguningcha harakatni to‘xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi. Bir ilmni egallashga aqling yo‘l berdimi, uni oxirigacha egallamay turib, chala tashlab ketma.

Sheroziy



Uyga vazifa. Tadbirkorlik mavzusida kichik matn yozing.

2-dars



5-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

– Men kelajakda tadbirkor bo‘lmoqchiman. O‘zimning xususiy korxonamni ochmoqchiman.

– To‘g‘ri, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga har tomonlama erkinlik berilgan. Lekin mablag‘ni qayerdan olasan?

– Banklardan imtiyozli kredit olaman. Mahallamdagi vaqtincha ishsiz yurgan tengdoshlarimni ishga taklif qilaman. Ishlab chiqarilga mahsulotni mahalliy bozorlarga va chet elga olib chiqib sotmoqchiman. Undan kelgan foydaga biznesimni kengaytiraman. Mahallamda yangi guzar quraman.

– Meni ham ishga olasanmi?

– Albatta, oldimga katta maqsadlar qo‘yganman. Bu maqsadlarimni amalga oshirishda menga ishonchli do‘stlar va hamkorlar kerak.

– Bo‘lmasa, menda ham yangi g‘oyalar bor. Maslahatlashaylik.

❖ 6-topshiriq. Matnni o‘qing va matn yuzasidan savollar tuzing.

Yoshlar kelajak bunyodkorlari

Ertangi kunimizning yanada yorug‘ va farovon bo‘lishi bugungi islohotlar bilan chambarchas bog‘liq. Mamlakatimizda navqiron avlod va-killarining orzu-intilishlari, ezgu g‘oya hamda maqsadlari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotganining boisi shunda. Yigit-qizlarimiz uchun yaratib berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar davlat siyosatining qamrovi naqadar kengligidan dalolat beradi.

Albatta, doimiy daromad fayz-u baraka manbayidir. Kelajak vorislarini rag‘batlantirishning eng ma‘qul yo‘li ham ularga munosib ish o‘rinlarini yaratishdir. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun biznes-rejani puxta tuzishda mutaxassislar, ota-onalarning maslahatlari va ko‘rsatmalari ko‘mak beradi. Asosiy maqsad respublikamizning banklaridan kredit olib, xorijdan investitsiya kiritish va yangi ish o‘rinlarini yaratishdan iboratdir. Chindan ham boshlang‘ich sarmoya yosh ishbilarmonlar uchun katta madad. Yosh o‘g‘il-qizlarning tadbirkorlik borasidagi istiqbolli loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tadbirkor yoshlarning safini kengaytirish muhim o‘rin tutadi.



Bilib oling!

Ommabop uslubning radio, televideniya ishlatiladigan ko‘rinishi **og‘zaki publitsistik uslub** deyilsa, gazeta, jurnallarda ishlatiladigan ko‘rinishi **yozma publitsistik uslub** hisoblanadi.

Masalan: Gapirdi – so‘zladi, eshitdi – tingladi, qaradi – nazar soldi, ovqatlandi – tanovul qildi.



3-mashq. Berilgan so‘zlar yordamida publitsistik uslubga oid bo‘lgan gaplar tuzing.

Masalalari ko‘rib chiqildi, markaziga aylandi, hissa qo‘shmoqda, tashkil etilmoqda, asosida rivojlanadi, barpo etildi, zarur vazifalardan biridir, ishtirok etadi, talab qiladi, kutilmoqda, tashrif buyurdi, o‘rganilmoqda.



4-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

1. Ularda, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega pand-nasihatlar (aks ettirilgan, barpo etilgan). 2. Bu esa keng aloqalarni (talab qiladi, ko‘rsatadi). 3. Bu borada tegishli tadqiqiy ishlar (olib borilmoqda, berilmoqda). 4. Shahrimizda qo‘lyozmalar kutubxonasi muzeyi (tashkil etiladi, ko‘rsatiladi). 5. Uchrashuvda hamkorlikning dolzarb masalalari (muhokama qilindi, erishildi). 6. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish (ustuvor sanaladi, tavsiya etiladi). 7. Istalgan sohada vatanparvarlik tuyg‘usini (hisoblanadi, namoyon qilish mumkin).



7-topshiriq. Maqollarning mazmunini ayting va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Tejamkorlik – koni boylik.
2. Yetti o‘lchab, bir kes.
3. Toma-toma ko‘l bo‘lur.
4. Yaxshilik qilolmasang, yomonlik qilma.



8-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Sarvar, sen kelajakda kim bo‘lmoqchisan?
- Men kelajakda dadamga o‘xshab tadbirkor bo‘lmoqchiman.
- Dadangning korxonasi nima ishlab chiqaradi?
- Dadam novvoyxona ochganlar. U yerda nonning o‘ndan ortiq turlari yopiladi.
- Dadang ishlab chiqarayotgan mahsulot juda kerakli va eng muhimi, doimo bozori chaqqon mahsulot ekan.
-



Uyga vazifa. Og‘zaki va yozma publitsistik uslubga oid so‘zlar ishtirokida 2 ta gap yozing.



Rahmat Fayziy (1918–1988)

Taniqli adib Rahmat Fayziy 1918-yili Toshkentning Beshyog'och dahasida kosib oilasida dunyoga kelgan. U o'rta maktabni tugatib, elektr mexanika texnikumida o'qidi. So'ng respublika gazetolari, tahririyatlarida ishladi. Uning dastlabki she'riy mashqlari, ocherklari ham gazetalar sahifalarida e'lon qilindi. Rahmat Fayziy «O'zbekfilm» kino-studiyasida ishlagan. Uning «Sen yetim emassan», «Yor-yor» kinossenariylari asosida ishlangan filmlar o'zbek milliy kinosi

rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Yozuvchining «Sen yetim emassan» kinossenariysi bo'yicha suratga olingan film qator xorijiy mamlakatlar ekranlarida namoyish etilib, tomoshabinlarga manzur bo'ldi. Rahmat Fayziy 1969-yili shu ssenariy asosida yaratgan «Hazrati inson» romanida temirchi Mahkam ota va Mehriniso opa hayoti orqali oddiy kishilar qahramonligini ko'rsatdi.

Rahmat Fayziy «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», «O'zbekiston xalq yozuvchisi», Polsha Xalq Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat arbobi faxriy unvonlari bilan taqdirlangan. Yozuvchining qator asarlari rus va boshqa qardosh tillarga tarjima qilingan.

Rahmat Fayziy 1988-yilda vafot etgan.

Hazrati inson

(romandan parchalar)

Mahkam aka Chorsuga yetib kelganida choshgohga yaqinlashib qolgan edi. Samarqand darvoza tomon yurib, so'rab-so'rab, garang chol tushuntirgan bolalar uyini topdi.

Sahni keng hovlining o'rtasidagi oynabandli katta bino, ichi odamlarga to'la edi. Mahkam aka qatorasiga yonma-yon tushgan uylar oldida turgan bir-ikkita bolaga ko'zi tushdi-yu, ulardan so'rab ham turmay to'g'ri o'sha bino tomonga yurdi. Eshikni ochib, ichkariga kirdi. Xonaning to'ridagi qizil alvon yozilgan stol yonida ko'krak burma ko'ylak ustidan kiyib olgan kalta paxtaligining tugmalari yechik, shol ro'molini yelkasiga tashlagan yoshgina juvon hayajonlanib, gapirib turardi:

– ... Xalqimizning bag'ri keng, himmati zo'r. Bolalar kelgandan buyon telefon orqali ham, o'zlari kelib ham iltimos qilayotganlar ko'p. Hammalari bag'rimizga olamiz, otalik qilamiz, onasi bo'lamiz deyishyapti. Mana, o'zlar-ingiz...

– ...Ukrain bolasini bag'rimizga olsak, qavm-qarindoshlarimizga quchoq ochgan bo'lamiz. Rus o'g'lonini erkalasak, aziz do'stlarimizga mehrimiz bo'ladi. Moldovan go'dagini voyaga yetkazsak, vatandoshimizning yarasiga malham qo'ygan bo'lamiz...

– Haq gap, singlim, – dedi to'dadan bir chol.

– To'g'ri, to'g'ri! – degan ovozlar eshitildi.

Mahkam aka katta zalning o'ng tomonida turgan odamlarga bir-bir qarab chiqdi. Chollar, juvonlar, kampirlar. Bir ayol oldinroqda turgan to'rt yoshlar chamasidagi qizcha yoniga tiz cho'kib o'tirdi. Cho'ntagidan g'o'lak turshak chiqarib unga uzatgan edi, qizning ko'zlari jovdiradi-yu, olmay, yotsirab, birpas ayolga tikilib qoldi. Ayol turshakni qizning kaftiga solib qo'ygandan



keyingina ohista og‘ziga olib bordi. Nariroqda yana bir kampir cho‘ntagidan popuklik chiqarib, chap qo‘li bintlanib, bo‘yniga osib qo‘yilgan bolaga berdi. Bola popuklikni oldi-yu, o‘ng qo‘lini kampirning bo‘ynidan o‘tqazib, quchoqladi. Bularni kuzatib turgan Mahkam aka, qoq-quruq kelaverganidan koyindi. «Nima qilsa ham bola bola-da, shu yog‘ini o‘ylamabman-da. Mehrining ham xayoliga kelmaganini-chi...».

Ish bilan bo‘lib, vaqt o‘tganini ham sezmagan Mehrinisa hayallab qolgan erini o‘ylab, do‘konxonadan chiqqan edi hamki, eshikdan bola yetaklab kirib kelgan erini ko‘rdi.

– Sanga o‘g‘il olib keldim, xotin, – dedi Mahkam aka va Vityaga «borib ko‘rish» deganday imo qildi.

– Zdravstvuyte, – dedi Vitya Mehrinisaning oldiga borib.

– Izdirasti, izdirasti, – dedi tiz cho‘kib, bolaning ikkala qo‘lini kaftida siqarkan Mehrinisa, – voy-bo‘y. Muz-ku. Qani, yura qolinglar. Tanchayam bozillab turibdi. Qorinlaring ham ochib ketgandir!

– O‘sha ertalabki choy bilan yuribman. Butun shaharni kezib chiqdim. Xotin, kelgan bolayam ko‘p, olaman degan undan ham ko‘p, ha, tavba.

Vitya notanish tilda gaplashayotgan er-xotininga angrayib qolgandi.

Mehrinisaning qulog‘iga gap kirmas, kavshandozda bolaning botinkasini yechish bilan ovora edi. Katta, qo‘pol botinkaning bog‘ichi ulanaverib, tugun-tugun bo‘lib ketibdi. Mehrinisaning sabri chidamadi, qaychini olib, qirqib-qirqib tashladi. Bir-ikki qiyqimini qo‘liga olgan Vitya hayron bo‘lib Mehrinisaqa qaradi.

– Endi bog‘lab bo‘lmaydi-ku buni?

– Yangisini bog‘laysan, bolam. Botinkang ham katta shekilli?

– Katta bo‘lsayam butun-ku. Hammanikidan butuni o‘zimniki.

– Boshqalarniki yirtiqmidi? – Mehrinisa uning ko‘ngliga qarab gapiga quloq solishga urinardi-yu, dilidan, «sho‘rliklar, ko‘nikib qolishgan shungayam», degan fikr kechardi.

– Seryojaniki poyezdda judayam yirtilib ketdi. Tagi ko‘chib tushdi. Men sim bilan bog‘lab berdim.

– Ajab qilibsan. Odam degan shunaqa o‘rtog‘iga qaraydi-da.

– O‘rtoq emasdi u menga. Kichkinalar otryadida edi-ku. Baribir qilib berganlarim bekor ketdi.

– Nega?

– Seryoja bomba tagida qoldi-ku.

– A? O‘ldimi?
 – Butun vagon yonib ketdi. Botinkasiyam qolmagandir.
 – Bir vagon dedingmi?
 – Ha. Bomba vizillab to‘g‘ri o‘sha vagonga tushdi. Bu yerga hech bomba tushgani yo‘qmi?
 – Bu yer uzoq. Bomba tashlaydiganlar bu yerga kela olmaydi. Qo‘rqma.
 – Voy, hali bittayam bomba tushmaganmi?
 – Qo‘y, bolam, Xudo ko‘rsatmasin.
 – Bombaning tushishi judayam qiziq bo‘ladi. Vizillagani-chi, odamning ichidayam bilinib turadi, boshdan boshlanib, qoringacha tushib, oyog‘ingizgacha eshitiladi. Juda g‘alati. Innaykeyin, gum etib...

Sandal yonida yostiqqa suyanib, uyning eshigidan Vityaning gaplarini eshitib o‘tirgan Mahkam aka ko‘z oldida urush dahshatlarini chillak o‘yini-dek zavqlanib gapirayotgan bolamas, frontdan qaytgan jangchi turgandek bo‘ldi. Vityaning oyog‘iga o‘ralgan qavat-qavat paytava, qotib ketgan jun paypoqni yechayotgan Mehrinisaning ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketdi.

– Oyoqlaring karash bo‘lib ketibdi. Mayli, sandalga borib isinib o‘tirgin, saldani keyin cho‘mlitirib, oppoq qilib qo‘yaman.

Vitya uyga kirdi. Mahkam aka sandal ko‘rmasini ko‘tarib yonidan joy ko‘rsatdi.



Lug‘at

oynaband – застекленный

bozillamoq – накаляться

turshak – сушёный урюк

hayallamoq – задерживаться, запаздывать

sandal (*tancha*) – низкий квадратный столик, который ставится над углублением в земляном полу с горячими углями

innaykeyin – после того, после этого



Matn yuzasidan savollar:

1. Hikoyada qaysi davr tasvirlangan?
2. Mahkam akaning maqsadi nima edi?
3. O‘zbek xalqi yurtimizga kelgan yetim bolalarni qanday kutib oldi?
4. Yetim bolalarning og‘ir ahvoli tasvirlangan joylarni topib o‘qing.



Uyga vazifa. R. Fayziyning «Hazrati inson» asarini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

16-mavzu. Kelajakka yo‘l (Rasmiy uslub)

1-dars



1-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

– Kecha biz ma’naviyat darsida sinf rahbarimiz bilan «Kelajak bunyodkori» mavzusida suhbatlashdik.

– Nimalar haqida suhbatlashdingiz?

– Bu suhbatda sinf rahbarimiz qanday kasbni egallamang, siz kelajak bunyodkori hisoblanasiz. Shunday ekan, albatta, bir kasbni yoki hunarni egallang. Bugun davlatimizda barcha tizimda bilimli, dunyoqarashi keng, o‘z sohasining ustasi bo‘lgan kadrlarga talab juda katta. Agar har bir yosh o‘ziga ishonsa, kuchli bilimga ega bo‘lsa, chet tillarini mukammal bilsa, o‘ylaymanki, hayotda o‘z o‘rnini topadi. Faqat siz o‘z tanlagan sohangizni yaxshi ko‘rishingiz, uning haqiqiy egasi bo‘lishingiz kerak dedilar.

– Sen biror-bir kasbni tanladingmi?

– Men bugungi kungacha kim bo‘lishim haqida jiddiyoq o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Ustozimning gaplaridan keyin, o‘ylanib qoldim. Kelajakda koinotni o‘rganadigan robotlar ixtiro qilsammikan yoki o‘zimizning sun’iy

yo‘ldoshimizni yaratsammikan? Buning uchun men fizika, matematika va astronomiya fanlarini chuqur o‘rganishni niyat qilganman.

– Juda yaxshi, sen kelajakda ixtirochi bo‘lishni niyat qilibsən. Harakat qil-sang, qo‘lingdan keladi.

❖ **2-topshiriq.** Matnni o‘qing va savollar asosida suhbatlashing.

Mening orzularim

Inson bor ekan, u doimo biror-bir maqsadga, orzuga intilib yashaydi. Mening ham o‘z orzu-umidlarim, oldimga qo‘ygan maqsadim bor. Eng av-valo, men maktabni yaxshi baholarga bitirishim, buning uchun, albatta, yax-shi o‘qishim, odobli bo‘lishim, jamoat ishlarida faollik ko‘rsatishim kerak. Keyin esa o‘zimga yoqqan me‘morchilik kasbi sirlarini o‘rganmoqchiman.

Menga bu kasb juda yoqadi, chunki ota-bobolarimiz yaratgan binolar asrlar osha o‘z go‘zalligini yo‘qotmagan holda bizgacha yetib kelgan. Men ham kelajakda shunday binolar yaratmoqchiman.



Lug‘at

maqsad – цель

intilmoq – стремиться

orzu-umid – желание, мечта

faol – активный

yaratmoq – создавать



Matn yuzasidan savollar:

1. Kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz?
2. Qanday orzularingiz bor?



Bilib oling!

Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan hujjatlar – qonun, qaror, ni-zom, buyruq matnlari **rasmiy uslubda** yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli tilda, qat’iy qabul qilingan shaklda tuz-iladi. Ayrim hollarda ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan qisqartma so‘zlar ham ishlatiladi. Ularga ariza, tilxat, ma’lumotnoma, chaqiriq qog‘ozi, taklifno-ma, shartnoma, tarjimai hol, e’lon, tavsifnoma kabilar kiradi.



1-mashq. Gaplarni o'qing. Rasmiy uslubga xos bo'lgan gaplarni ko'chirib yozing.

1. Men 11-sinf o'quvchilarining aprel oyidagi davomatini tahlil qildim.
 2. Mayli, bizlar ham topamiz, savolingizni beravering 3. Ma'lumotnoma tuman ijtimoiy-ta'minot bo'limiga ko'rsatish uchun berildi. 4. Arizaga tug'ilganlik haqidagi guvohnomaning nusxasini ilova qilaman. 5. Ushbu bitim yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi. 6. Guruh rahbari T. Qodirovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin. 7. Xayronman senga, ukaginam, modniy kiyimni ham eplab kiyolmayapsan-ku?!



2-mashq. Berilgan so'zlar ishtirokida rasmiy uslubga oid gaplar tuzing.

Inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, yuklatilsin, tayinlansin, e'lon qilinsin, so'zga chiqdi, axborot berdi, fikr-mulohaza bildirdi, tejab ishlatilsin.



3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Inson nimaga intilib yashaydi?
2. Maqsadga erishish uchun nimalar qilish kerak?
3. Kelajakda siz qaysi kasb egasi bo'lmoqchisiz? Nima uchun?
4. Siz tanlagan kasbning jamiyatga foydasi haqida nima deya olasiz?
5. Ota-onangizning kasblari haqida nimalarni bilasiz?



4-topshiriq. Hikmatlarni o'qing va mazmuni yuzasidan suhbatlashing.

1. Kimki kitobga ko'p boqsa, kitob uning zehnini ochadi, zavqini oshiradi, so'zga chechan qiladi.
2. Kitob insondan hech narsa tilamaydi, ammo uni kamolga yetkazadi.
3. Kitob odob-axloqning koni, bilimning esa bulog'idir.
4. Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir.



Uyga vazifa. Qabul qilinsin, o'tkazilsin, tashakkur bildirilsin, berilsin kabi so'z va so'z birikmalari ishtirokida rasmiy uslubga oig gaplar tuzing.

2-dars



5-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va rasm asosida suhbatlashing.

– Bilasanmi, yurtimizda iqtidorli yoshlarni aniqlash va rag‘batlantirishga, dunyoqarashi, ijodiy hamda shaxsiy xususiyatlarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

– Buni bilaman. Davlatimizning muhim yo‘nalishlaridan biri iqtidorli yigit-qizlarni ilm-fanga keng jalb etishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning davlat stipendiyalariga o‘qishda va jamoat ishlarida yuqori natijalarga erishayotgan intiluvchan, ilimli yoshlar sazovor bo‘lmoqda. Yana bir qator maxsus stipendiyalar ta’sis etilgan.

– Mamlakatimizda Vatanimizning taqdiri, yuksak ma’naviy qadriyatlar va eng yaxshi an’analar ruhida kamol topayotgan yigit-qizlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunday e‘tibor va g‘amxo‘rlik biz yoshlarni yanada yaxshi o‘qishga, yuksak maqsadlarga erishishda o‘z ustimizda ishlashga undaydi.



Bilib oling!

Rasmiy uslubda ko‘pincha ***darak gaplardan***, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda esa ***buyruq gaplardan*** ham foydalaniladi.



3-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Qaysi uslubda yozilganligini izohlang.

1. Azamat bog‘bonlarimiz mo‘l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti. 2. Sinf faollari o‘zlarining navbatdagi majlisiga yig‘ilishdi. 3. Gu-

ruh rahbari D. Asqarovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin. 4. Ma'lumotnoma sinf rahbariga ko'rsatish uchun berildi. 5. Natijada mashg'ulotni qoldirishga to'g'ri keldi. 6. Maktab ma'muriyati mehmonlarni kutib olish va kuzatib qo'yishni o'z zimmasiga oladi. 7. Karimova Nozima sinf sardori qilib tayinlansin.



4-mashq. Namunadan foydalanib rasmiy uslubda sinfdoshingiz haqida tavsifnoma yozing.

Tolipova Shahrizoda 301-maktabning 11-sinfida o'qiydi.

Maktabda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko o'quvchi sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qiladi. Fizika faniga alohida qiziqadi. U «Bilimdonlar bellashuvi»ning g'olibi. Sportni sevadi. Maktabimizning barcha tadbirlarida faol qatnashadi.

U kamtarligi va to'g'riso'zligi, mehribonligi sababli sinfda hurmatga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma sinf rahbariga taqdim qilish uchun berildi.

Sinfdoshi

(imzo)

A. Rustamova



6-topshiriq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. To'g'ri o'yla, to'g'ri so'yla. 2. Qo'pol so'zli bo'lma, xushmuomalali bo'l. 3. Foydasiz oshna-og'aynilaringga bog'lanib yurma. 4. Ahdiga vafo qilmagan kishi oxiri jazoga muhtalo bo'ladi. 5. Yomonlar bilan suhbatdosh bo'lma, ulardan arslondan qochganday qoch.



7-topshiriq. Matnni o'qing. Sarlavha qo'ying. Tayanch so'zlarni yozib lug'at tuzing. O'zaro savol-javob o'tkazing.

Qadim zamonda bir odamning uch o'g'li bor edi. Bir kuni ularni o'z oldiga chaqirib: «O'g'illarim, sizlarni sinamoqchiman. Shu bir oylik umringizni xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf eting. Qaysi biringizning qilgan yaxshiligingiz eng ulug' fazilat kasb etsa, bor boyligimni unga beraman», – debdi.

O'g'illari bir oy sayohat qilib, yurib, yana otalarining huzuriga qaytib keldilar. Ota katta o'g'lidani so'radi. Katta o'g'li: «Otajon, bir kuni tanho

o'zim bog' ko'chasidan o'tib ketayotsam yerda juda ham qimmatli olmosni ko'rib qoldim. Uni olib darhol tegishli ma'murlarga topshirdim. Ma'murlar boshlig'i menga tashakkur aytib, qo'limga mana shu taqdimnomani yozib berdi. Ushbu qilgan ishim to'g'riligimga bir dalil, shu harakatim eng ulug' fazilatim emasmi?» – deb javob berdi.

Otasi: «Juda to'g'ri ish qilgansan, o'g'lim, vijdonan vazifangni ado etgansan. Lekin u olmos sening xususiy mulking emas-ku...»

Keyin o'rtancha o'g'li so'zladi: «Men bir kuni katta daryo bo'yidan ketib borardim. Shu payt bir yosh bola suvga tushib ketdi va halok bo'lishi mumkinligini ko'rib qoldim.

Darhol o'zimni suvga tashladim, ko'p mashaqqat chekib bolani suvdan olib chiqdim. Uni o'limdan qutqarib, ota-onasiga eson-omon topshirdim. Ota-onasi mendan ko'p minnatdor bo'ldilar, haqimga duoyi xayr qildilar.

Bolani o'limdan qutqarish uchun qilgan shu harakatim bilan mukofotigingizga loyiq bo'lsam kerak, deb o'ylayman».

Ota o'rtancha o'g'lining qo'lini ushlab: «Ofarin, o'g'lim, seni tabriklayman, shu go'zal ishing tufayli qalbing zavq bilan to'lganini his etgansan, shuning o'zi mukofot emasmi?».

Keyin kichik o'g'li otasiga ta'zim qilib aytdi: «Otajon, menga doimo dushmanlik nazari bilan boqib, zarar yetkazib yurgan bir odam bor. Men unga hech bir yomonlik qilmagan bo'lsam ham, u payimda yuradi, hatto meni o'ldirish uchun fursat kutadi. Kecha u juda past bir jar yoqasida uxlab yotganini ko'rdim. Agar uyqusirab bir yonga ag'darilsa yoki tovush chiqarib uyg'otilsa, cho'chib, harakat qilib jarga tushib ketishi mumkin edi.

Men tovush chiqarmasdan, sekin yoniga bordim. Juda ehtiyotlik bilan uni o'z tomonimga torta boshladim va xatardan qutulgandan keyin ruhim ko'tarildi, shodlanib yo'limda davom etdim».

Otasi o'g'lining bu go'zal ishidan, oliyanobligidan shodlanib ko'ziga yosh oldi, uni quchoqlab, yuz-ko'zidan o'pib: «Bor bo'l, o'g'lim, yasha, umring uzoq bo'lsin! Mukofotimni olishga sen haqlisan, chunki dunyoda eng ulug' fazilat yomonlikka yaxshilik qilishdir», – deb uning haqiga duo qildi.



Uyga vazifa. Oila a'zolaringiz haqida rasmiy uslubda tavsifnoma yozing.



Saida Zunnunova (1926–1977)

«Saidaning birinchi kitobini o'qib «Qizingiz yozdi» deb nom qo'yib berganman. Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli, tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, hordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batimizni toblantiradigan, idro-kimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo'lib yetishdi».

G'afur G'ulom

Saida Zunnunova 1926-yil 15-fevralda Andijon shahrida tug'ilgan. U shahardagi 30-maktabni tugatgach, Andijon davlat o'qituvchilar institutida o'qidi. So'ngra ToshDU (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetida ta'lim oldi. Shoira Andijon maktablarida muallima, jurnal va gazeta muharririyatlarida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ishladi. Saida Zunnunova Said Ahmadning rafiqasi edi. U 1977-yil 51 yoshida vafot etdi.

Asarlari: «Qizingiz yozdi», «Yangi she'rlar», «Gullar vodiysi», «Qizlarjon», «Bir yil o'ylari» kabi to'plamlari, «Gulbahor» hikoyalar to'plami, «Gulxan» qissasi, «Olov», «Odamlar orasida», «Ko'chalar charog'on», «Direktor», «Bo'ylaringdan o'rgilay», «Ruh bilan suhbat» dostonlari va boshqalar.

Qizimga

Yer uzra qo'ndi oqshom,
Oy shu'lasini bir mayin.
Kel, oppog'im, kel, erkam,
Men seni allalayin.

Dudogʻing guldan xushboʻy,
Yuzlaring undan xushroʻy.
Kel, oppogʻim, bagʻringa
Jajji boshginangni qoʻy.

Tovuq uxlar qoʻnoqda,
Shamol tingan butoqda.
Oʻt-oʻlanlar jimgina
Orom olar oʻtloqda.

Yulduz charaqlayapti,
Oy ham yaraqlayapti.
Qizcha uxladimi, deb,
Mendan soʻroqlayapti?..

Yer uzra qoʻndi oqshom,
Oy shuʻlasi bir mayin.
Kel, oppogʻim, kel, erkam,
Men seni allalayin.



Lugʻat

shuʻla – луч, сияние

dudoq – *книж.* губа, губы

xushroʻy – красивый

butoq – сук, толстая ветвь

oʻtloq – луг

yaraqlamoq – блестеть



Mavzu yuzasidan savollar:

1. Shoir qizini tabiatning qaysi xususiyatlariga oʻxshatadi?
2. Yulduz va oy kimni soʻraydi?
3. Gʻafur Gʻulom shoiraga qanday taʼrif bergan?



Uyga vazifa. «Qizimga» sheʼrini yod oling.

Sinfidan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan asarlardan parchalar

Alisher Navoiy

Farhod va Shirin

(dostonning nasriy bayonidan parcha)

Chin mamlakati g'oyatda go'zal bo'lib, uni qudratli bir podshoh boshqarardi. Shohning osmondagi yulduzlardek behisob lashkari bo'lib, yuz mingta Qorun xazinasiga teng keladigan boylikka ega edi. Ko'pgina mamlakatlarning xonlari unga bo'ysunardilar. Shohning o'zi nihoyatda saxovatli, fuqarolariga g'amxo'r hukmdor edi. Uning farzandi yo'q bo'lib, «Men bu dunyodan ko'z yumsam, taxt-u tojim kimga qoladi?», – deb afsuslanardi. Bir o'g'il ko'rish orzusida yetimlarning boshini silardi, befarzand fuqarolarga ham mehribonlik ko'rsatardi. Nihoyat orzulari ushalib, o'g'il ko'rish baxtiga muyassar bo'ldi. Xursandligidan ko'pdan ko'p javohir-u oltinlarni xalqqa ehson qildi, butun mamlakat bezatilib, bir necha kun bayram qilindi. Chin ahli uch yil davomida soliq to'lashdan ozod qilindi.

Shodligi ichiga sig'magan podsho farzandiga yaxshi bir ism qo'ymoqchi bo'ldi. Chaqaloqning yuzida «farri shohiy», ya'ni shohlik nuri porlab turardi. Bu nur soyasi ostida esa himmat, iqbol hamda davlat o'rin olgan edi. Shoh «far» so'ziga himmat, iqbol¹ va davlat so'zlarining bosh harflarini qo'shgan edi, Farhod ismi hosil bo'ldi. Bolani ana shu ism bilan atadilar-da, ipak matolarga o'rab beshikka beladilar. Bilimli, donishmand bir ustozni topib kelib, Farhodni o'qitishga kirishdi. Uch oy deganda bolaning savodi chiqdi. Jahonda u o'rganmagan, ma'nosini anglab o'zlashtirmagan biron ilm qolmadi. O'n yoshli Farhodda yigirma yashar yigit kuch-qudrati bor edi. Endi u ilm olishni tugallab, harbiy hunarlarni egallashga kirishdi. Farhod o'n to'rt yoshga yetdi. Shoh farzandi kamolini ko'rib, har kuni xursandchilik qilardi, ammo Farhod ishqiy dostonlarni o'qir ekan, oshiqqlar chekkan dardlardan ko'ngli g'amga to'lardi.

Xoqon o'g'lining holini ko'rib, o'ylab o'yiga yetolmas, «Nega u hamisha g'amgin, nega doimo oh-u afg'on chekadi, ko'z yoshlariga sabab nima ekan?», deb fikr qilar ekan. Xitoy mamlakatidagi bor go'zallar-u san'atkorlar, nayrangbozlar-u sehrgarlarni chaqirtirib uni xursand qilishga intilar, ammo Farhod ularning ishlari sirini tezda anglab yetib, qiziqmay qolardi. Bularni kuzatib turgan otasi

¹«Iqbol» so'zi arab yozuvida «o» harfi bilan boshlanadi.

o‘ylab-o‘ylab, to‘rtta ajoyib qasr qurishga ahd qildi, toki o‘g‘li har faslda bir qasrda yashasin deb.

Xitoy mamlakatida egizak ikki usta bo‘lib, birining laqabi Boniy, ikkinchisniki esa Moniy edi. Boniy me‘morlik, Moniy esa naqqoshlik bilan shug‘ullanardi. Boniy qurgan binolar g‘oyat mustahkam bo‘lar, Moniy chizgan rasmlar esa xuddi jonli siymolardek ko‘rinardi. Yana bir ustodning laqabi Qoran bo‘lib, toshkesarlikda unga hech kim teng kelolmasdi. Mulkoro shularga o‘xshash yana ko‘plab ustalarni to‘pladi-da, xoqon bu qasrlarni shahzoda Farhodning orom olishi uchun qurdirayotganini ta‘kidlab, har bir qasrning hajmi-yu rangi qanday bo‘lishi lozimligini tushuntirdi. Farhod ustalarning mahorat bilan tosh yo‘nishlarini qiziqish bilan ko‘zdan kechirar, o‘tkir teshalari bilan qattiq toshlarni sariyog‘dek kesishayotganini ko‘rib ularga tahsin o‘qirdi.

To‘rt yildan so‘ng to‘rt hashamatli qasr qurib bitkazilgach, ularni bezashga kirishildi. Binolarning tashqi tomoniga chiroy berishda Qoran o‘z san‘atini namoyish qilgan bo‘lsa, ichkarida Moniy naqqoshlik qildi. Usta har bir uyga naqshlar va suratlar chizar ekan, uning yonida hozir turgan Farhod madadkorlik qilar, suratlarga rang berar, zarur bo‘lganda tosh kesish va naqqoshlik ishlarini bajarardi. Ana shu ishlar davomida shahzoda mohir ustoz bo‘lib yetishdi.

Qasrlar bitgach, ularning atrofida jannatmisol bog‘lar yaratildi. Har qaysi qasrga o‘z rangiga mos chiroyli gilamlar solinib, shu rangdagi buyumlar bilan jihozlandi. Ularning har birida xizmat qiluvchilar ham qasr rangiga mos kiyimlar kiyib olishgan edi. Shahzoda hanuz g‘amginlik girdobida yashar, hamon biron kishining yig‘isini ko‘rsa, unga qo‘shilib yig‘lar, el chekkan g‘am-alam unga ham ozor yetkazardi. Xoqon shu xususda fikr yuritir ekan, nihoyat yana bir ishni muvofiq deb bildi: o‘zining qarib borayotgani, Farhod esa aqlli, mard va pahlavon yigit bo‘lib, faqat Chin mamlakatida xoqonlik qilishgagina emas, balki butun olamga sulton bo‘lishga ham loyiq ekanligi, shohlarga xos barcha fazilatlar unda jamuljamligi, bir necha hunarlarni bilishi, barcha ayblardan xoli ekanligi, yig‘i va fig‘on chekishdan o‘zga biron kamchiligi yo‘qligini o‘yladi-da, «Taxtimni unga bersam, davlatni boshqarish ishlari bilan mashg‘ul bo‘lib, o‘z dard-u alamlarini unutadi», – degan qarorga keldi. Bu so‘zni eshitib turgan shahzoda otasiga uzoq umr tilab, shohlik ishi og‘irligini, bunday mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish uchun tayyor emasligini, shoh ruxsat bersa, bir-ikki yil xoqon yonida bo‘lib, davlatni boshqarish sirlarini o‘rganishi zarurligini, oldin kichikroq bir ishni boshqarib, keyin hukmdorlik bilan shug‘ullanishga o‘tsa, ma‘qulroq bo‘lishini odob bilan so‘zladi.

Farhodning bu soʻzlaridan shodlikka toʻlgan xoqon oʻgʻlining boshidan zar-u javohirlar sochish maqsadida uning qoʻllaridan tutib, har xil ajoyibotlar bilan toʻlib toshgan xazina ichiga olib kirdi. Shoh bilan shahzoda xazina boyliklarini tomosha qilishib qaytishmoqchi boʻlib turishganda, Farhodning koʻzi ajoyib bir sandiqqa tushdi. Toza billurdan yasalgan ushbu sandiq ichida nimadir koʻrinib turar, lekin qulflogʻligi tufayli u sandiqni ochib boʻlmasdi. Shahzoda sandiq ichidagi narsani koʻrmoqchi boʻldi-da, kalitini topib ochishni buyurdi. Xoqon bundan ogoh boʻlib, bu sandiqni kaliti yoʻqligi tufayli ochib boʻlmasligini aytdi-da, oʻgʻlini fikridan qaytarmoqchi boʻldi. Shoh qancha harakat qilsa, shahzoda shunchalik oʻjarlik qilardi. Xoqon ilojisiz qolib, sandiqni ochish haqida buyruq berdi. Sandiq ichidan yaltiroq bir koʻzgu chiqdi. Sharq quyoshigagina emas, balki Iskandar oynasiga oʻxshardi u. Koʻzguni bezagan usta orqasiga uni koʻrish siri haqida shunday deb yozib qoʻygandi: «Bu koʻzgu jahonnamo boʻlib, Iskandari Rumiyning jahon ahliga qoldirib ketgan yodgorligidir. Har biri Aflotunga teng toʻrt yuzta olim bir necha yil mehnat qilib bunday jahon hikmatini yasashgan. Unga tilsim yashirilgan boʻlib, koʻzguni koʻrmoqchi boʻlgan kimsa bu tilsimni yechib koʻzguni qoʻliga olsa-yu, unga koʻz tashlasa, Tangri unga belgilab qoʻygan taqdiridan ogoh boʻladi. Lekin koʻzgudagi tilsim sirini ochish juda qiyin. Bunga erishmoqchi boʻlgan inson Yunon mamlakatiga borishi, oʻsha manzilda uchta ofatni yengib oʻtib baland togʻ oldiga yetib borishi kerak.

Bu uch ofatning biri ajdaho, ikkinchisi Ahraman degan dev, uchinchisi oldingi ikkala ofatdan ham mushkulroq tilsimdir. Ana shu uch manzildan oʻtib olgan kishi toʻrtinchi manzil boʻlgan togʻ ichiga kirib, gʻorda maskan tutgan Suqrot degan donishmand olimni topishi kerak. U dono moʻysafid agar tirik boʻlsa, borgan kishini murodiga yetkazadi. Agar u hayot boʻlmasa, uning ruhiga iltijo qilinsa, koʻzlangan maqsadga erishiladi». Bu yozuvni oʻqigan shahzoda koʻzgu sirini ochishga qiziqib qoldi. Oʻz maqsadiga yetish yoʻlida oʻgʻli chekayotgan iztiroblardan xabar topgan xoqon uni bu muddaosidan qaytarishga har qancha urinsa ham, Farhod oʻz orzusidan voz kechmadi. Shoh bilan shahzoda yunon olimlari bilan birgalikda donishmand Suhaylo huzuriga qarab yoʻlga tushdilar. Ancha yoʻl yurishgach, dasht oʻrtasida bir tepalik koʻrindi. Suhaylo hakim shu yerdagi gʻorda yashar ekan. Hammalari otlaridan tushib gʻor tomon yurdilar. Olimlardan biri gʻor ichiga kirib, donishmandni shoh bilan shahzoda uning huzuriga qadam ranjida qilishganidan ogohlantirdi. Suhaylo bu soʻzlarni eshitgach, ularning kirishlariga ishora qildi.

Shoh bilan shahzoda kirishgach, Suhaylo oʻrnidan turib ikkovi bilan kulib koʻrishdi, ular ham xursand boʻlib, donishmandning qoʻlini oʻpishdi. Soʻng alloma ota bilan bolani oʻtqazib, oʻzi ham oʻtirdi-da, ular bilan suhbatni boshladi. Xoqon

shahzodaning ko'zguni ko'rgandan keyingi holati haqida mufassal gapirib berdi. Bilimdon alloma ahvolni anglagach, shod bo'ldi-yu, ayni vaqtda unga g'amginlik ham yuzlandi. Quchoqlab shahzodani xursand qilgan Suhaylo: «Sening oting Farhod!» dedi, bu ismning ma'nosini aytib bergach, bir necha savol bergan edi, Farhod bariga javob berdi. Donishmand uni peshonasidan o'pdi-da, sajda qilib: «Alhamdulillah, o'z murodimga erishdim. Necha yuz yildan beri shu g'or ichida yashadim, qancha-qancha ranj-u alamlar chekdim. «Mendan so'ng ming yil o'tgach, Chin mamlakatidan Farhod ismli bir shahzoda kelib Iskandari Rumiylar tilsimini ochadi. Lekin u ikki manzilda qahramonlik ko'rsatishi, avval ajdarni o'ldirishi, so'ngra esa Ahramanni yengishi kerak. Mening so'nggi farzandim bo'ladigan Suhaylo duo bilan salomimni qabul etib, Farhod bu diyorga yetib kelganida, unga yordam ko'rsatsin. Farhod ajdarni o'ldirganida, katta boylikni qo'lga kiritadi, devni yengganida esa Sulaymon payg'ambarning uzugiga ega bo'ladi.

Tilsim ochgan kuni esa Jamshid jomini ko'radi. Bularni qo'lga kiritgach, barchasini xoqonga hadya qilsin. Unga esa dono Suqrot bilan ko'rishish hamda Iskandar oynasi yetarli. Suqrot bilan suhbatlashgach, darhol ko'zguni ko'rish uchun Chin tomon jo'nasin. Ko'zguda nimaniki ko'rsa, bu voqealar uning hayotida yuz beradi», deb yozilgan ekan. Men bu xabardan faxrga to'lib, necha yuz yildan beri senga muntazir edim. Sening boshingga tushadigan barcha mushkulotlarning chorasini topib qo'yanman», dedi-da, Suhaylo g'or oldiga borib, bir idishni olib chiqdi va «Bu idish samandar yog'i bilan to'la. Men uni ko'pgina otashgohlardan yig'ib to'plaganman. Ajdar bilan olishish chog'ida bu yog'dan badaningga va qo'llaringga surib olsang, u seni ajdar og'zidan otiladigan o'tdan himoya qiladi. Ahramanni o'ldirganingda, devning bo'yniga osig'liq bir taxtachani ko'rasan. U tilsim ochishda senga yordam beradi, tilsim ichida esa Jamshid jomini topasan. Uning atrofiga yozilganlarni o'qisang, Suqrotni topish yo'lidan xabardor bo'lasan. Suqrotni ko'rgach, ko'zgu sirini bilasan-u, Vataning sari yo'l olasan», deb qo'lidagi idishni Farhodga topshirdi. U duch keladigan manzillar haqida yana maslahatlarni bergach: «Endi yo'lga tushgil, hamma mushkullaring hal bo'ladi, deb umid qilaman», dedi-da, bu hayotdan ko'z yumdi...

Farhod ajdahoning qorong'i g'ori ko'ringach u tomon yurdi. Ajdaho og'zidan o'tlar sochib g'ordan chiqib keldi. Shahzoda esa aslo qo'rqmasdi. Qo'lga yoyini oldi-da, unga xanjardek o'qini joylab raqibi og'ziga qarab otdi. O'q ajdar tanasini teshib o'tdi-yu, uni halok qildi va Ahraman dev makoniga qarab yo'l oldi.

Shahzoda devning hashamatli qasri ichiga kirib qarasa, hamma tomonda qator-qator eshiklar bo'lib, barchasi qulflog'lik ekan. Ularning tepasiga uy ichida

qanday boylik borligi yozib qo'yilibdi. Bu yozuvlarni birma-bir o'qib borayotgan Farhod oltin-u javohirlar bilan bezatilgan, atrofiga turli yozuvlar bitilgan ajoyib eshikka duch keldi. U yozuvlarda eshikning qulfi osonlikcha ochilmasligi, yaxshisi bunday orzudan voz kechish kerakligi aytilgan ekan. Bu sirni aniqlashga qiziqqan Farhod eshikni sindirib ichkariga kirdi. Xonaga ko'z yugurtirib, osib qo'yilgan bir yoqut qandilni ko'rdi. U nur sohib, xonani yoritib turardi. Qandilni tushirib ochgan edi, unda Sulaymon uzugi turganini ko'rdi. Qandilga: «Bu uzuk kimga muyassar bo'lsa, unga yozilgan ismni o'qib, Iskandari Rumiylar tilsimini ochadi va bu ish qiyinchiliklarini yengib o'tish yo'llarini bilib oladi», – deb yozilgan ekan. Farhod uzukni o'pib, sajda qildi-da, xudoga shukronalar aytib otiga mindi va o'rmondan chiqib, lashkar turgan joyga yo'l oldi. Barcha sipohlar Ahraman xavfidan qo'rqib turishgan ekan, shahzodani ko'rib o'zlariga keldilar. Xoqon Farhodni shod ko'rib xursand bo'lib ketdi. Shahzoda lashkarni boshlab o'rmonga olib kirdi. Ularni qasr eshigi oldida otlaridan tushirib, xoqon va Mulkoro bilan qasr ichiga kirdi. Xazinani ikkovlariga taqdim etdi va uzuk haqidagi gaplarni ularga so'zlab berdi.

Shukrullo

Ot bilan suhbat

(hikoya)

Urgutda adir tepasidagi Navro'z bayrami o'tkaziladigan yalanglikka chiqadigan tik so'qmoq yonboshida bir qabr bor. Andak to'xtab, unga e'tibor bering. Bu jangchi, qahramon otning qabri. U frontda yaralangan egasini olib ketayotgan sanitar vagoni orqasidan yugurib, poyezd tezlab ketganda yetolmay, yo'lda qolib ketgan. Necha oylab tog'-toshlardan, daryolardan o'tib, cho'llarda sargardon bo'lib, oxiri Urgutni topib kelgan. Bu vafodor ot egasini ko'rish ilinjida oylab Samarqand vokzalidagi poyezdlarni boshdan oyoq aylanib chiqadi. O'ziga tanish sanitar vagonni topolmay, kelgusi poyezdni kutadi. Urgut bilan Samarqand oralig'ida qatnayverib, tuyoqlari yemirilib, yurishga imkon bermay qo'yadi. U oxiri qadrdon chavandozga ilhaq bo'lib jon beradi.

1960-yilda konchilar to'g'risida biron nima yozish niyatida Ohangaronga bordim. Yuz metrcha chuqurlikdagi shaxtaga tushganimda g'aroyib voqeaga duch keldim. Bu voqea meni hali-hali larzaga soladi. Ilgari boshimga qora kunlar yog'ilganda Jezqo'rg'on mis konlari shaxtalarida ishlaganman. Yer qa'ridagi bunaqa hayot menga tanish edi. Boya aytganim – meni larzaga solgan narsa – ko'mir konida 17 yildan beri yorug'lik ko'rmay, toza havodan nafas olmay yashayotgan ot edi.

Bu ot qirq birinchi yili frontga jo'natiladi, ikki yil jang qiladi. Yaralangan otlar qatori «brak» qilinib, ko'mir konlari boshqarmasi ixtiyoriga yuboriladi. Shu tariqa u frontdosh do'stlari bilan Ohangaronga kelib qoladi. O'sha paytlarda elektr quvvatining yetishmasligi tufayli texnikani ishlatib bo'lmazdi. Otlar yer tagiga tushirildi. Ko'mir ortilgan vagonchalarni tortish shular zimmasiga tushdi. Yarasi bitib, asl holiga kelgan ot isyon ko'tarib, yuk tortmay qo'ydi. Shunda yer ustidan bir yahudiy mol do'xtiri tushib, uni axta qilib qo'ydi. Ana shundan keyin u yuvvosh tortib, itoatli bo'lib qoldi. Ko'p otlar havo yetishmasligidan, og'ir mehnatdan birin-ketin o'la boshladilar. Yuqori quvvatli elektr liniyalari tortib keltirilgandan keyin otlar kerak bo'lmay qoldi. Ular ishdan ozod qilinib, yer betiga chiqazildi. Ammo, yorug'likka chiqqach, qorachiqlari kengayib ketgandan kuchli yorug'likka chidamay, hammasi ko'r bo'lib, badbo'y iflos havoga o'rgangan o'pkalari toza havoga dosh berolmay qoldi. Shaxtada qolgan uch-to'rt ot ham o'lib ketdi. Faqat shu birgina ot hamon yer qa'rida yashayapti. Boshimdagi kaska chirog'ini otga tushiraman. U jimgina turaveradi.

Menga hamroh bo'lgan kon muhandisiga qarayman.

– Buni nima qilmoqchisizlar? Yuqoriga chiqazilsa ko'r bo'lib, o'lib ketadi. Bechora shu yerda yashayveradimi?

– Boshqa iloj yo'q. Xudo qancha umr bergan bo'lsa, shu yerda poyoniga yetkazadi.

O'z o'limini sokin, itoat bilan, isyonsiz kutayotgan baxtsiz jonivorga qarab yuraklarim zirqirab ketdi. Qanchalar rahmsiz bo'lib ketganmiz-a, deyman o'zimga o'zim. Dinga qarshi tinimsiz tashviqotlar o'z ishini qilmayotganmikin? Dili-mizdan imon ko'tarilmayotganmikin? Nahotki, Xudoni unutayozdik? Yo'qsa, bu shafqatsizlik bizga qaydan ilashadi?

Qamoq lagerlarida umrini o'tkazayotgan mahbuslar uyini, bola-chaqalarini sog'inib mushuk boqishardi. O'zlari to'ymagan ovqatdan yulib mushuklarga berishardi. Lager siyosiy rahbari shu mushuklarni qopga solib, olov gurillab yonayotgan novvoyxona pechiga tashlaganini ko'rganman. U alangada jizg'anak bo'lib yonayotgan mushuklarni zavq bilan tomosha qilgandi. Bu shafqatsiz odam ibodat qilayotgan nasroniylarni, namoz o'qiyotgan musulmonlarni ayamasdan kaltaklardi. Bu xil shafqatsizliklar o'shanaqa imonsizlardan o'tmaganmikan? Shunday iztirobli xayollar bilan otdan uzoqlashdim.

Goh emaklab, goh bukilib, vagonchalarga, elektr simlarga tegib ketishdan qo'rqib, ming bir xavotir bilan shaxta yo'llarini aylanib chiqdim. Tepamda kim bilsin, necha million tonnali yer qatlami. U tinimsiz qisirlaydi. Har biri uydek-

uydek keladigan ko‘mir xarsanglarining darzidan qurum to‘kiladi. Vagonchalarning taraq-turuq tovushlari, tepadan yomg‘irdek quyilayotgan suvlarning shovqini, suv tortayotgan nasoslarning tinimsiz guvillashi, parmalarining pulemyot tovushini eslatuvchi ovozi, ular ko‘chirgan ko‘mir xarsanglarining pastga qarsillab tushishidan hosil bo‘lgan momaqaldiraqdek vahimali tovushi meni dovdiratib qo‘ydi, quloqlarim bitib, chiqish joyiga keldim. Hamrohim yuqoriga chiqib ketgan ekan. Liftchi chol ahvolimni ko‘rib, temir kursini men tomon surib qo‘ydi.

– Birpas dam oling. Ancha urinib qopsiz. Shaxtaga birinchi tushgan odam shunaqa esankirab qoladi.

O‘tirdim. Ikki ko‘zim otda. Uning badani harakatsiz edi. Yer betidagi otlar tanasiga qo‘ngan pashshalarni dumi bilan haydaydi. Dumi yetmagan joylariga qo‘nganlarini terisini dirillatib uchirib yuboradi. Bu joyda na pashsha, na chivin bor. U otning o‘zi emas, go‘yo haykali edi.

Ot ham o‘ylarmikan, deyman o‘zimga o‘zim. Ko‘rgan kunlarini eslarmikin? Tolstoy ham, Aytmatov ham ot o‘ylash, eslash qobiliyatiga ega jonivor, degan. Shunday bo‘lsa, bu ot ham bolaligini eslay oladi. Shataloq otib yayragan yashil yaylovini, onasining to‘lib, tirsillab turgan yelinini boshi bilan turtib-turtib iydiganlarini, iliq, xushbo‘y ona sutini miriqib emganlarini eslayotgandir. Chaqmoq chaqib, momaqaldiraq gumburlab, yomg‘ir quyganda onasining issiq pinjiga suqilganlarini xayolidan o‘tkazayotgandir. Avji g‘unon bo‘lgan paytida raqiblarini dog‘da qoldirib, ko‘ngli xushlagan suluv biyani ergashtirib, uyur orasidan g‘olibona olib o‘tgan paytlarini nahotki eslamasa!

Ot xo‘rsinsa, ko‘zidan yosh oqsa bir falokat yuz beradi, egasi o‘ladi, deyishadi. Xo‘rsingan otni albatta so‘yib yuborishadi.

1952-yili shu otning ko‘zidan mo‘lt-mo‘lt yosh oqqandi. Nim qorong‘i shaxtada buni hech kim sezmagandi.

O‘sha yili olis Jezqozg‘on konida mis xarsanglarini ko‘chiradigan maxbuslar orasida bir maxbus, sobiq qahramon, otliq askar Ermat chavandoz olamdan o‘tdi. Mis to‘zonlari uning o‘pkasini chiritgan edi. Ermat chavandoz umrini vatan xoini degan «unvon» bilan yakunladi. Ot o‘z chavandozining olamdan o‘tganini sezdimikin? Uning xo‘rsinishi, ko‘zida mo‘ltiragan yosh balki shundandir? U jonvorlik hissiyoti bilan fojiani olisdan turib sezgan bo‘lishi mumkin. Bu ruhiy holat, bu erk sog‘inchi menga tanish.

Yigit yoshim barq urgan, uylanib, hayot nash‘asini surayotgan, yonib ijod qilayotgan paytimda meni zindonga tashladilar. Yorug‘ tushmaydigan, tashqaridan tiq etgan tovush kelmaydigan yakka zimiston xonada (odinochkada) yotganimda xuddi

shu otga o'xshab ko'rgan-kechirganlarimni eslab o'tirardim. Qiziq, negadir faqat bahor paytlarini esladim. O'rik gullagan, shabboda shaftoli gullarini to'zg'itardi. Majnuntollarning uzun yashil sochlari yangi uyg'ongan maysalarning boshlarini silardi. Jannatga bermagulik o'zbek bog'larida bahor bir necha haftalik mehmon edi.

Yigitlik ham ana shunday mehmon. Shu g'animat, keyin hech qachon qaytib kelmas damlarni qorong'u zindonda o'tkazish naqadar ayanchli, naqadar armonli... Shu tobda, yer tagida ot o'ylayapti, men o'ylayapman. Ot yashil yaylovlarni ko'ryapti. Ona bag'rida yayraganlarini eslayapti. Men birinchi kitobim chiqqan, quvonchim olamga sig'mas baxtiyor damlarni ko'z yumib xotiramda jonlantiryapman. Beixtiyor otga qarayman. U hamon bosh eggancha loqayd turardi.

– E, birodar, ne gunohing bor ediki, seni shu alpozga solishadi? Ot tilga kirgandek bo'ldi:

– Menda qanday gunoh bo'lsin. Bir bezabon jonivorman. Odamlarning yukini yengil qildim, uzog'ini yaqin qildim. O'zimni insonning do'sti degandim... Hayronman. Olis yurtlarda janglarga kirdim. Odamlar menga o'q uzdilar. Yaralanib, uzoq yurtlardan vatan deb bilgan manzilga yetib keldim. Mana, ko'rib turibsan, o'sha sog'inib kelgan vatanda oftob ko'rmay turibman...

– Bilaman, bilaman, jonivor. Xalqlar otasi xo'l-u quruqni barobar yondirgan edi. Sendan biron zurriyot qolmadimi? – deb so'rayman undan. U bosh chayqaydi.

– Meni bunday baxtdan mosuvo qilganlar.

Ko'ksimda bir dunyo g'am bilan yer betiga chiqib ketdim.

Osmon ko'm-ko'k, ukpardek oppoq bulutlar beozor suzadi.

Ot pastda, quyoshsiz, oysiz, yulduzsiz makonda mung to'la ko'zlarini yumganicha qora taqdirini poyoniga yetkazish uchun zimistonda qoldi. O'ttiz yetti yildirki, uni eslayman. Ba'zan u tushlarimga kiradi. Biron yerda ot ko'rsam shu g'arib, baxti chopmagan jonivor esimga keladi. Shunday paytlarda dohiy «padari buzrukvorimizga» qarata: «Zulmingni, jabringni tortmagan kim qoldi? Odamlarga qilgan zulming kammidi, jonivorlarni ham baxti qora qilding-ku!» degan bir nido ich-ichimdan otilib chiqadi.

O'tgan yili vodiyya mashinada ketayotganimda yomg'ir quyib yubordi. Olmaliq yo'lidan Ohangaron tomon burilishda hassaga tayangan bir kekxa odam yomg'irda ivib, o'tgan-ketgan mashinalarga qo'l ko'tarib, olib ketishlaridan umid qilib turardi. Uning yonginasiga kelib, mashinani to'xtatdim. U eshikni ochib, Angrengacha olib ketishimni so'radi. Olib ketdim. U menga ikki-uch marta qarab olgach:

– Sizni taniyman, birodar, – dedi. – Esingizda bormi, o'ttiz yetti yil oldin sizni shaxtaga olib tushgandim. Tasodifni qarang, shuncha yildan beri xayolimni band

qilgan odamni topdim. Undan shoshib so‘radim. «Esingizdami, hu, shaxtadagi ot? U nima bo‘ldi?» dedim. U ichki bir iztirob bilan, past ovozda: «O‘ldi», dedi.

– Siz kelib ketganingizdan biron yil o‘tib, jonivor qazo qildi. Jasadini Jigaristondagi frontchi do‘stlari dafn qilingan joyga ko‘mdik. Juda bahavo joy. Baland adir poyida. Kon veteranlari maslahatlashib, shu otlarga yodgorlik o‘rnatmoqchi bo‘ldik. Biroq o‘zingiz bilasiz, Jigariston voqeasini butun dunyo bilib ketdi. Bemahal kelgan yomg‘ir selga aylanib ko‘priklarni buzdi. Daraxtlarni qo‘pordi. Adirning tagi nam tortib, surila boshladi. Oxiri o‘pirilib, odamlarning uylarini bosdi. Eh-he, qancha odam tuproq tagida qoldi. O‘shanda otlarning mozori ham tuproq tagida qolib ketdi.

Bu gapdan ingrab yubordim. Taqdirni qarang, bu baxti qora otning o‘n yetti yil yer tagida yashagani, yer tagida jon bergani kamlik qilgandek, qabri ham yer tagida qolib ketibdi. O‘zi aytgandek, «vatanini topibdi». Hamrohimni Angrenda qoldirib, tog‘ tomon ketdim. Yomg‘ir tingan, lekin tog‘ boshida bulutlar g‘ujg‘on o‘ynardi.

Dovonga ko‘tarilaman. Yonbag‘irlarda uyur-uyur yilqilar o‘tlab yurishibdi. Ular orasida men bilgan otning zurriyoti yo‘q. U dunyodan nom-nishonsiz ketgan... «Ot kishnagan oqshom» qissasining so‘nggi satrlarini yoddan o‘qiyman: «Ayo Tarlon, sen mening akamsan. Uka desa degulik mendayin ukang bor... Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik...» Bu so‘zlar insonning eng yaqin do‘sti, vafoli jo‘rasi – ot sha’niga aytilgan madh-u taronadir.

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Sariq devni minib

(romandan parcha)

Tanishib qo‘yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo‘lsangiz Hoshimjon deb aytasiz. Familiyam – Ro‘ziyev, Ro‘zivoy traktorichining o‘g‘liman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og‘iz so‘zlab o‘tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho‘lda buldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda o‘sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba‘zan ikki oyda bir kelib ketadi. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg‘a-salomlar olib keladi. Sovg‘aning eng yaxshisi, albatta, menga tegadi. Oyim bo‘lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog‘adi. Bir o‘ziga 24 govmish qaraydi. O‘tgan yili sutni ko‘p soqqani uchun medal olgan. O‘sha medalni oyimdan yashirib men ham ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib rosa urishdi.

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida. Oyim uni: «Oppoqqinam, jonimning huzuri», deb erkalatgani-erkalatgan. Oyim uni bag'riga bosib suygan kuni men ham biqinidan sekin chimdib:

– Puchuqqinam, – deb qo'yaman. Kichik singlimning oti Donoxon. Hozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda u katta bo'lsa, albatta doktor bo'larmish. Menimcha, undan doktor chiqmasa kerak. Nega desangiz, ko'cha-ko'yda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa ukol qiladi deb, tog'dan toqqa qochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq xalat kiygan bufetchini ko'rib, doktor keldi, deb derazadan tashlab qochibdi.

Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho'x bolalarga o'xshab, kun bo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, ko'cha changitib yurgandan ko'ra komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib chillak o'ynagan ming marta yaxshi.

– Hoshim! – deb chaqiradi ba'zan oyim.

– Labbay, oyijon?

– Tomdan o'tin tashlab bergin.

– Xo'p bo'ladi, oyijon, – deyman-u sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:

– Oysha! – deb qichqiraman.

– Labbay, akajon?

– Tomdan o'tin tashlab bergin.

– Xo'p bo'ladi, akajon, – deydi Oysha. Shunday demasa, ishlar chatoq. Och biqiniga musht kelib tushadi. Ishqilib oyimning gapini hech yerda qoldirmayman. Aytganini o'zim bajarmasam, birov orqali bajaraman. Aslini olganda o'zing bajarishing shart emas. Fermamizning mudiri Sirojiddin aka nuqul shunaqa qiladi. Raisdan biron topshiriq olib kelsa a'zolariga topshiradi. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin men mudirlikka o'xshash ishlarni yaxshi ko'raman. Shu o'ynayversang-o'ynayversang, senga tegishli ishlarni birovlar bajaraversa-bajaraversa...

Ancha vaqtdan buyon direktorimiz nomiga to'rt-beshtamiz birlashib talabnoma yozmoqchi bo'lib yuruvdik. Maktabga borib o'shani yozishga kirishdim.

«Pushkin nomli maktab direktori

o'rtoq O.Azizovga

O'quvchilar nomidan

ARIZA

Biz o'quvchilar so'nggi paytda juda qiynalib ketdik, uy vazifalari ko'paydi, ishlashga vaqt yo'q. Shuning uchun quyidagi fanlarni dars jadvalidan vaqtincha bo'lsa ham olib tashlashingizni so'raymiz: algebra, geometriya, ona tili. Umuman olganda, bu fanlarning hech kimga keragi yo'q. Boshni qotiradi, xolos. Ularning o'rni bo'sh qolmasin desangiz, futbol haqida fan bo'lsa, o'shani kiritsa ham bo'ladi. O'qituvchilikka, agar xo'p desa, o'rtoq Gennadiy Krasnitskiyni olib kelish kerak. Talabimizni amalga oshirsangiz, hamma fanlardan besh olib o'qishga so'z beramiz, sho'xlik qilmaymiz. O'quvchilar nomidan:

Hoshimjon Ro'ziyev»

Talabnomani yozishga yozib qo'ydim-u, lekin direktorning oldiga kirishga botinolmay qoldim. O'rnimdan turay desam deng, tizzam dag'-dag' qaltiraydi. Ko'zimni chirt yumib shartta turdim-da, shu holda, sekretar qizning hoyhoylashiga ham qaramay to'ppa-to'g'ri Otajon Azizovichning kabinetiga kirib bordim.

– Xizmat? – so'radi direktor.

– Salom, domla! – dedim ko'zimni ochib.

– Salom.

Indamasdan talabnomani uzatdim. Yo'q, ishim yana o'ngidan kelmadi. Otajon Azizovich naq bir soatcha nasihat qildi. Men ro'yxatdan o'chirib tashlamoqchi bo'lgan fanlar juda foydali emish, ularni puxta egallamasdan turib, kishi agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo'la olmas emish. U desam bu dedi, bu desam u dedi, xullas, oxiriga borib hech gap topolmay qoldim. Ichimda esa «Algebra o'qigandan ko'ra oyimdan kaltak yeganim ming marta yaxshi edi», deb turibman.

– To'g'rimi? – deb so'radi oxirida Otajon Azizovich.

– Noto'g'ri! – dedim ko'zimni uyning shiftiga tikib, – uchastkamizning agronomi Anorvoy tog'a hech joyda o'qimagan-ku.

– Endi o'qiyman deb turganida urush boshlanib qolgan, sen bilan bizning hayotimizni saqlash uchun frontga ketgan, – deb tushuntira boshladi Otajon Azizovich. Keyin u yog'ini yana nasihatga ulab yubordi...

